Amir Temur davlat boshqaruvini oʻz qoʻliga olgan bulsa-da, ammo mavjud shart-sharoitda amaliy ishlarni amalga oshirish nihoyatda ogʻir edi. Zero, mamlakat yo biron-bir viloyat, yoki ijtimoiy tabaqa doirasida kattagina mavqega ega boʻlgan amirlar hozircha uning hukmronligini tan olgan bulsalar-da, ular bilan Amir Temur oʻrtasidagi munosabat bundan buyon ularga va ular namoyandasi boʻlmish ijtimoiy muhitga nisbatan yurgiziladigan siyosat bilan koʻp jihatdan bogʻliq edi. Xuddi shuning uchun xam mazkur yilning oʻrtalarida Samarqandda oʻtkazilgan qurultoyda Amir Temur barcha viloyatlardan nufuzli amirlar, lashkarboshilarni yigʻib, ularning har birining mavqeyi va martabasiga qarab biron-bir mansab va mulklarni (viloyat, tuman, shahar) taqsimlab berdi va ularga kattadan-katta sovgʻalar ulashdi [2; 291-292].

Amir Temur davlat va jamiyatni boshqarishga doir islohotlarini dastlab oʻzining dastlabki farmonini eʼlon qiladi, unga mintaqalar va hududlar oʻrtasidagi asosiy kommunikatsiya vositasi boʻlgan yullarni xavfsizligi taʼminlash, maxsus va maxfiy hujjatlarni va axborotlarni joylarga yetkazish uchun choparlar qatnovni xavfsiz holatga keltirish,



harbiy qo‘shinlarni tiklash, turli janglar natijasida vayron bo‘lgan hududlarni tiklash va obodonlashtirish, rabotlar, karvonsaroylar, masjidlar va madrasalarni tiklash, aholining kambag‘al va miskin qatlamlari uchun xayriya-xonalar ochish kabilar edi. Shuningdek, ushbu farmonda u mamlakatdagi Sayidlar, din peshvolari, qozilar, shayxlarga, ya’ni musulmon jamiyatida o‘ziga xos mavqye va ta’sirga ega tabaqaga katga ikrom ko‘rsatish hamda talabalarga nafaqalar belgilashni buyuradi [3; 181]. Ushbu farmonning ahamiyatli jihati shundaki, davlat va jamiyatni isloh qilish uchun yuqorida keltirib o‘tilgan amaliy ishlar Sohibqironning butun umr davomida olib borgan barcha ishlarning ham huquqiy, ma’naviy va ijtimoiy asosi ekanligini bildiradi. Uzoq yillar davomida xalqni eng ko‘p qiynab kelayotgan o‘tkir muammolarni hal qilish boshlanayotgan ishlarning boshi ekanligi Temuriylar saltanatini mustahkamligini belgilab bergan asosiy omil deb hisoblash mumkin. Amir Temurning deyarli o‘ttiz besh yillik hukmronlik davrida ham ushbu masalalar davlat siyosatining ustuvor masalasi sifatida saqlanib qoldi.

Amir Temur davlatni rivojlantirish, davlatining mudofaa kuch-qudratini oshirish va mustahkamlash uchun harbiy va eng muhim iqtisodiy islohotlar o‘tkazdi. Bu islohotlar asosida taraqqiyot uchun yagona davlat, o‘zaro totuvlik, ishbilarmonlarga qulay mulkiy va huquqiy sharoit yaratishga, ayniqsa savdo-sotiqni rivojlantirishga alohida e’tibor berildi. Hozirgi kunda Muhtaram Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tomonidan olib borilayotgan siyosat va amalga oshirilayotgan islohotlar “Xalqni rozi qilish” va “Har bir insonga e’tibor” shiori ostida amalga oshirilayotgan ishlar buyuk ajdodimiz Sohibqiron Amir Temurning islohotlariga juda o‘xshashligini anglash mumkin.

Amir Temur asos solgan davlatchilik tizimi turkiy xalqlarning 2100-yillik davlatchilik tarixi va davrlar aro orttirilgan tajribalar, an’analar, xatolar ortida qilingan xulosalar va saboqlar va azaliy qonuniyatlarga asoslangan holda tashkil qilinganligi tarixiy manbalarda ko‘rish mumkin.

O‘zbek davlatchiligining Amir Temur davriga qadar shakllanib zamonlar sinovidan o‘tgan asoslari quyidagilardir:

1. Davlat o‘z vazifasini bajarmog‘i uchun, eng avvalo, siyosiy jihatdan mustaqil bo‘lishi lozim.
2. Davlat va jamiyat siyosiy yaxlitligi buzilmasligi kerak.
3. Davlat va jamiyat muayyan bir qonunlar, tartib lar, mafkura asosida boshqarilmog‘i lozim.



4. Boshqaruvning turli tabaqalari, yoʻnalishlari, sohalarini muvofiqlashtirib turuvchi maʼlum bir tizim shakllangan boʻlishi darkor.

5. Jamiyatda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar taraqqiyoti davlat diqqat markazida turishi lozim.

6. Fan va madaniyat ravnaqi toʻgʻrisida doimiy qaygʻurish davlat ahamiyatiga molik qatʻiy siyosat sifatida qaralmogʻi lozim.

7. Xar bir davr shart-sharoiti, tartiblariga koʻra davlat jamiyat ichki taraqqiyoti masalalarini tashqi dunyoda mavjud omillardan foydalangan holda ham hal etib borishi darkor.

8. Davlat tepasida turgan kuchlar oʻtmish, zamona va kelajakni teran tafakkur, qatʻiy iymon, gʻoyatda yuksak maʼnaviyatparvarlik va millatparvarlik ila anglamogʻi kerak [3; 322].

Amir Temur davlat rahbari sifatida butun faoliyati davomida ana shu asoslarni roʻyobga chiqara olgan fenomenal shaxs sifatida ham jahon tarixida oʻzining munosib oʻrnini egallagan. Yaʼni moʻgʻullarga 150-yillik qaramlikdan soʻng davlatning siyosiy mustaqilligini tikladi; oʻz davrida mavjud shariat, turo-tuzuklar asosida jamiyat hayotini boshqarishni yoʻlga qoʻydi; markazlashgan davlat tizimini yaratdi; iqtisodiy munosabatlarning asosi boʻlmish dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo-sotiq rivoji uchun barcha ichki va tashqi sharoitlarni barpo etdi; ijtimoiy munosabatlarni soliq tizimi, mulkchilik, turli ijtimoiy tabaqalar manfaatini himoya qilishni muhim deb bildi; hukmronligining dastlabki kunlaridan to umrining oxirigacha fan va madaniyat ravnaqiga alohida eʼtibor berdi va shaxsan oʻzi homiylik qildi; oʻz davri shart-sharoitiga koʻra tashqi siyosatda qatʻiy va faol hamda maqsadga muvofiq ravishda harakat qilib, davlatni saltanat mavqeyiga olib chiqdi; ulkani dunyoning eng buyuk siyosiy, iqtisodiy, madaniy markaziga aylantirdi; yakka-hukmronlik mazmuni yotgan jamiyat boshqaruvida birinchi rahbar qanday boʻlishi kerakligini namoyon etishdan shaxsan oʻzi yaqqol namuna boʻldi [4; 173].

Shuningdek, Amir Temur mazkur sakkiz asosni yana bir muhim toʻqqizinchi asos bilan boyitdi. Yaʼni, jamiyat rivojida barcha ijtimoiy tabaqalar faoliyatini nazarda tutish va manfaatlarini taʼminlashdan iboratdir. Har bir davlatning manbasi xalq boʻlgani kabi Amir Temur davlatning asosini oʻn ikki ijtimoiy toifa tashkil etgan: “Temur tuzuklari” asarida aytilishicha, davlat asosini oʻn ikki ijtimoiy toifa: 1) sayyidlar, ulamo, mashoyix, fozil kishilar; 2) ishbilarmon, donishmand odamlar; 3) xudojoʻy, tarki dunyo qilgan kishilar; 4) noʻyonlar (tuman yaʼni 10 000 kishilik qoʻshin boshligʻi)



boshlig'i, amirlar, mingboshilar, ya'ni harbiy kishilar; 5) sipoh va raiyat (oddiy xalq) 6) maxsus ishonchli kishilar; 7) vazirlar, sarkotiblar; 8) hakimlar (faylasuf, olim va donishmandlar) tabiblar, munajjimlar, muhandislar; 9) tafsir va hadis olimlari; 10) ahli hunar va san'atchilar; 11) so'fiylar; 12) savdogar va sayyohlar tashkil etadi. Uning taqdirini esa uch narsa: podsho, xazina va askar hal qiladi [5, – B.8].

Amir Temur asos solgan davlat o'rta asrlarga xos musulmon Sharqida hukm surgan davlatlardan unchalik farq qilmasa-da, ammo saltanatdagi boshqaruv tizimlari qadim Turon-Turkiston davlatchiligining asriy sakkiz an'alariga qat'iy rioya qilib, uni yangi tartib va qonunlar bilan takomillashtirilgan edi. Buning yorqin misoli Temur tuzuklari hisoblanadi. Sohibqiron tomonidan yaratilgan tuzuklarda davlat boshqaruvi, ma'muriy amaldorlar va ularning vazifalari, turli ijtimoiy toifalarning jamiyat hayotida tutgan o'rni haqidagi qat'iy tartib va qonunlar ishlab chiqilgan.

Bu davrda boshqaruv ikki idoradan: dargoh va vazirlik (devon)dan iborat bo'lib, dargohni oliy hukmdor ya'ni Amir Temurning o'zi boshqargan. Dargoh faoliyatini boshqarish, uning devonlar, mahalliy hokimiyat idoralari bilan bog'lanib turish ishlari oliy devon zimmasida bo'lgan. Saroydagi dargoh - Oliy kengashda ichki va tashqi siyosatning eng muhim masalalari, hokimiyatning yuqori amallariga mansabdor shaxslar tayinlash va boshqa masalalarni muhokama qilgan. Dargoh tizimida arzbegi, tovachi, xojib, jibachi, qushbegi, xazinador, xonsolar, bakovulboshi, kotib, munshi, bitikchi va boshqa saroy amaldorlari faoliyat ko'rsatganlar [6; 177-180].

Amir Temur davlatining markaziy ijro ma'muriyati bosh vazir - devonbegi boshliq yetti vazirlikdan iborat arkoni davlat - Vazirlar mahkamasi tomonidan boshqarilgan. Birinchi vazirlik - mamlakat va rasmiy ishlar bo'yicha faoliyat ish olib borgan. Bu vazirlik viloyat tumanlaridan to'planadigan hosil, soliqlar, o'lponlar va ularning taqsimoti, kirim-chiqimlar hamda obodonchilik ishlari bilan shug'ullangan. Ikkinchisi - vaziri sipoh, ya'ni harbiy ishlar bo'yicha bo'lib, askarlarning maoshi hamda oziq-ovqat va qurol-yarog'lari ta'minoti bilan shug'ullangan. Uchinchisi - tijorat vazirligi bo'lib, savdogarlarning mol-mulkidan olinadigan zakot va bojlar, egasiz qolgan mol-mulklarni tasarruf etish, meros va merosxo'rlar bilan bog'liq bo'lgan masalalarni hal etish kabi ishlarni bajargan. To'rtinchisi - saltanat ishlarini yurituvchi vazir, ya'ni moliya ishlari vaziri bo'lib, davlat xazinasidan sarf etiladigan xarajatlar, umuman, saltanat kirim-chiqimlarini boshqargan. Mazkur to'rt vazirlikdan tashqari, chegara viloyatlari va tobe mamlakatlar ishlarini nazorat qilib turish uchun yana maxsus



uchta vazirlik ta'ris etilgan edi. Bu uch vazir mazkur viloyatlardan davlat xazinasiga kelib tushadigan daromadlarni nazorat qilish va ular bilan bog'liq bo'lgan moliyaviy masalalar bilan shug'ullangan. Ular, o'z navbatida, saltanatning bosh nazorat hay'atini tashkil etganlar. Mazkur hay'at "xolisa" deb atalgan. Bu yetti vazirlik devonbegiga bo'ysungan va u bilan bamaslahat saltanatning muhim moliyaviy ishlarini amalga oshirgan [7; 88-85].

Amir Temur davlati idoralarida farmonlar o'ziga xos yangi usulda – sarnoma usulida joriy qilindi. Bu usul Amir Temurni hukmdor sifatida namoyon etardi. Amir Temur amalga oshirgan buyuk ishlardan biri – erkin va sivilizatsiyaviy institut sifatidagi davlatchilik g'oyasini asoslash va uni himoya qilish bo'ldi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, sotsiologiyaning aniqlikni va donishmandlik talabi yuqori bo'lgan fan ekanligi uchun ham Movarounnahrda Amir Temurning davlat va jamiyat boshqaruviga doir ta'limotlari jamiyatni bevosita o'rganishga doir tadqiqotlari, xulosaviy mushohadalar bilan boyitilgan asarlari ma'naviy-aqliy kamolotga erishgan yillarida yaratilgan. Masalan, Amir Temurning "Temur tuzuklari", Nizomiddin Shomiy "Zafarnoma" asari, Muiddin Natanzini "Muntahabul tavoroixi mu'inyiy", Nizomulmulkning "Siyosatnoma yoki siyar ul-muluk" Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asari shular jumlasidandir. Amir Temurning fozil jamiyat va adolatli davlat barpo etishga doir bunyodkor va ezgu g'oyalari G'arb ijtimoiy-siyosiy va falsafiy ta'limotlarni shakllanishiga metodologik ta'sir ko'rsatgan. G'arbning ilg'or olimlari Sharq mutafakkirlari merosini o'rganish, ularning asarlarini Yevropa tillariga tarjima qilish asnosida davlat va jamiyatni rivojlantirish orqali jamiyatni o'rganishga doir bilimlar va qarashlarni ko'p jihatdan boyitgan deb hisoblash mumkin.

REFERENCES

1. Низомиддин Шомий "Зафарнома" асари. Форс тилидан ўгирувчи - Юнусхон Хақимжонов. "Ўзбекистон" нашриёти, 1996 й. – Б.61; Шарафиддин Али Яздий. Зафарнома, Муҳаммад Али таржимасидаги "Зафарнома" асарининг Туркиянинг Истанбул шаҳридаги Нури Усмоғия кутубхонасида 3268-рақам билан сақланадиган ягона нусха. – Б.298-299.
2. Муин ад-Дин Натанзи. Муиновское сокращение историй = التواريخ مذتخب / ред. Ж.Обен. – Тегеран, 1957. – Р.291-292.
3. Шарафиддин Али Яздий. Зафарнома, Муҳаммад Али таржимасидаги "Зафарнома" асарининг Туркиянинг



Истанбул шаҳридаги Нури Усмония кутубхонасида 3268-рақам билан сақланадиган ягона нусха. – Б.322.

4. Азамат Зиё Ўзбек давлатчилиги тарихи: (Энг қадимги даврдан Россия босқинига қадар) // Масъул муҳаррир: Б.Ахмедов. – Т.: Шарқ, 2001. – Б.173.

5. Темур тузуклари.Форсчадан А.Соғуний ва Ҳ.Кароматов таржимаси; Б.Ахмедов таҳрир. остида. Т.: Нашриёт-матбаа бирлашмаси, 1991. – Б. 8 б.

6. Азамат Зиё Ўзбек давлатчилиги тарихи: (Энг қадимги даврдан Россия босқинига қадар) // Масъул муҳаррир: Б.Ахмедов. – Т.: Шарқ, 2001. – Б.177-180.

7. Темур тузуклари.Форсчадан А.Соғуний ва Ҳ.Кароматов таржимаси; Б.Ахмедов таҳрир. остида. Т.: Нашриёт-матбаа бирлашмаси, 1991. – Б. 88-85 б.



ИЖТИМОЙ ДАВЛАТДА ОНА ВА БОЛА САЛОМАТЛИГИНИ МУХОФАЗА ҚИЛИШ

Кахрамон Каюмов

Ўзбекистон Миллий университети «Ижтимоий иш» кафедраси
доц.в.б., соц.фан.бўй. фал. док.(Phd)

nqayumov@inbox.ru

АННОТАЦИЯ

Ушбу мақолада ижтимоий давлатда оналик ва болалаикни муҳофаза қилиниши масаласига эътибор қаратилган. Бугунги кунда дунё аҳолиси ва оилалар сони ортиб бормоқда. 2023 йилга келиб туғилиш жараёни камая бошлаган бўлсада, оилалар сони ортишда давом этмоқда. Дунёда оилаларни вужудга келиши, никоҳ, туғилиш даражаси мунтазам ўрганиб борилади. Ижтимоий давлатда она ва бола саломатлиги муҳофазаси тушунчасининг мазмун-моҳияти ҳамда эволюцияси, маънавий интеллектual ва жисмоний жиҳатдан баркамол авлодни тарбиялашда оиланинг роли масалаларига эътибор қаратилган. Шунингдек амалга оширилаётган ислоҳотлар илмий жиҳатдан таҳлил қилинган.

Калит сўзлар: Ижтимоий давлат, она, бола, саломатлик, никоҳ, интеллектual, соғлиқни сақлаш, таълим, муҳофазалаш.

ABSTRACT

This article is devoted to the protection of motherhood and childhood in the welfare state. Today, the world's population and the number of families is growing. Although the birth rate began to decline by 2023, the number of families continues to grow. Fertility, marriage, and family fertility are regularly studied in the world. The emphasis is placed on the issues of the essence and evolution of the concept of maternal and child health in a social state, the role of the family in the upbringing of a spiritually, intellectually and physically perfect generation. Also, the ongoing reforms were analyzed from a scientific point of view.

Keywords: welfare state, mother, child, health, marriage, intellectual, health, education, protection.



XXI асрда ер юзи аҳолиси сони Countrymeters[1] лойиҳаси [маълумотларига](#) кўра, 2022 йил 15 август куни 8 млрддан ошди. Уларнинг 4,04 миллиард нафари эркак, 3,96 миллиард нафари аёллардир. Бунда эркаклар ва аёллар сони ўртасидаги тафовут 1,018 ни ташкил этмоқда. [Давлат статистика](#) кўмитаси маълумотларига кўра, 2021 йилнинг 1 январь ҳолатига кўра Ўзбекистон Республикасида жами 8 871 412 та оилалар мавжуд. Республикамиз ҳудудлари орасида энг кўп оилалар Фарғона вилоятига тўғри келган. Вилоятдаги оилалар сони 1 023 042 тани ташкил этган. Демак, мамлакатимизда 8 миллиондан ортиқ оилалар мавжуд экан, ушбу оилаларда истиқомат қилаётган оналар ва болаларни саломатлиги ва уларни ижтимоий ҳаёти мамлакат тараққиётига ўз таъсир кўрсатади.

Дунёда 176 мамлакат мустақилликка эришганидан сўнг оналик ва болаликни муҳофаза қилишга қаратилган кенг қамровли чора тадбирлар кўзда тутилган дастурлар ишлаб чиқилган. Шу ўринда ижтимоий давлат тушунчаси ва мамлакатимизда ушбу соҳага доир амалга оширилаётган ислохотларга ўз эътиборимизни қаратамиз.

“Ижтимоий давлат” тушунчасининг ўзи илмий категория сифатида XIX аср охирида Лоренц фон Штейн томонидан киритилган. Лоренц фон Штейн (1815–1890) немис иқтисодчи, социологи ва давлат бошқаруви соҳасида конституциявий мутахассис ҳисобланади. У тенглик ва эркинлик ғояларини илгари сурган. Унга кўра барча қатламлар ҳуқуқларининг мутлақ тенглиги, шунингдек, барча фуқароларнинг иқтисодий ва ижтимоий тараққиёти қўллаб-қувватланиши айнан ижтимоий давлатнинг асосий тамойили эканлигини таъкидлайди. Ижтимоий давлат ғояларини ривожлантиришнинг босқичларидан бири бу иқтисодий ўсишдир деган фикрни илгари суради.

Демак, шу ғоялар ҳозирги вақтда ижтимоий давлат назариясида илмий тадқиқотлар учун асос бўлиб хизмат қилмоқда. Ижтимоий давлат ҳалқ фаровонлиги учун хизмат қиладиган, инсон манфаатларини ҳар нарсадан устун қўядиган, қонун устуворлигини таъминлайдиган, эркинлик ва шахсий дахлсизликни таъминлайдиган, ижтимоий хизматлар, таълим, соғлиқни сақлаш тизимни изчил ривожлантирадиган давлатдир. Шундай экан мамлакатимизда олиб борилаётган самарали ижтимоий сиёсатни қўллаб-қувватлаш, давлат раҳбари атрофида бирлашиш ва халқимиз хизматида камарбаста бўлиш ҳар бир фуқаронинг олий бурчидир.



Давлат томонидан ёш болали оналар иш соатлари чекланади, уларга тўлиқсиз иш куни, тўлиқсиз иш ҳафтаси, шунингдек, заруриятдан келиб чиқиб ўзларига қулай соатларда ёки уйда ишлаш имкониятлари берилади. Ҳар бир она ва бола соғлиғини кузатиш, уларга малакали тиббий ёрдам кўрсатиш ҳам давлат зиммасида. Соғлом авлодни тарбиялаш мақсадида давлат органлари, ташкилотлари ва муассасалари томонидан мактабгача таълим, мактаб, интернат мактаб, болаларни соғломлаштириш комплекслари каби хилма-хил тармоқлар ривожлантирилмоқда. Она ва бола саломатлиги масалси икки асосий бўлимни: акушерлик-гинекология (туғишга ёрдам бериш) ва болаларга даволаш-профилактика ёрдами кўрсатишни ташкил қилишни ўз ичига олади. Акушерлик-гинекология ёрдамини махсус муассасалар, хусусан, шаҳарда туғруқхоналар, шунингдек, таркибида аёллар маслаҳатхонаси бўлган туғруқхона комплекслари, касалхоналарнинг акушерлик-гинекология бўлимлари, акушерлик ва гинекология илмий тадқиқот институти, тиббиёт институтлари акушерлик-гинекология кафедраси таркибидаги шу соҳа бўлимлари, аёллар маслаҳатхонаси, поликлиника ва ишлаб чиқариш корхоналари тиббий-санитария қисми қошидаги акушерлик-гинекология кабинетлари амалга оширади. Қишлоқ жойларда аёлларга акушерлик-гинекология ёрдамини вилоят, туман касалхоналарининг туғруқхона бўлимлари, амбулаторияси, фельдшер акушерлик пунктлари ва поликлиникадаги акушерлик-гинекология кабинетлари кўрсатади. Аёллар маслаҳатхонаси ўз ҳудудидаги поликлиника, ҳомиладорларни соғломлаштириш муассасалари, «Она ва бола скрининг» маркази ва перинатал марказлар, тиббий-генетик, шунингдек, «Никоҳ ва оила» маслаҳатхоналари, оилавий ва болалар поликлиникалари, кўп тармокли касалхоналарнинг ихтисослаштирилган бўлимлари билан узвий боғлиқ ҳолда фаолият кўрсатади. Оналик ва болаликни муҳофаза қилиш тизимида даволаш-профилактика ёрдамининг бир нечта босқичлари мавжуд: биринчидан, ёшларни жинсий масалаларга тайёрлаш, соғлом оила қуриш, жинсий ҳаёт генетикаси ва жинсий йўл орқали юқадиган касалликлардан бохабар этиш бўйича юқори малакали тиббий ёрдам кўрсатишни «Оила ва никоҳ» илмий маслаҳатхоналари амалга оширади. Иккинчидан, ҳомилани антинатал муҳофазалаш комплекс чора тадбирларини амалга ошириш аёллар маслаҳатхонаси, туғруқхона комплекслари фаолиятига киради. Учинчидан туғишни бекаму-кўст олиб бориш учун ҳомилани интранатал



муҳофазалаш бу туғруқхоналар зиммасига юклатилган. Тўртинчидан, янги туғилган чақалоқ соғлиғини ҳимоя этиш, уни эмизиш, умумий ҳолати, физиологик ривожланишини назорат қилиш ва бошқа туғруқхоналарнинг чақалоқлар бўлимида кўздан кечириб борилади. Бешинчидан, мактабгача ёшдаги болалар соғлиғини муҳофаза қилиш. Олтинчидан, мактаб ёшидаги болалар соғлиғи ҳимоя қилиш. Буларнинг ҳаммаси Ўзбекистон Республикасида йўлга қўйилган ягона оналик ва болаликни муҳофаза қилиш тизимида босқичма-босқич амалга оширилади.

Республикамизда фаолият кўрсатаётган акушерлик ва гинекология институти, Педиатрия илмий текшириш институти, «Она ва бола» касалхонаси ва марказлари, шунингдек, шу соҳага оид қатор даволаш-профилактика муассасаларида оналар ва болалар соғлиғи бўйича илмий изланишлар олиб борилади [2, – Б.176].

Демак, оналик ва болаликни муҳофаза қилиш, уларни соғлиғини сақлаш энг асосий долзарб масалалардан ҳисобланади. Шу ўринда Шарқ олимларини қарашларига тўхталиб ўтамиз.

Оналар ва болаларни муҳофазаси ва уларга ғамхўрлик қилиш бўйича турли фан намоёндалари томонидан тадқиқотлар амалга оширилган. Антик давр мутафаккирларидан Афлотун, Арасту, Цицероннинг фалсафий қарашларида оналар ва болаларнинг жисмонан ва рухан соғломлиги, уларни таълим тарбияси масаласи жамият тарққиёти учун муҳимлиги тўғрисидаги билдирилган фикрларини кўриш мумкин. Платоннинг социологик концепциясида жамиятнинг манфаатлари шахс манфаатларидан устун туради. «Бенуқсон, юксак давлат – аёллар ва фарзандлар бирлигидир. Ҳар бир никоҳ давлатга фойда келтирилиши лозим» - деб таъкидлайди Платон [3, – С.605].

Аристотель фикрича соғлом инсоннинг табиати унинг сиёсий тизимга «киришиб кетиши» билан аниқланади. Ҳар қандай оила эса давлатни бир қисмини ташкил этади[4, – Б.198].

Фаробий никоҳга маънавий қадрият сифатида қарайди. Фозил шахарни барпо қилиш учун фарзандлар тарбиясига жиддий эътибор қаратиш лозимлигини таъкидлайди. Демак, бунда соғлом фикрлайдиган оналар зарур. Уларни жисмоний ва маънавий соғломлиги оиланинг тинчлиги ва ижтимоий, иқтисодий ҳолатига ҳамда жамиятдаги мавжуд шарт шароитларга боғлиқлигини тушунтиради [5, – Б.320].



Абу Райхон Беруний ўзининг Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар асарида бу масалага ўз эътиборини қаратган бўлса [6, – Б.486], Ибн Сино ахлоққа оида асарида комил инсон тарбиясига ўз эътиборини қаратади. Улар айнан она ва бола соғлиги масаласига алоҳида эътибор қаратмаган бўлсада, оила мустаҳкамлиги, таълим тарбия масаласига эътибор қаратишлари ушбу масалага узвий алоқадор эканлигини билдиради [7, – С.200].

Ибн Халдуннинг фикрича, кишилар фаровонлигининг ўсиши давлатдаги сиёсий вазиятга бевосита боғлиқ бўлади. Тамаддуннинг ривожланиши умран бадавий (қишлоқ ҳаёти)дан жамият ривожининг охирги ва юқори шакли умран хадарий (шаҳар ҳаёти) сари боради. “Умран” атамаси орқали Ибн Халдун бир қатор ижтимоий, иқтисодий ва демографик тушунчалар мажмуини тушунади. Давлат ва унинг фуқаролари фаровонлигига аҳолининг сони сезиларли таъсир кўрсатади. Давлатда аҳолининг кўпайиши меҳнат маҳсулотларига бўлган талабнинг ортишига олиб келади. У ёки бу шаҳарда қанча кўп одам яшаса, аҳоли жон бошига шунчалик кўп миқдорда моддий нозу-неъматлар тўғри келади. Ўз навбатида фаровонликнинг ошиши аҳоли сонининг ортишига замин яратади. Ибн Халдуннинг мана шу охирги фикри шарқ халқларининг менталитетини ифодалайди ва агар замонамизда ҳақида сўз борадиган бўлса, уни ғарб халқларига доим ҳам тадбиқ этиб бўлмайди. Сўнгги ўн йилликда Ғарбда ушбу тенденциянинг акси кузатилмоқда: давлатманд оилалар кўп сонли авлодга эга бўлишга шошилмайдилар, камбағаллик эса кўпболали оилаларнинг қисмати бўлиб қолди. Демак, Ибн Халдун ҳам бевосита оилалар ва уни ташкил этувчи оналик ва болалаик масаласига ўз эътиборини қаратган [8, – Б.160].

Буюк саркарда, ўзбек давлатчилиги асосчиси Амир Темури ўзининг “Темури тузуклари” асарида келтирадики ўғилларини уйлантиришда келинни насл насабига ўз эътиборини қаратганлигини таъкидлайди. Бу ҳам ўз навбатида хотин қизлар саломатлигига эътибор, соғлом авлодни яратиш масаласидир [9, – Б.63].

Немис файласуфи И.Кант ва И.Фихтенинг оила ва никоҳга бўлган қарашлари катта қизиқиш уйғотади. Улар оила ва никоҳ муаммоларини табиий, ҳуқуқий жиҳатдан аёл ва эркеклар тенгсизлигидан келиб чиққан ҳолда таҳлил қилишган. Уларнинг фикрича, никоҳ – бу маънавий ҳуқуқий институт бўлиб, жинсий иштиёқ камдан-кам учрашиши билан қадрли бўлиб, қонунлар орқали тартибга солиниши лозим. Шу билан бирга оилани мустаҳкамлашда фарзандални туғилиши ва уларни



соғлиги асосий тамойил эканлигига уруғу берган. Оналарни соғлиги эр-хотин ўртасидаги муносабатлар мустақкамлигининг асосий масалаларидан эканлигини таъкидлайдилар.

Социология фанининг асосчиси О.Конт оилани ўзгарувчан ва тарихий категория сифатида тушунган. Шу билан бирга оилани энг асосий функцияларининг бажарувчи асосий ижтимоий гуруҳ деб ҳисоблаган. Бунда оила ва унинг аъзоларини ўзаро муносабатлари масаласига алоҳида эътибор қаратилган. Оналар ва болалар саломатлиги турли омилларга боғлиқ бўлиб, оиланинг демографик, иқтисодий ва ижтимоий функцияларини меъёрида бажарилишини назарда тутди. Инглиз социологи Г.Спенсер жамият тури ва оила тури ўртасидаги алоқаларни очиб кўрсатди. Социал тараққиёти таъсири остида келиб чиқадиган, оилавий муносабатлардаги ўзгаришларни тадқиқ қилган. У даврга эволюция ва прогресс, ривожланувчи таъкидланувчи тадқиқотлар хос эди. У даврда маълумот йиғиш усуллари анча мураккаб бўлган. Уларнинг самарадорлиги эса паст бўлган. Таҳлил услубларида таърифлаш устун турар эди. Бу йўналиш социал дарвинизм деб аталган [10, – С.471].

Оиларни ўрганишни ривожланишига XIX асрда яшаб ижод қилган француз социологи Фредрик Ле-Плей ўзининг сезиларли улушини кўшган. Унинг фикрича, ҳар қандай жамиятда оила-кейинги авлодларни дунёга келтирувчи, янги туғилган одамларда яхшилиқни ривожлантирувчи, ёмонликни бостирувчи энг тинч воситадир деб эътироф этади. Агар оила кичик ваҳшийларни жиловлашни эплай олмаса, оиланинг ўзи азият чекади, оҳир оқибатда жамият ҳам вайрон бўлади. Яъни фарзандларни хар тамонлама соғлом қилиб тарбиялаш асосий вазифа ҳисобланади.

XX аср бошларида яшаган жадид маърифатпарварларидан Абдулла Авлонийнинг “Туркий гулистон ёхуд ахлоқ” [11, – Б.96], Маҳмудхўжа Беҳбудийнинг “Падаркуш” [12, – Б.280] ва Абдурауф Фитратнинг “Оила ва оила бошқариш тартиблари” [13, – Б.280] асарларида оила, фарзанд тарбияси, соғлом авлодни тарбиялаш, жисм, фикр, ақл тарбиясига ўз эътиборларини қаратганлар. Шу билан бирга фарзанд тарбиясида оналарни ва янги усул мактабларини аҳамиятини очиб берганлар. Шу билан бирга тараққиётга салбий таъсир кўрсатаётган ижтимоий-маърифий муаммолар ва уни бартараф этиш йўллари назарий асосланган.

XX асрнинг II-ярмидан оила муаммоси оила ва никоҳ барқарорлигининг бузилиши долзарб ва муҳим масалага айланди. Никоҳ барқарорлигининг бузилиши жамиятда ўз аксини топади. Натижада оила ва никоҳни тадқиқ қилишга ижтимоий талаб ортди. Аввалига АҚШда, кейин Англия, Австрияда, Канадада, Финляндияда, Францияда ва бошқа Европа давлатларида кечроқ собиқ СССР ва Шарқий Европа давлатларида тадқиқот марказларининг сони ортиб борди. Бунда оиланинг асосий муаммоларидан бири бўлган она ва бола соғлиги масалаларига ҳам алоҳида эътибор қаратилди. Бунда оналар ва болалар ўлимани олдини олиш, уларни соғлигини тиклашда профилактика ишларига эътибор ортиб борди.

МДХ давлатлари доирасида А.Г.Харчѳв, М.С.Мацковский, Н.Г.Юркевич, В.А.Сусенко, А.И.Антонов, С.И.Голод, Н.Я.Соловьев, О.Мусурмонова, Р.Умурзакова каби олимларни илмий ишлари катта аҳамият касб этган.

Оналар ва болалар саломатлигини ижтимоий жиҳатдан ўрганиш тарихий тарққиёт давридан маълум бўлсада, унинг илмий ўрганиш 19 асрдан бошланди. Динларни вужудга келиши ва тарқалиши ҳам оила, унинг аъзолари ва уларнинг ижтимоий, иқтисодий масалаларини ечишга кўрсатма ва далилларни берди. Жумладан, биз эътиқод қиладиган муқаддас ислом дининг асосий кўрсатмалари оила мустаҳкамлиги, унинг таъминоти, аёлларни қўллаб-қувватлаш, фарзандлар саломатлиги ва уни амалга ошириш механизмлари кўрсатиб ўтади.

Мамлакатимизда она ва бола саломатлиги масалаларига сўнгги йилларида тиббий ҳамда ҳуқуқий жиҳатдан етарлича эътибор қаратилди. Демак, оналик ва болаликни муҳофаза қилиш борасида етарли ҳуқуқий асос мавжуд. Унинг амалга ошириш механизмлари ишлаб чиқилган. Аммо ушбу механизмлардан фойдаланиш ва амалга оширишда аҳолининг ҳуқуқий, тиббий саводхонлик масалаларида маълум бир муаммолар мавжудки, ушбу масалага ижтимоий жиҳатдан ёндошиш узоқ келажакдаги истиқболни прогнозлаш социологик нуқтаи назардан комплекс тарзда тадқиқ этилмагани бизни мазкур мавзунини илмий жиҳатдан ёритишимизга сабаб бўлди.

REFERENCES

1. <https://aniq.uz/statistika/dunyo>
2. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси ҳарфи О «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти Тошкент. 176-бет



3. Платон. Диалоги. – Москва: “Мысль”, 1986.– С.605;
4. Аристотель. Афинская полития./Пер. С.И.Радцига. Москва: Соцэкгиз, 1936.– С.198
5. Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шаҳри. Тошкент: «Янги аср авлоди» 2018.– Б.320
6. Абу Райҳон Беруний. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар. Танланган асарлар. 1-жилд.– Тошкент: “Фан”, 1968.– Б.486, Ҳиндистон. Танланган асарлар. II-жилд.– Тошкент. “Фан”, 1965.– Б.497
7. Ибн Сина. Избранные философские произведения.– Москва: “Наука”, 1980.– С.200
8. Ибн Халдун, “Китоб ул-ибар”, (“Ибратли мисоллар китоби”,– 1370 й)
9. Амир Темур “Темур тузуклари” – Тошкент. “Наврўз”, 1992.– Б.63.
10. Герберт Спенсер. [Социальная статика: Изложение социальных законов, обуславливающих счастье человечества](#) = Social Statics (1851).– Санкт Петербург, 1872. – С.471.
11. Абдулла Авлоний. Танланган асарлар. 2 жилдлик. Пандлар, ибратлар, ҳикоялар, набийлар ҳаёти, драмалар, мақолалар, саёҳат хотиралари. Тошкент, «Маънавият». 2004.– Б.96
12. Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. нашрга тайёрловчи ва изоҳлар муаллифи Ҳ.Болтабоев. Тошкент: “Маънавият”. 2009.– Б.317
13. Маҳмудхўжа Бехбудий. Танланган асарлар//Тўпловчи, сўзбоши ва изоҳлар: Б.Қосимов. II нашр, тузатилган ва тўлдирилган.– Тошкент: «Маънавият». 1999.– Б.280.

OLIIY O‘QUV YURTLARIDA ILMIY-TA’LIM KLASTERLARINI SHAKLLANTIRISHNING XUSUSIYATLARI

A. N. Alikariyeva

O'zbekiston Milliy universiteti “Sotsiologiya” kafedrası doktoranti
sots.f.n., dotsent
alohonaliqorieva@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola ta’limni klasterlash tajribasi muammosiga bag‘ishlangan. Maqolaning maqsadi ta’lim tizimini modernizatsiya qilish muammosi nuqtai nazaridan klaster yondashuvi va xorijiy mamlakatlar tajribasini ko‘rib chiqishdir. Nazariy qoidalar va xulosalar umumiy ilmiy va maxsus uslubiy yondashuvlarga asoslangan: tizimli yondashuv, ekspert va mantiqiy tahlil usullari. Shu bilan birga, muallif rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarning xorijiy tajribasini tahlil qilib, oliy ta’lim muassasalarining raqobatbardoshlik darajasini oshirishga, shuningdek, ular asosida iqtisodiy rivojlanishning yangi klasterlarini shakllantirishga hamda ta’lim sifatini menejmenti tizimining rivojlantirishga klasterli yondashuv yordam beradi, degan xulosaga keladi.

Tayanch so‘zlar: ta’lim, ta’lim sifati, menejment, klaster dasturlari, ta’lim klasteri, ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, klaster yondashuvi.

ABSTRACT

This article is devoted to the problem of studying the clustering experience. The purpose of the article is to consider the cluster approach and the experience of foreign countries from the point of view of the problem of modernization of the education system. Theoretical positions and conclusions are based on general scientific and special methodological approaches: a systematic approach, methods of expert and logical analysis. At the same time, the author, analyzing the foreign experience of developed and developing countries, comes to the conclusion that the cluster approach contributes to increasing the level of competitiveness of higher education institutions, as well as the formation of new clusters of economic development on their basis and the development of the quality management system of education.



Keywords: education, quality of education, management, cluster programs, educational cluster, modernization of the education system, cluster approach.

Hozirgi vaqtda klaster yondashuvi oliy ta'lim muassasalarining raqobatbardoshligini oshirish, ta'limni rivojlantirish bo'yicha bir qator vazifalarni hal qilish vositasi sifatida davlat boshqaruvi amaliyotiga faol joriy etilmoqda. Klasterli yondashuv asosida uzluksiz ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, uzluksiz ta'lim tizimining klaster rivojlanish modeliga o'tishini rivojlantirish doimiylik, uzluksizlik, va izchillik tamoyillarini amalga oshirish va rivojlantirishni ta'minlashga qodir va shu bilan raqobatbardosh va professional mobil mutaxassislarni yanada samarali tayyorlash uchun sharoit yaratadi.

Klaster nazariyasi XIX asrda dastlab nemis iqtisodchisi Iogan Genrix fon Tyunen va uning izdoshlari V.Launxard hamda A.Veberlar tomonidan ilgari surilgan. A.Marshall o'zining "Iqtisodiyot fani printsiplari" ishida tadqiqot ob'ekti tarzida shahar aglomeratsiyasi va industrial hududlarni tanlab, o'tkazgan tadqiqotlarida samaradorlik va ishlab chiqarish geografik lokalizatsiyasi o'zaro bog'liqligini bayon etgan. U korxonalar va tashkilotlar samaradorligi ularning iqtisodiy zonalar yaqinida geografik joylashuviga bog'liqligini isbotlagan. B.Lundval va B.Yonsonlar esa klaster nazariyasi bilan bog'liq "rivojlanish bloklari" kontseptsiyasini taklif etganlar hamda soha yoki hududiy ishlab chiqarish birlashmalari, butun mamlakat aholisini uzluksiz o'qitish jarayoni milliy iqtisodiy yuksalish va raqobatbardoshlik manbai ekanligini ta'kidlaganlar [1, 2].

Rossiya olimlari ilmiy nashrlarida sanoat va innovatsion klasterlarni shakllantirish muammolariga katta e'tibor beriladi [3, 4, 5, 6]. Ta'lim klasterlari, qoida tariqasida, o'rta ta'lim muassasalari (maktablar, litseylar), texnik maktablar, oliy o'quv yurtlari, shu jumladan, kichik guruhlar, deb qabul qilinadi. Bu xususiyatni Klaster kontseptsiyasini ishlab chiquvchi etakchi xorijiy mutaxassislarning ishlarida ham kuzatish mumkin [12,13]. Biroq, A.V.Smirnova, O.A.Ryabkova, G.I.Grekova va o.A.Fixtner asarlarida ta'lim klasterini mustaqil tuzilmalar sifatida shakllantirishga yondashuvlarni, shu jumladan, grafik vizualizatsiyani taqdim etadilar [7,8].

Mamlakatimizda klasterlar bilan bog'liq ilmiy izlanishlar boshlanishi 2000-yillarga [9,10] to'g'ri keladi, bu boradagi ilmiy-amaliy ishlar esa O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan qabul qilingan 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar



Strategiyasida demokratik islohotlarni chuqurlashtirish, etakchi tarmoqlarni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish asosida mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish borasida barcha sohalarda keng ko'lamli islohotlar olib borish bilan boshlandi. Mazkur jarayonlar bilan bog'liq texnopolis, texnopark, klaster kabi qator tushunchalar turmush tarzimizga kirib keldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son, 2019-yil 8-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-son, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 18-apreldagi "Innovatsion g'oyalar, texnologiyalar va loyihalarni amaliy joriy qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3682-son, 2020-yil 6-noyabrdagi "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4884-son qarorlari hamda mazkur faoliyat bilan bog'liq boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash buyicha qator ishlar amalga oshirilmoqda [11].

Bugungi kunda oliy o'quv yurtlari nafaqat yuqori malakali mutaxassislar ishlab chiqarishi, balki kadrlar kapitali – mamlakatning hozirgi va kelajakdagi ehtiyojlarini qondiradigan mutaxassislar zaxirasini shakllantirishi kerak. Ta'lim klasteri – bu sanoat va sanoat korxonalarini bilan hamkorlik bilan birlashtirilgan o'zaro bog'liq oliy, o'rta va boshlang'ich kasb-hunar ta'limi muassasalari to'plamidir. Ta'lim klasterining o'ziga xos xususiyatlari turli darajadagi kasb-hunar ta'limiga ega mutaxassislarni shakllantirish uchun sharoit yaratish; ta'limning fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyasi; yuqori malakali ishchi kasblarning nufuzini ko'tarishdir.

Ta'lim klasterlari modellarining afzalliklari va kamchiliklarini aniqlash nuqtai nazaridan qiyosiy tahlil natijalari quyidagi 1-jadvalda keltirilgan.



Ta'lim klasterini shakllantirish modellarining qiyosiy tahlili

1-jadval

| Klaster modeli | | | | |
|-------------------------------|---|---|--|--|
| | R.Kulataning innovatsion ta'lim klasteri | A.V.Smirnovning ta'lim klasteri | O.A.Ryabkovning ta'lim klasteri | G.I.Grekov va O.A.Fixtnerlarning ta'lim klasteri |
| Modelning afzalliklari | Klasterning o'zaro bog'liq ta'lim, tadqiqot va tijorat sheriklarining ko'p bosqichli tarmog' sifatida namoyon bo'lishi; klaster faoliyati ta'lim muhitida innovatsion jarayonlarni faollashtirishga qaratilgan; klasterda sanoat hamkorligini amalga oshirish imkoniyati; klasterning yadrosi ta'lim va tadqiqot tashkilotlari bo'lishi mumkin. | Klasterning o'zaro bog'liq o'quv, ilmiy-tadqiqot va innovatsion tashkilotlar, korxonalar, hokimiyatlarning mintaqaviy tizimi sifatida namoyon bo'lishi; klasterdagi tashkiliy va institutsional tuzilmaning o'zaro bog'liqligi; klasterda sanoat hamkorligini amalga oshirish imkoniyati. | Klaster talabalarini o'qitishda innovatsion yo'nalishga ega bo'lgan o'rta va oliy kasbiy ta'lim manfaatlarini birligida namoyon bo'ladi; klasterning sub'ekt tarkibi biznes-inkubator bilan to'ldiriladi; uzluksiz ta'lim tizimi doirasida Klaster loyihalari amalga oshiriladi; "Maktab-kollej-oliy o'quv yurti" zanjiri kelajakdagi kasbni tanlashda motivatsiyani shakllantirish imkonini beradi. | Ta'lim klasterini shakllantirish Boloniya jarayoni tamoyillariga muvofiq ta'lim sub'ektlarining tarmoq o'zaro hamkorligi asosida amalga oshiriladi; model ta'lim jarayoni sub'ektlari o'rtasidagi hamkorlik shakllarini belgilaydi; Klaster tashkil etilgan, ya'ni model loyihani muvofiqlashtiruvchi maxsus organi yaratishni nazarda tutadi. |

| | | | | |
|-------------------------|--|--|--|---|
| Modelning kamchiliklari | Hokimiyat va tartibga soluvchi davlat tuzilmalari klasterga kirmaydi; aslida Klaster modeli ta'lim, fan va biznes integratsiyasi shakli sifatida taqdim etilgan. | Klasterni yaratishda hududiy xususiyat ustunlik qiladi; darajani ko'tarish muammosini hal qilishga ustuvor ahamiyat beriladi; ishlab chiqarishni innovatsion rivojlantirishga ikkinchi darajali rol beriladi; model ishtirokchilarning o'zaro ta'sirining asosiy shakllarini aks ettirmaydi. | Ta'lim klasteri ishtirokchilarining cheklangan doiralari; institutsional rivojining pastligi; klaster elementlari; klaster a'zolarining hamkorlik yo'nalishlari belgilanmagan. | Klasterni tashkil etishdan maqsad yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash va bozorda faqat xalqaro talablar va standartlarga javob beradigan ta'lim xizmatlarini ilgari surish; ishtirokchilarning innovatsion loyihalarni ishlab chiqish va ularni keyinchalik tijoratlashtirish bo'yicha o'zaro hamkorligi ta'minlanmagan. |
|-------------------------|--|--|--|---|

Ta'lim xizmatlarini ko'rsatish uchun turli xil manbalardan foydalaniladi: moddiy, mehnat, xarajat, ma'lumot. Belgilangan yondashuvlar ta'lim klasterida oliy ta'lim muassasalarining ta'lim xizmatlari samaradorligini erishilgan va kutilayotgan natijalarga, shu jumladan, belgilangan me'yor va talablarga muvofiqlik darajasini tavsiflovchi integral ko'rsatkich shaklida taqdim etishga imkon berdi. Alohida parametrlar va ularning kombinatsiyasi shartlari, shu jumladan, kirishda hududiy ehtiyojlar mavjudligini baholash, xizmat ko'rsatishdagi klasterlar va abituriyentlarning intellektual salohiyati darajasi, chiqishda – bitiruvchilarni ishga joylashtirish samaradorligini baholash, xizmatlar ko'rsatish jarayoni – o'quv jarayoni, uning resurs bilan ta'minlanishi, intellektual salohiyati va uni talabalar va ilmiy-pedagogik xodimlar o'rtasida oshirish.

Ta'lim xizmatlarining sifati va samaradorligi parametrlarini hisobga olgan holda, iste'molchi nuqtai nazaridan ta'lim xizmatlarining sifati eng katta ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi. Ammo, o'quv jarayonini bir xil tashkil etish bilan talabalar ta'lim xizmatlari sifatini har xil baholaydilar, bunga ularning shaxsiy yutuqlari muhim ta'sir ko'rsatadi. Ta'lim klasteri nuqtai nazaridan, eng muhimi, ta'lim xizmatlarining samaradorligini aniqlashdir, chunki bu samaradorlikni baholash bo'lib, Klaster respondentlarining o'z



faoliyat yo'nalishlari bo'yicha sheriklik munosabatlarini rivojlantirishdagi zaxiralarni aniqlashga imkon beradi va shu bilan ta'lim xizmatlari sifatini oshirishga yordam beradi.

Oliy ta'lim muassasalarining ta'lim xizmatlarini klasterli rivojlantirish kontseptsiyasini shakllantirishga kompleks yondashuv har bir ta'lim klasteri uchun dolzarb bo'lgan quyidagi vazifalarni hal etish imkonini beradi:

hududiy klasterlarning ta'lim xizmatlariga joriy va istiqboldagi ehtiyojlarini aniqlash;

hududiy iqtisodiyot talab qilayotgan, shu jumladan, hududiy klasterlar respondentlarining bevosita ishtirokida ta'lim xizmatlarini rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlarni shakllantirish;

ta'lim dasturlari mazmuniga va bitiruvchilarning vakolatlariga hududiy talablar asosida ta'lim xizmatlarining sifat xususiyatlarini shakllantirish;

ularning sifatini oshirish yo'nalishlarini aniqlash maqsadida ta'limni boshqarishning turli darajalarida, shu jumladan, alohida oliy o'quv yurtlarida ta'lim xizmatlari samaradorligini monitoring qilish tizimini shakllantirish.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ta'lim klasterlarining o'ziga xos xususiyatlari ta'lim, fan va ishlab chiqarishning integratsiyasi; mehnat bozorida talab qilinadigan yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash uchun sharoit yaratish; klasterlarning tarmoq yo'nalishi, rivojlangan institutsional tuzilma, shu jumladan, davlat hokimiyati va mahalliy o'zini o'zi boshqarish, maxsus yaratilgan Klaster loyihalarini nazorat qiluvchi tashkilotlar va ta'lim-innovatsiya sohasini rivojlantirishning me'yoriy-huquqiy bazasidan iboratdir [12,13].

Yuqorida sanab o'tilganlarni umumlashtirib, biz quyidagi xulosaga keldik: ta'lim klasterlarini yaratish va faoliyat ko'rsatishi oliy o'quv yurtlarida ta'lim sifati menejmenti tizimni rivojlantirishga imkon beradi, ta'lim ilmiy-tadqiqot tashkilotlari, korxonalar, ta'lim muassasalari, moliyaviy, konsalting va boshqa tuzilmalar o'rtasidagi integratsiyani kuchaytirish orqali mintaqaning ta'lim va innovatsion tizimining raqobatbardoshligini oshirishni ta'minlaydi.

REFERENCES:

1. Маршалл А. Принципы экономической науки. – М.: Прогресс, 1993.



2. Усмонов Б.Ш., Раджабов О. Изучение опыта инновациями в кластерах. – Т.: Fan va texnologiya, 2017.
3. Миролубова Т.В., Карлина Т.В., Ковалева Т.Ю. Идентификация региональных кластеров (на примере Пермского края) // Проблемы теории и практики управления. 2012. № 6. – С. 8–19.
4. Вилицкий Д.А. Формирование кластерной политики как механизма развития экономики промышленных отраслей России // Вестн. Моск. гос. обл. ун-та. Сер. «Экономика». 2010. № 1. – С. 50–56.
5. Гафуров И.Р., Васильева В.Л., Кашбиева Р.Р. Инновационные кластеры и социально-экономическое развитие регионов: анализ методических подходов. М.: «Анкил», 2012. – 292 с.
6. Домбровский М.А. Выявление экономических кластеров в Пермском крае: результаты экспертной оценки // Вестн. Перм. ун-та. Сер. «Экономика». 2013. № 4 (19). – С. 48–55.
7. Рябков О.А. Образовательный кластер – инструмент управления системой непрерывного образования // Вестн. Моск. гос. ун-та приборостроения и информатики. Сер. «Социально-экономические науки». 2012. № 39. – С. 183–190.
8. Грекова Г.И., Фихтнер О.А. Сете вые механизмы интеграции России в европейское образовательное про- странство // Вестн. Челяб. гос. ун-та. 2010. № 26 (207). Экономика. Вып. 28. – С. 11–17.
9. Бекмурадов А.Ш. и Янг Сон Бе. Стратегия развития текстильной промышленности Ўзбекистана. Кластерный подход. – Ташкент, 2006.
10. Солиев А., Кодиров Х. Кластеризация экономики – важнейший фактор стратегического планирования. Иқтисодиёт: таҳлиллар ва прогнозлар. – Тошкент, 2019. №1. – Б.104-108.
11. Ходжамкулов У.Н. Педагогик таълим инновацион кластерининг илмий назарий асослари. Педагогика фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати. 2020. – 66 б.
12. Аликариев Н.С., Аликариева А.Н. Олий таълим сифати менежменти тизимини ривожлантириш концепцияси//“Социология фанлари” (www.tadqiqot.uz/soci) электрон журнали. №1. – Тошкент, 2020. – Б. 7-18. DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2020-1>
13. Alikariyev N., Alikariyeva A. Complex factors of increasing the efficiency of human labor//Neuro Quantology. November



2022. Volume 20. Issue 18. Page 102-107.
doi:10.14704/nq.2022.20.18.NQ880012. www. neuroquantology. com. eISSN-1303-5150.



ИЖТИМОЙ ДАВЛАТДА ЗЎРАВОНЛИККА УЧРАГАН ШАХСЛАРНИ ҲИМОЯЛАШНИНГ ИЖТИМОЙ-ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ

Холида Омонкул қизи Зияева
ЎзМУ, Ижтимоий иш кафедраси доц.в.б.,
Социология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

АННОТАЦИЯ

Мазкур мақолада юртимизда зўравонликка учраган шахсларни ижтимоий ҳимоя қилиш, хотин-қизлар ва болалар ҳуқуқлари, эркинликлари ҳамда қонуний манфаатларини ишончли ҳимоя қилиш тизими янада такомиллаштирилиши, 18 ёшга тўлмаган шахсларни, яқин қариндош, собиқ хотин, бир рўзғор асосида биргаликда яшаётган шахс ёхуд умумий фарзандга эга бўлган шахсни мажбур этганлик учун жавобгарлик белгиланиши ва хотин-қизлар ҳуқуқларини ҳимоя қилиш, ижтимоий-сиёсий, ижтимоий-иқтисодий, маданий ҳаётимизда уларнинг тўлақонли иштирокини таъминлашга доир самарадор чора-тадбирлар масалаларига тўхталинган.

Калит сўзлар: ижтимоий давлат, хотин-қизлар, болалар, вояга етмаган шахс, яқин қариндош, мулк, таълим олиш, соғлиқни сақлаш, қасддан шикаст етказиш, маъмурий жазо.

ABSTRACT

In this article, the system of social protection of victims of violence in our country, the reliable protection of the rights, freedoms and legal interests of women and children will be further improved, persons under the age of 18, a close relative, ex-wife, a person living together on the basis of the same household, or a common child. The issues of determining responsibility for coercing the possessor and protecting women's rights, ensuring their full participation in our socio-political, socio-economic and cultural life were discussed.

Keywords: welfare state, women, children, minor, close relative, property, education, health care, intentional injury, administrative punishment.

Мустақилликнинг илк йилларидан қабул қилинган барча қонунларда аёллар ҳуқуқлари инсон ҳуқуқларининг ажралмас қисми сифатида эътироф этилди. Ўзбекистонда мустақиллик



йилларида бозор иқтисодиётига ўтиш асосида амалдаги ислохотларга мос равишда ушбу тизимнинг янгидан шакллантиришга киришилганини кўришимиз мумкин[1]. Бугунги кун аёли нафақат оилада уй бекаси, тарбиячи вазифасини бажаради, у жамиятдаги барча соҳаларда ижтимоий фаол инсон сифатида ҳам ташаббус ва ғайрат билан иштирок этмоқда. Аёл ўзининг маънавий қиёфаси, ички дунёси, муомила маданияти, ўз касбининг фидойиси, эзгу фазилатлар эгаси бўлиши билан нафақат фарзандлари, балки касбдошлари ва шогирдларига ҳам ибрат бўла олади[1. Б.64].

Юртимизда бу борада кенг кўламли ишлар амалга оширилмоқда. Жумладан, 2019 йил 2 сентябрдаги Ўзбекистон Республикасининг «Хотин-қизлар ва эркаklar учун тенг ҳуқуқ ҳамда имкониятлар кафолатлари тўғрисида»ги, 2019 йил 2 сентябрдаги «Хотин-қизларни тазйиқ ва зўравонликдан ҳимоя қилиш тўғрисида»ги қонунларнинг имзоланиши бу муаммоларнинг нақадар жиддий эканлигини исботлади. Унда оилавий-маиший зўрлик ишлатишнинг олдини олиш тизимини такомиллаштиришнинг устувор йўналишларидан бири этиб, жамиятда оилавий-маиший тусдаги зўрлик ишлатишнинг ҳар қандай кўринишига нисбатан жазо муқаррарлигини таъминлаш белгиланди.

Шунингдек, мамлакатимизда хотин-қизлар ҳуқуқларини янада мустаҳкамлаш ва уларга тенг имкониятлар яратиш, уларнинг ижтимоий фаолликларини ошириш мақсадида халқаро ҳамжамиятлар билан ҳам бир қатор халқаро ҳужжатлар имзоланди.

Хотин-қизларни давлат бошқарувида жалб этиш – Ўзбекистонда демократик давлат қурилишининг асосий элементларидан бири. Ўзбекистон БМТга аъзо бўлгач, хотин-қизларнинг ҳуқуқларини халқаро миқёсда тасдиқловчи ҳамда давлатларнинг ана шу ҳуқуқларни ҳимоя қилишга йўналтирилган хатти-ҳаракатларини белгилаб берувчи кўплаб халқаро шартномалар ва конвенцияларга қўшилди. Ўзбекистоннинг қатор халқаро ҳужжатларга, жумладан, «Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларацияси»га, Тўртинчи Умумжаҳон хотин-қизлар конференцияси декларацияси ва Ҳаракат платформасига (Пекин, 1995), «Оналикни муҳофаза қилиш тўғрисидаги конвенцияси»га, «Эркаklar ва хотин-қизларнинг бир хил меҳнати учун бир хил ҳақ тўлаш тўғрисидаги конвенция»га, «Хотин-қизларнинг сиёсий ҳуқуқлари тўғрисидаги конвенция»га қўшилиши аёлларнинг ҳуқуқларини таъминламоқда[2].



11 апрель куни «Хотин-қизлар ва болалар ҳуқуқлари, эркинликлари ҳамда қонуний манфаатларини ишончли ҳимоя қилиш тизими янада такомиллаштирилиши муносабати билан айрим қонун ҳужжатларига ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида»ги қонун [[ЎРҚ-829-сон](#)] президент томонидан имзоланди. Қонун расман эълон қилинган кун — 11 апрелдан бошлаб кучга кирди. Қонунга кўра, Жиноят кодексига қуйидаги ўзгартиш ва қўшимчалар киритилди [3].

Вояга етмаган шахс тавсифланган ёки тасвирланган порнографик маҳсулотлар билан муомала қилиш вояга етмаган шахс иштирокида қўшмачилик қилиш, фоҳишахоналар ташкил этиш жиноятлари жиноятга тайёргарлик ёки суиқасд босқичида тўхтатилганда, мазкур жиноятлар учун жазо тайинлашда **енгиллик берилмайди**.

Қуйидаги жиноятларни содир этганларга жазодан **муддатидан илгари шартли озод қилиш қўлланилмайди**:

- 18 ёшга тўлмаган жабрланувчи номусига тегиш ва уни жинсий алоқага мажбур этиш билан боғлиқ жиноятлар;
- 16 ёшга тўлмаган шахс билан жинсий алоқа ёки унга уятсиз-бузук ҳаракатлар қилиш;
- вояга етмаган шахс тавсифланган ёки тасвирланган порнографик маҳсулотлар билан муомала қилиш;
- вояга етмаган шахс иштирокида қўшмачилик қилиш, фоҳишахона ташкил этиш билан боғлиқ жиноятлар.

Аёлни ҳомиласини сунъий туширишга мажбурлаганлик учун жавобгарлик кучайтирилиб, жарима миқдори БҲМнинг 100 бараваридан 200 бараваригача ёки 3 йилдан 5 йилгача муайян ҳуқуқдан маҳрум қилиш ёхуд 300 соатдан 360 соатгача **мажбурий жамоат ишлари** ёки 2 йилдан 3 йилгача **ахлоқ тузатиш ишлари** билан жазоланаши белгиланди.

Илгари БҲМнинг 50 бараваригача жарима ёки 300 соатгача мажбурий жамоат ишлари ёхуд 2 йилгача ахлоқ тузатиш ишлари назарда тутилган.

Номусга тегиш ([118-модда](#)) ва жинсий эҳтиёжни зўрлик ишлатиб ғайритабиий усулда қондириш ([119-модда](#)) жиноятлари учун жавобгарлик **5 йилдан 8 йилгача** озодликдан маҳрум қилиш билан жазоланиши белгиланди. Илгари 3 йилдан 7 йилгача эди.

Шунингдек, мазкур жиноятлар ногиронлиги бўлган шахсларга, собиқ хотинига, бир рўзғор асосида биргаликда



яшаётган шахсга ёхуд умумий фарзандга эга бўлган шахсга нисбатан содир этилиши, жабрланувчига қараб туриш юклатилган таълим, тарбия, даволаш ёки бошқа муассасанинг ходими томонидан содир этилиши **ЖИНОЯТНИ ОГИРЛАШТИРУВЧИ ХОЛАТ** деб топилиши назарда тутилмоқда.

ЧАҚАЛОҚЛАРДАН ВОЗ КЕЧИЛИШИНИ ОЛДИНИ ОЛИШ ИШИ МАЗМУНИ ЁКИ УЛАРНИНГ ДАВЛАТ МУАССАСАЛАРИГА ЖОЙЛАШТИРИЛИШИНИ ОЛДИНИ ОЛИШ ЗАРУРИЯТИНИНГ ИЖТИМОЙ-ПСИХОЛОГИК САБАБЛАРИ

Дилноза Гафуровна Хусанова

Республика болалар ижтимоий мослашуви маркази
“Ижтимоий иш” бўлими раҳбари

АННОТАЦИЯ:

Мақолада эрта босқичларда чақалоқлардан воз кечилишини олдини олишнинг ижтимоий-психологик зарурияти моҳияти очиб берилган. Ўзбекистонда 3 ёшгача бўлган болаларнинг Болалар уйларига жойлаштирилишини олдини олиш бўйича олиб борилиши керак бўлган ислохотлар мазмуни ва шакли, жумладан боладан воз кечиш истагидаги аёллар билан олиб борилиши керак бўлган ишлар мазмуни бўйича тавсиялар берилган.

Калит сўзлар: чақалоқдан воз кечиш, ижтимоий етимлик, олдини олиш, исталмаган ҳомила, Ижтимоий хизмат, давлат муассасаси, тутинган оила, меҳрли мулоқот, ҳиссий боғланганлик.

ABSTRACT:

The article reveals the essence of the socio-psychological necessity of preventing the abandonment of babies in the early stages. Recommendations were given on the content and form of reforms to prevent children under 3 years of age from being placed in orphanages in Uzbekistan, including the content of work to be carried out with women who want to give up children.

Keywords: baby abandonment, social orphanhood, prevention, unwanted fetus, Social service, public institution, foster family, loving communication, emotional attachment.

Боланинг туғилиши ҳодисаси нафақат ота-она, балки оиланинг яқинлари учун одатда орзиқиб кутилган хурсандчилик билан қарши олинади. Лекин жамиятимизда баъзан шундай ҳолатлар содир бўладики, воқеа гувоҳи бўлган инсон беҳосдан “Шу боланинг уволидан кўрқмадимикин?”, “Бу боланинг ҳам онаси бордир?” ва шу



каби нохуш кайфиятнинг давом этишига сабаб бўлувчи ўй-хаёллар қуршовига фарқ қилади. Чақалоқларнинг ташлаб кетилиши, улардан воз кечилиши муаммоси ҳар қандай инсонда она хатти-ҳаракатидан нафратланиш туйғусини юзага келтириши табиий.

Аксарият ҳолатларда “Нима учун аёл боладан воз кечади?” деган савол инсонни ўйлантириб қўяди.

Республика болалар ижтимоий мослашуви марказининг фарзандидан воз кечган аёллар билан олиб борган ўрганиш ишларининг кўрсатишича, юқорида кўрсатилган сабаблар ташқаридан қараганда аёлларнинг гўёки “ўргимчак тўри”дан йўл қидириб, ўз хотиржам ҳаётини қуришга бўлган интилиши кабидек туюлади. Ўз шахсий ҳаётида ҳиссий хотиржамлик топмай яна қайта бошқа ижтимоий муаммоларга учраган аёлга, эҳтимол айбловчи назаримиз билан қарамай, аксинча унинг болаликдан ҳаёти тарзини таҳлил қилсак, уни ҳаётидаги умидсизлик ҳолатига олиб келган ҳодисаларнинг асл илдизларига тўқнашишимиз табиий.

Ушбу мақоламизда, биз Ўзбекистонда халқда “тирик етимлик” деб аталувчи ижтимоий етимлик муаммолари илдизлари, нима учун боланинг эрта ёш босқичларида уни давлат муассасасига жойлаштириш эмас, балки бегона бўлсада тутинган оилаларда тарбияланиши имкониятини таъминлашнинг ижтимоий-психологик моҳиятини изоҳлашга ҳаракат қилмоқчимиз.

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Етим болалар ва ота-онасининг қарамоғидан маҳрум бўлган болаларни жойлаштиришнинг муқобил шакллари танлаш, оила институтини мустаҳкамлаш ҳамда ижтимоий етимликни олдини олиш тизимини такомиллаштириш чоратадбирлари тўғрисида” 2019 йил 30 сентябрдаги 824-сонли Қарори қабул қилиниши Ўзбекистонда етим ва ота-она қарамоғидан маҳрум бўлган болаларни ижтимоий ҳимоялаш тизимида қатор ислохотлар кечишига замин яратди. Мазкур ислохотлар болаларнинг “оилада яшашга бўлган ҳуқуқи”ни таъминлашга қаратилган қатор саъй-ҳаракатларни ўз ичига олади. Жумладан, ушбу қарор билан тасдиқланган “2019 – 2023 йилларда Меҳрибонлик уйларини ноинституционаллаштириш” дастурининг “Янги туғилган боладан воз кечмоқчи бўлган аёллар билан профилактика ишларига йўналтирилган ижтимоий ва психологик кузатув дастурларини ишлаб чиқиш ва тасдиқлаш” 10-бандида фарзандидан воз кечувчи аёллар билан профилактик ишларни, қийин ҳаётий вазиятларга



тушиб қолган аёлларга ижтимоий ёрдам кўрсатишга қаратилган психологик-педагогик, ижтимоий-ҳуқуқий технологиялар қўлланилишини кучайтиришга алоҳида эътибор қаратилган.

Адабиётлар таҳлилининг кўрсатишича, янги туғилган чақалоқдан воз кечилиши билан боғлиқ муаммо қийин ҳаётӣ вазиятдаги аёлнинг ижтимоий-психологик муаммолари билан бевосита боғлиқ бўлиб, бу аёлнинг ўз шахсий “ижтимоий Мени”ни психологик ва ҳиссий жиҳатдан идрок этиш, шахсий мансублиги соҳасидаги бузилишлар, шунингдек “Мен ва фарзандим” ёки “фақат ўзим” муносабатлар тизимидан қайси бирини танлаш билан боғлиқ қийинчиликлар оқибатида содир бўлади.

Фарзандидан воз кечиш истагидаги аёлларнинг аксариятида уларнинг бутун ҳомиладорлик даври психологик танглик (кризис) ҳолатида кечади. Бу даврни улар оналикка инстинктив жиҳатдан интилиш мотивлари билан жамоатчиликнинг муҳокамасидан қочиш, ўз имкониятлари ва кучига ишончсизлик мотивлари орасидаги “кураш” кайфиятида ўтказадилар.

Фарзандидан воз кечиш билан тугайдиган кўпгина вазиятларда фарзандини истамаслик муаммоси аёл ўзининг ҳомиладорлигини билган илк куниданоқ бошланади. Ҳомиладорликни тўхтатиш истаги, исталмаган ҳомиладан кутулиш бўйича уринишлар, ҳомиладорлигини кеч билиб қолиш, боланинг ногиронлик билан туғилиши эҳтимоли борлигини кўрсатувчи скрининг ёки таҳлил натижалари – бу онанинг ўз фарзандидан воз кечиш билан боғлиқ ниятини аста-секин кучайиб боришига сабаб бўлувчи эҳтимолий босқичлардир. Илк маротаба ҳомиладор бўлиб қолган қиз/аёлда содир бўлиши мумкин бўлган ҳадик ва хавотир абортнинг унинг соғлиғи учун зарарли оқибатлари, келгусида такроран бошқа оналик имкониятига эга бўлмай қолишидан қўрқув каби кечинмалар билан боғлиқдир. Болани дунёга келтириш – айнан шу қарор ўзининг келгусида яна қайта она бўла олиш имкониятини, бу билан бирга эса ўз соғлиғини сақлаб қолишга нисбатан қилинган қарордир. Оналарнинг бу каби деструктив хулқ-атвори – илм-фан ва амалиётда девиант оналик сифатида талқин этилади [2, 56]. Бироқ ҳаётда бола туғилганидан сўнг ёки иқтисодий муаммолар туфайли юзага келган ижтимоий-психологик жароҳатлар билан боғлиқ бўлган шундай вазиятлар ҳам бўладики, бунда яқин инсонининг, оила боқувчисининг ўлими, эгизак ёки учта, баъзан эса тўртта фарзанднинг дунёга келиши каби



кутилмаган ҳодисалар аёлни мураккаб қарор устида узил-кесил хулоса чиқаришга мажбур этади.

Аҳолининг демографик сони ўсишини қўллаб-қувватлаш масаласи муҳим ижтимоий-сиёсий муаммо бўлган мамлакатларда чақалоқлардан воз кечилишини олдини олиш муаммоси билан биргаликда, қийин ҳаётий вазиятдаги аёллар орасида абортларни олдини олиш масаласи ҳам долзарб ҳисобланади. Чақалоқлардан воз кечилишини олдини олиш ҳамда сифатли ва малакали ижтимоий кўмакни ташкил этиш мақсадида турли мамлакатларда ижтимоий хизматлар ривожланмоқда. Мамлакатда ижтимоий хизматларнинг ривожлантирилиши ижтимоий етимликни олдини олишга қаратилган чора-тадбирларнинг муҳим шартидир. Ижтимоий хизматлар оилавий поликлиникалар, васийлик ва ҳомийлик органлари, ваколатли хизматлар ҳамда бошқа давлат ва нодавлат ташкилотлари билан ҳамкорликда ижтимоий хизматларнинг турли соҳалари бўйича кўмакни амалга оширадилар. Мазкур хизматларнинг асосий ғояси “болага ёрдам бериш учун унинг оиласига кўмаклашиш лозим” тамойилига асосланган.

Ижтимоий хизматларда амалга ошириладиган чора-тадбирларнинг асосий моҳияти қийин ҳаётий вазиятда қолган аёлларни эрта босқичларда аниқлаш ҳамда уларни ижтимоий, психологик ва моддий қўллаб-қувватлашга қаратилган. Халқаро тажрибанинг кўрсатишича, ижтимоий хизматлар фаолияти йўлга қўйилган шу мамлакатларда чақалоқлардан воз кечилишини олдини олиш бўйича чора-тадбирларнинг самарадорлиги кўрсаткичи бирмунча юқорироқдир. Ижтимоий хизматлар фаолияти натижаларининг кўрсатишича, касбий салоҳиятли тарзда ташкил этилган хизматлар натижасида 50 % вазиятларда оналарнинг ўз фарзандидан воз кечиши ҳолатларини олдини олиш мумкин. У ёки бу вазифалар ижросига ваколатли бўлган муассасаларнинг ҳомиладор аёлни қўллаб-қувватлашга йўналтирилган ижтимоий хизматларнинг барча ҳаракатларини мувофиқлаштириш бўйича ишлар аёлни ҳомиладорлигининг дастлабки биринчи ойларида – унинг хомилани олиб ташлаш (аборт қилиш) нияти билан мурожаат қилган босқичидан бошланиши зарур [4, 25].

Хизматлар турининг режалаштирилиши ижтимоий-иқтисодий, психологик муаммолардан келиб чиқаётган вазифаларга, заруриятда эса ҳомиладор аёлнинг педагогик салоҳиятига қараб йўналтирилган бўлиши лозим. Кўмакнинг амалга



оширилишида аёлнинг ҳаётини вазияти ва шароитлари инобатга олиниши керак.

Аёл билан психологик чораларни амалга ошириш – уни ҳомиладорлигининг барча босқичларида қўллаб-қувватлаш бўйича олиб бориладиган чораларнинг муҳим соҳасидир.

Уни ўраб турган муҳит, атрофидаги аёлга кўмак бериши мумкин бўлган инсонлари (оила аъзолари, боланинг отаси); фарзандидан воз кечишига ундаган омиллар; унинг индивидуал психологик хусусиятлари, шунингдек болалик даври билан боғлиқ хотиралари, аёлда унинг шахсий, ҳиссий-иродавий фазилатлари ва мотивацион соҳаси шаклланишига таъсир кўрсатган оиласи аъзоларининг ўзаро муносабатлари тавсифи; аёлнинг ўз оналик ролини тушуниши ва англанилганлиги даражаси ва ш.к.ларни таҳлилий нуқтаи назардан ўрганиш – психологик ишларнинг мазмунини тўғри режалаштириш ҳамда консултациянинг самарали усулини белгилаб олиш учун муҳимдир.

Шунингдек аёлнинг фарзандидан воз кечиш онларида турли кечинмалар, жумладан ғам-ғуссага тушиши, умидсизлик, иложсизлик, руҳий тушкунлик, виждон азоби кабилар қуршовида қолиши ҳам табиийдир. Бундай вазиятларда аёлнинг оғир руҳий ҳолатни бошдан кечириши шубҳасиздир. Фарзандидан воз кечиш истаги бор аёллар билан ишлаган психологларнинг таъкидлашича, “бундай аёлларнинг ҳар бешинчиси ўта руҳий тушкунлик ҳолатида бўлиб, психолог билан гаплашишни истамасди”, “кўпинча боладан воз кечиш истаги нафақат реал ҳаётини қийинчиликлар сабабли, балки аёлнинг ўзида ҳаётини қийинчиликларни енга олишига куч ва ғайратининг етишига ишонмаслиги сабабли ҳам юзага келади”, “уни қўллаб-қувватлайдиган инсони йўқлигидан боладан “қутулиш”га ҳаракат қиладилар”. Аёлларнинг “ишонадиган ҳеч кими йўқлиги, ҳеч ким ёрдам бермаслиги, муаммоларни эса бартараф этиб бўлмаслиги” билан боғлиқ руҳий кечинмалари ўз вақтида ижтимоий таъсир чораларини кўриш муҳимлигига ишорадир [4, 34].

Мутахассислар тадқиқотларининг кўрсатишича, аёлнинг ҳомиладорлиги даврида узоқ давом этувчи стресс муҳлатидан олдинги туғруқ хавфини кучайтириб, туғруқ жараёнининг узоқ ва оғир ўтишига, ҳомиланинг эрта тушиши, шунингдек токсикознинг ҳам қийин ўтишига сабаб бўлиши мумкин. Шунингдек, мутахассисларнинг эътибор беришича “асабий, хавотирланувчан оналарнинг фарзандлари анчагина жиззаки, таъсирланувчан бўлиб, гўёки уларнинг ичида нимадир “қийнаётганлиги” сабабли, бошқа болаларга қараганда улар кўпроқ



йиғлайдилар”. Республика болалар ижтимоий мослашуви маркази мутахассислари Республиканинг бир қанча пилот ҳудудларидаги туғруқ комплексларида чақалоқлардан воз кечилиши ҳолатини ўрганишга қаратилган тадқиқотларда туғруқхоналарнинг мазкур фактларда иштирок этган тиббий ходимлари билан ўрганиш ишларини олиб борганлар. Шу ўрганиш ишларидан бирида Тошкент шаҳри 7 туғруқхонаси тажрибасида фарзандидан воз кечаётган аёллар билан ишлаган мутахассислар чақалоқларда кузатилган ҳолатни эслаб, қуйидагилардан таъсирланиб сўзлаганлар: “чақалоқ гўёки онаси уни ташлаб кетаётганини сезгандек. Ўша онларда у кўп безовта бўлиб, унинг уйқуси тез-тез бузилиб, соғлиғи ҳам ёмонлашади. Уйқуси вақтида ҳам улар кўп сесканиб, бехосдан чўчиб уйғонадилар”.

Фарзандидан воз кечаётган аёллар билан ўтказилган кўпгина тадқиқотларда аниқланган далиллар, бундай аёллар билан ишлаётганда уларда ҳомилдорлик ҳолатига нисбатан ижобий муносабатнинг, шунингдек шахсий ҳиссий ҳолатига онгли равишда муносабатда бўлиш – ҳомиланинг соғлом ривожланишига таъсир қилувчи омил эканлиги ҳақидаги онгли тасаввурнинг шакллантирилиши муҳимлигини тасдиқлайди. Аёл фарзандининг соғлом туғилиши учун ҳам ўзининг руҳий соғлиғи ва ҳолатидаги ижобий кайфиятни, ҳиссий барқарорликни сақлаб қолишга нисбатан онгли равишда муносабатда бўлиши ва бунга интилиши зарурлигини англаши лозим.

Аксарият “исталмаган болалар” ҳаётининг маълум қисми институционал муассасаларда ўтишини ҳамда илк болалик даврида депривацион шароитларда тарбияланишини инобатга олган ҳолда эҳтимол мазкур омиллар уларнинг шахсий ва ижтимоий ривожланиши сифатини икки ҳисса оғирлаштириб юбориши мумкин. Агарда боладан воз кечилишини олдини олиш бўйича кўрилган чоралар ўзининг натижаларини бермасида, боланинг кейинчалик бирор меҳрибон тутинган оилада яшашини таъминлаш орқали унинг перинатал даврда ололмаган ҳиссий меҳр ва муҳаббатнинг компенсация қилинишини умид қилиб қолиш мумкин.

Мустақил равишда қарор қабул қилишга нисбатан ишончни шакллантириш аёл билан олиб бориладиган профилактик тадбирлар ичидаги муҳим вазифалардан биридир. Яна бошқа муҳим вазифалардан бири бу – аёлни сира тарк этмаётган жамият ва атрофдаги шахсларнинг уни муҳокама қилиб, қоралаши билан боғлиқ кўрқуви ва хавотирига барҳам беришдан иборатдир. Бунда аёлни



ишонтириб, жамиятнинг муносабати борасидаги фикрларини ўзгартириш билан бир вақтда унинг ўй хаёлларини ўзининг индивидуал қобилиятларига қаратиш муҳимдир. Ривожланаётган ҳомилага нисбатан ижобий муносабатини шакллантириш билан боғлиқ чоралар бир вақтнинг ўзида аёлнинг ўз вужудида ривожланаётган ҳомиласига нисбатан ҳиссий боғланганликни шакллантириш мақсадида ҳам самарали хизмат қилиши мумкин. Гарчи аёл фарзандидан буткул воз кечиш истагида қатъий турсада, унда руҳий ва жисмонан соғлом болани дунёга келтиришга нисбатан интилиш кайфиятини шакллантириш мақсадида ҳам қаратилмоғи лозим.

Бола туғилгач онанинг нияти қандай бўлишидан қатъий назар, уни фарзандини эмизишга кўндириш муҳим, гарчи у кейинчалик ташлаб кетсада. Бола туғилган заҳотиёқ “она”нинг тафтини, меҳрли мулоқотини ҳис қилиши зарур. Бу унда ижтимоий хотиржамлик каби туйғунинг дастлабки илдизлари ҳосил бўлишига сабаб бўлади.

Онанинг болани ташлаб кетиши муқаррар бўлса, у тақдирда боланинг кейинги тақдирини давлат муассасаларига жойлаштириш йўли билан эмас, балки бегона оилаларга – тутинган оила муҳитига бериш мақсадга мувофиқ. Қуйида биз тутинган оилалардаги табиий оилавий муҳит, она ва фарзанд муносабатлари ўрнатилиши зарурияти ҳақида тўхталамиз.

“Меҳрли мулоқот” деганимизда, кенгроқ маънода, яъни эмоционал бой ҳамда доимий тери, бадан тегиб туриши таъминланадиган фаол мулоқот назарда тутилмоқда. Бу мулоқотни комплекс эмоционал мулоқот деб аташимиз ҳам мумкин. Қуйида бундай мулоқотнинг болани турли руҳий соҳалари ривожлантирилишидаги таъсирини кўриб чиқамиз:

•Бола ҳатто чақалоқ бўлсада, унинг бедорлиги вақтида она ва яқин кишиларининг бола билан **турли ёқимли эмоцияларга ва ҳар хил оҳангдаги товушларга бой бўлган сўзлар билан гаплашиши**: эркалатиш, турли жест ва мимикалар ёрдамида бола билан унинг кўзи тўқнашадиган даражада мулоқот қилиш. Уйкуга кетаётган вақтида ҳам сокин овоз билан алла ва турли бошқа куйларни ҳиргойи қилиш.

Мазкур мулоқот боланинг унга ғамхўрлик қилаётган катталарга нисбатан ҳиссий боғланиши кучайишига ёрдам беради, боланинг сезги аъзолари ривожланишини фаоллаштиради. Товушга нисбатан қараш, жилмайиш каби реакция билдириши унинг товушни эшитиш сезгиси билан кўриш рецепторлари, ҳиссий таъсирчанлик



хамда идрок функцияларининг ўзаро координациясини таъминлайди. Бу ўз навбатида боланинг билиш жараёнлари, ҳиссий таъсирчанлиги ва мулоқотга интилиш каби ижтимоий кўникмалар шаклланиши фаоллашувига таъсир кўрсатади.

•Мунтазам *тактил алоқада бўлиш*. Болани юзидан ўпиш, силаб эркалатиш, кўлидан мунтазам равишда ушлаб туриш, доимий бирга бўлиш: кўлида кўтариб юриш, “кенгуру” рюгзагига осиб юриш; ачомлаб, бағрига босиб ухлаши. Она банд бўлган вақтда бошқа оила аъзоларининг мунтазам равишда тактил мулоқотни ўрнатишга ёрдам бериши.

Фаол тактил мулоқот болада тери сезги рецепторларининг фаол ривожланиши, тактил таъсирчанликнинг юқорилигини, тактил сезги хусусиятларини фарқлаш (идрок этиш) каби билиш ва сенсор соҳасининг ривожланишини таъминлайди. Бундай ривожланиш эса ўз-ўзидан боланинг ақлий соҳаси сифат жиҳатидан ўсиши имкониятини оширади.


Юқорида келтирилган барча мулоқот кўринишларининг бола учун яна бир муҳим аҳамиятли таъсири бор. Бу ҳам бўлса, *бола бундай меҳрли қуршовда ўзини ҳимояланган, хавфсиз шароитда, сеувчи ва қадрловчи инсонлар қуршовида эканлиги туйғусини беради*. Атрофдагилапрнинг унга ғамхўрлик кўрсатиши, доимий эҳтиёжларини қондиришга уриниши болада “*кераклик*” туйғуси мустаҳкамланишига ёрдам беради.

“Инсон ҳаётининг дастлабки йилларида чақалоқнинг ҳар томонлама ривожланишида шубҳасиз, меҳрли ғамхўрлик кўрсатувчи шахснинг таъсири каттадир. Чунки бундай инсоннинг мунтазам бола олдида бўлиши унда *ҳимояланганлик* туйғусининг пайдо бўлишига, бу эса ўз навбатида болада *хавфсизлик, хотиржамлик* туйғуси мустаҳкамланишига ёрдам беради. Бундай халоватга *интилиш*, унга ғамхўрлик кўрсатаётган инсонни ўзига яна *бошқа эҳтиёжлари қондирилиши учун жалб* қилиш иштиёқи ошаверади”. Буни қуйидаги “Ҳиссий боғланиш шаклланиши цикли” схемаси орқали ҳам тушуниш мумкин.

Масалан, боланинг қорни очди, у йиғи сигнали орқали онасига бу ҳақида хабар беради. Болада озиқланишга нисбатан эҳтиёж пайдо бўлди. Бу эҳтиёжни бола қорнидаги зўриқиш, яъни ошқозондаги “ачишиш”ни сезиш ҳисобига ва оғиз бўшлиғи ҳамда овқат хазм қилиш органларидаги зўриқиш таъсирида ҳис этади. Боланинг йиғисига жавобан она боланинг қорнини тўйғазиб, унинг физиологик



эҳтиёжини қондиришга ёрдам беради. Бунинг оқибатида эса қорни тўйган бола ўзини хотиржам ҳис қилиб, кайфияти кўтарилади. Бироздан кейин болада айирув органлари фаолияти (қорни оғриши ва сийдик чиқариши) билан монанд равишда бўшанишга нисбатан эҳтиёж пайдо бўлади. Бола тагини хўл қилиб қўйган бўлса, терисининг ачишиб зўриқиши ҳисобига бола йиғлайди, онаси тагина қуритиб қўйгач эса яна болада кайфият кўтарилиб, хотиржамлик пайдо бўлади. Унга хотиржамликни баҳшида қилувчи инсон (одатда она) шу тарика бола учун муҳим объектга айланиб бораверади.



Бу каби цикл болада интилувчанлик, ҳаракат қилиш каби ҳаёт учун курашувчанлик туйғусининг шаклланишига ҳам олиб келади. Онанинг бола йиғисига мунтазам жавоб бериши болада мурожаат этиш кераклиги ишончини оширади.

Гўдақлар уйида тарбияланаётган илк болалик давридаги болаларнинг ривожланиши хусусиятларини ўрганган америкалик психолог Джон Боулби шундай хулосага келаркан, бола учун унинг эҳтиёжини қондирадиган инсонга нисбатан ҳиссий боғланиши муҳимлигини алоҳида таъкидлайди. Джон Боулби ўз кузатишлари орасида шунга ҳам эътибор берганки, агарда бола олдида муайян бир ғамхўрлик кўрсатадиган инсон бўлмаса, болада ҳиссий мулоқот ўрнатиш, тактил алоқада бўлиш имконияти чегараланса, болада унинг атрофдагиларига мурожаат қилмаслик, бефарқлик, эмоционал реакция қилмаслик каби пассивлик белгилари кучайиб бораверади. Бу эса ўз навбатида, нафақат эмоционал реакциянинг сусайишига, балки интилмастик, ҳаёт учун курашмаслик билан кечувчи физиологик реакциянинг ҳам сусайишига олиб келар экан. Джон Боулби (1940), кейинчалик эса бошқа издошлари ҳам (Lawick-Goodall, 1968; Э.Эриксон, 1999) Гўдақлар уйидаги 1 ёшгача бўлган болалар ўртасидаги ўлим

сабабларини таҳлил қилиб, шундай хулосага келадилар: жисмоний ғамхўрлик кўрсатилган бўлсада, мунтазам ҳиссий мулоқотни таъминловчи ягона шахснинг бола олдида бўлмаслиги, бола соғлиғининг ёмонлашуви, иммунитетининг пасайишигача олиб келиши мумкин.

Бундай тадқиқотлар нафақат гуманитар фанлар соҳасида, балки соғлиқни сақлаш тизимида ҳам янги туғилган чақалоқларга нисбатан анъанавий муносабат ўзгаришига олиб келди.

Бугунги кунда туғруқхоналарда “барча эътибор бола учун” тамойили остида болани туғилган захотиёқ она кўкрагига қўйиш, она хушсиз бўлган тақдирда отаси қорнига ётқизиш, мунтазам озиқлантириш, туғилишининг биринчи дақиқалариданоқ она билан қолдирилиши – буларнинг барчаси болада тактил алоқа ҳамда ҳиссий мулоқотнинг ўрнатилиши заруриятига қурилган. Маълумки, туғилиш даври чақалоқ учун жароҳатли, стрессни юзага келтирувчи жараён дир. Хавфсиз, беҳавотир бўлган она қорни муҳитидан нотаниш ва ҳимояланмаган муҳитга “тушган” чақалоқ дарҳол она қорнига ётқизилса ўзини хотиржам ҳис қилади. Она териси тафти, илиқлик болада ҳимояланганлик туйғусини бериб, бола қулай, хавфсиз шароитда эканлиги туйғу ва ишончини таъминлайди.

Шунинг учун ҳам замонавий медицинада, жумладан неонатологлар чала туғилган ва соғлиғида бирон муаммоси бўлган болаларни соғломлаштириш ишларида “Кенгуру” усулини қўллайдилар. Кенгуру усули (kangaroo mother care - КМС) максимал равишда жисмоний контактнинг ўрнатилиши, яъни онанинг танаси бола танасига доимий тегиб туриши ҳисобига парвариш қилиш усулидир. Усулнинг моҳияти шундан иборатки, бола ҳар куни кун мобайнида она ёки отанинг кўкрак қисми танасига ётқизилади. Бунинг оқибатида бола атрофдаги муҳитга тезроқ мослашиб, унинг самарали ривожланиши ҳамда тана вазнининг ортишига эришилади.

Колумбиялик Эдгар Рей Санабриа и Гектор Мартинец Гомезларнинг 1979 йилларда Кенгуру усулини қўллаш орқали шундай хулосаларга келадилар: анъанавий инкубаторларда соғломлаштириладиган чақалоқларга нисбатан она танаси тафтини мунтазам ҳис қиладиган чақалоқларда соғломлашув самараси бирмунча юқоридир.

Кенгуру усулининг кейинчалик ҳам ғамхўрлик кўрсатувчи она томонидан мунтазам қўлланилиши нафас йўллари, асаб тизими, қон айланиш тизими касалликлари,



туғма дефектлар билан туғилган болалар учун жуда муҳимдир. Сабаби – бундай усулнинг қўлланилиши таъсирида боланинг тана ҳарорати яхшиланишига, қон айланиш тизимининг фаоллашувига, нафас органларининг яхши ишлаши ҳамда юракнинг бир меъёрда уришига эришилади. Бу эса табиийки боланинг асоратларсиз тузалиб кетиши кафолатини оширади.

Кенгуру усулида боланинг барча сезги органлари фаоллашади. Бола онанинг майин силаб-сийпалаши, танасининг тегиб туришини сезади, онанинг юрак уруши ҳамда турли оҳангдаги овозини эшитади, она сути ҳидини сезиб туради. Худди шу каби мувозанат туйғуси, она танаси ҳолати ва уни қуршаб турган илиқ муҳитни, турли ҳаракатларни ҳис қилади. Оғриқларни ҳис қилиши шу даражада пасаядики, ҳатто бола қўлига игна киришига нисбатан жиддий жавоб реакциясини билдирмаслиги мумкин. Тадқиқотларнинг кўрсатишича. Кенгуру усулининг қўлланилиши оқибатида чала туғилган болаларнинг ривожланиши асоратларсиз кечиб, вазни кам болалар орасидаги ўлим кўрсаткичи пасайишига эришилган.

Боланинг мунтазам она кўкраги танаси ва баданида бўлиши, кўкрак сути билан тез-тез озиқлантирилиши нафақат болага, балки туғруқдан сўнг онага ҳам ижобий таъсир қилади. Она ўзини эркин ҳис қилиши сабабли, унинг сут безлари яхши ишлаб, она бачадонининг ҳам тезроқ қисқаришига ёрдам беради. Бу эса шубҳасиз, она асаби тизимининг ҳам тикланишига самарали таъсир кўрсатади.

Бугунги кунда мазкур усул бутун дунёда самарали қўлланилиб келинмоқда. Чунки Кенгуру усули чақалоқлар учун нафақат инкубатор вазифасини ўтайди, балки турли дори-дармонлар ҳамда тиббий техникалар ўрнини тўлдирмоқда.

Ривожланишнинг кейинги босқичларида ҳам гўдак мазкур усулни ўрнини босувчи муносабат билан мунтазам парвариш қилиб келинса, шубҳасиз туғма ёки орттирилган неврологик касалликларга эга бўлган болаларда ҳам асоратлар камади: бош мия функционал ишлаши самараси ортади, нутқ талаффузи яхшиланиши ҳамда боланинг сенсор (сезги аъзолари, идрок хусусиятлари) ривожланиши тезлашишига эришилади.

Марказий нерв системаси фаолиятини самарали рағбатлантирувчи бундай усул асаб тизими, қон айланиш тизими касалликлари, туғма дефектлар билан туғилган психожисмоний имкониятлари

чекланган болаларнинг рухий ва жисмоний ривожланиши самарадорлигини оширишга хизмат қилади.

Унутмаслик лозимки, бундай эмоционал ва тактил мулоқот болада **ишонч ва кераклилик туйғуси** шаклланишига ёрдам беради.

Зеро, бежиз айтишмайди “инсонни дори эмас, ширин сўз даволайди”. Халқимизда кўплам далилларга гувоҳ бўламизки, оилаларга фарзандликка олинган болалар ўзининг тукқан болаларидан фарқ қилмайдиган даражада оқибатли бўладилар. Мана шу оқибат қачон кузатилади? Қачонки она ва фарзанд муносабатлари илк кунларданок самимий меҳрли мулоқотга йўғрилган бўлса. шундай экан, биз мутахассислар болаларни имкон қадар меҳрга тўла оила муҳитида тарбияланиш имкониятини излашимиз лозим.

REFERENCES:

1. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Етим болалар ва ота-онасининг қарамоғидан маҳрум бўлган болаларни жойлаштиришнинг муқобил шакллари танлаш, оила институтини мустаҳкамлаш ҳамда ижтимоий етимликни олдини олиш тизимини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” 2019 йил 30 сентябрдаги 824-сонли Қарори.
2. Брутман В.И., Варга А.Я., Хамитова И.Ю. Предпосылки девиантного поведения // Психологический журнал, 2000, № 2, с.79-99.
3. Отказы матерей от новорожденных. Причины и способы предотвращения / «Измени одну жизнь» РБД лойиҳаси доирасида ўтказилган тадқиқотлар натижасидаги ҳисоботдан. Москва, 2013 йил
4. Профилактика отказов от детей при рождении. Материал для специалистов и руководителей систем здравоохранения и социальной защиты, органов опеки и попечительства. ЮНИСЕФ, 2011
5. Хусанова Д.Ғ. Чақалоқлардан воз кечилишини олдини олиш чоралари юзасидан услубий тавсиялар: услубий қўлланма. – Тошкент: “MATRIX”, 2020. – 108 б.



**XORIJIY MAMLAKATLARDA OILA VA BOLALAR IJTIMOIIY XIZMATI:
TAJRIBA VA AMALIYOT
(G‘ARBIY YEVROPA VA AQSH MISOLIDA)**

F. O.Kamilov

sotsiologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) O‘zMU, “Ijtimoiy ish” kafedrası
katta o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Maqolada xorijiy mamlakatlar tajribasida oila va bolalarga ko‘rsatiladigan ijtimoiy xizmatlar ilmiyamaliy tahlil etilgan. Aqsh, Germaniya, Finlandiya va davlatlarida oila va bolalarga ko‘rsatiladigan ijtimoiy xizmat turlari, tashkiliy-huquqiy shakllari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy ish, ijtimoiy xizmat, oila, bolalar, zo‘ravonlik, ekspulatsiya, profilaktika, oilaviy bolalar muassasalari.

ABSTRACT

The article presents a scientific and practical analysis of social services provided to families and children in the experience of foreign countries. Types of social services provided to families and children in the USA, Germany, Finland and Sweden, organizational and legal forms are revealed.

Keywords: social work, social service, family, children, violence, exploitation, prevention, family children's institutions.

G‘arbiy Yevropa va AQSH davlatlarida oila va bolalarga ijtimoiy xizmat ko‘rsatish shakllari yaxshi yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, jahon tajribasi va amaliyotida o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Dunyodagi har qaysi millat borki, ertangi kunining davomchisi bo‘lgan farzandini sog‘lom va barkamol voyaga yetishlari uchun g‘amho‘rlik ko‘rsatadilar. Butun dunyoda aholiga ijtimoiy xizmat ko‘rsatish sohasi jadallik bilan rivojlanib, farovon turmush sharoitini yaratish imkonini bermoqda. Shunday ekan bolalarga ko‘rsatilayotgan ijtimoiy xizmatlar tizimi va shakllari bo‘yicha eng ilg‘or xorijiy tajribani o‘rganish muhim vazifalardan biridir. Bolalar ijtimoiy xizmati ko‘pgina davlatlarda tashkil etilgan bo‘lib, u asosan quyidagi maqsadlarni ko‘zda tutadi:



- oilalarning farovonligi va turmush darajasi o‘zib borishini davlat tomonidan ta’minlash;
- bolalarga nisbatan zo‘ravonlik va ekspluatatsiya bo‘yicha profilaktika ishlarini olib borish;
- turli xil institutsional va noinstitutsonal shakldagi vasiylik organlarini tashkil etish va ular faoliyatini qo‘llab-quvvatlash. [1]

Hozirgi kunda G‘arb davlatlari va AQSH da kunduzgi vaqtda bolalarni parvarish qilishga juda katta ahamiyat berilib, qator muvaffaqiyatlarga erishib kelinmoqda. Kunduzgi vaqtda bolalarni parvarish qilish bo‘yicha xizmatlar bir nechta bolalarni o‘z qaramog‘iga olgan holda, uyda, shuningdek, turli xil markazlarda, davlatga qarashli yoki xususiy tashkilotlar nazoratida, oilada amalga oshiriladi. So‘nggi vaqtlarda mazkur xizmat AQShda oilaviy bolalar muassasalari deb nomlanmoqda. Hozirgi vaqtda bu kabi oilaviy tipdagi bolalar muassasalari G‘arbiy Yevropa va AQSH mamlakatlarida ommalashib bormoqda. Bu muassasalarda asosan tashkilotchilik vazifasida qo‘shnilar tashabbus ko‘rsatmoqda. Oilaviy tipdagi bolalar muassasalari ko‘p bolali oilalardagi ishsiz ayollar uchun kunduzgi vaqtda o‘z farzandlari bilan birga qo‘shnisining bolalariga ham qarab turishni tashkillashtiradi. Davlatga qarashli bolalar muassasalarida parvarish qilinayotgan guruhdagi bolalar soni 3-4 tadan kam bo‘lmasligi rasman belgilab qo‘yilgan. Darhaqiqat, bugungi kunda qo‘shnilarning o‘zaro bir-birlarini qo‘llab-quvvatlashlari shaklidagi bunday xizmatni bir necha millonlab amerikalik oilalar juda ham hayotiy to‘g‘ri yo‘l deb hisoblamoqda. G‘arb mamlakatlarida ham bolani parvarish qilish shaklidagi shunga o‘xshash xizmatlar mavjud. Masalan, Germaniyada ushbu shakl “kunduzgi ona” deb nomlanadi. Germaniyaning 1990 yildagi bolalar va yoshlarga yordam ko‘rsatish to‘g‘risidagi yangi Qonuniga ko‘ra, kunduzgi ona o‘zining xarajatlari uchun kompensatsiya va bolalarni parvarish qilish bo‘yicha barcha masalalar yuzasidan konsultativ yordam olish huquqiga ega.

O‘tkazilgan tadqiqotlar natijasiga ko‘ra, bolalarni parvarish qilish xizmatlarini tashkil etish orqali onalarning bandlik darajasi ortishi va oilalarning turmush sharoitlari yaxshilanganligi kuzatilmoqda.

Germaniyada bolalar maktabgacha ta’lim muassasalari tarmog‘ini kengaytirish mahalliy boshqaruv organlari va federal yerlari vakolatiga kiradi. Germaniyada bolalar uchun kunduzgi davolash-profilaktik muassasalari keng ommalashgan bo‘lib, bugungi kunda ham faoliyat yuritib keladi. Bolalar bunday tashkilotlarga har kuni 8⁰⁰-17⁰⁰ gacha qatnaydilar.



Bu turdagi muassasalar yuqorida qayd etilgan bolalar muassasalaridan maxsus davolash-profilaktik va terapevtik xizmatlar ko'rsatilishi bilan farqlanadi. Bu yerga maktabgacha va maktab yoshidagi o'zining hulq-atvorida og'ishlar, ruhiyatida buzilishlar va intensiv davolash-pedagogik va terapevtik yordamga muhtoj bolalar qabul qilinadi. Mazkur muassasalarning bir-biridan farqi va afzalligi shundaki, masalan internat ko'rinishidagi muassasalarda ota-onalar bilan bevosita maslahatlashgan holda ish olib boriladi, terapiya o'tkaziladi va zarur holatlarda inqirozli vaziyatga duch kelgan oilalar muammolarini bartaraf qilishga aralashiladi.

Mazkur muassasalarda bolalar soni kichik guruhlarda 6-8 tagacha bo'lib, 2 ta pedagog va ularga qo'shimcha ravishda bolalar va ularning ota-onalari hamda maktablar bilan hamkorlikda ish olib boruvchi oliy ma'lumotga ega psixolog, terapevt, ijtimoiy pedagog, logopedlar faoliyat olib boradilar.

Finlandiyada munitsipalitetlar, ya'ni mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari bolalarning kunduzgi parvarishini ta'minlash mas'uliyatini o'z zimmasiga oladi. Finlandiyaning mahalliy xokimiyatiga qarashli maktabgacha ta'lim muassasalarida joy yetishmaganligi sababli, 3 yoshgacha farzandlari bor oilalarga davlat tomonidan bolaga munitsipalitetlarda tashkil etilgan kunduzgi parvarish xizmatidan foydalanish yoki bolani oilada tarbiyalash uchun ijtimoiy yordam pullari bilan ta'minlash taklif etiladi. Maktabgacha ta'lim muassasalariga esa birinchi navbatda rivojlanishida jiddiy muammolarga ega bolalar joylashtiriladi. Shuningdek, Finlandiyada kam sonli aholi punktlariga ega tumanlardagi munitsipalitetlarda tez-tez o'zgarib turadigan jadval asosida ishlaydigan ko'chma maktabgacha ta'lim muassasalari bolalarga qarab turadi.

[3]

AQShda tijorat kompaniyalari tomonidan tashkil etilgan bolalar muassasalarining soni ortib bormoqda. Bu kabi tarmoqlarning eng yirigi "Kinder ker" deb nomlanib, AQSH va Kanadada 950 dan ziyod shu nomdagi markazlar mavjud. Keyingi o'rinda 24 ta shtatda "Pti akademi" nomi ostidagi jami 400 ta markaz mavjud.

Shvetsiyada 1982 yilda "Oilalar bilan ishlashning aloqa modeli" deb nomlanuvchi Milliy xayriya dasturi ishlab chiqilib, hayotga tadbiq etib kelinmoqda.

Mazkur dasturning mohiyati shundaki, mahalliy ijtimoiy ta'minot qo'mitalari qiyin hayotiy vaziyatga tushib qolgan oilalarni qo'llab-quvvatlash uchun turmush sharoiti yaxshi, o'ziga to'q oilalarni yoki alohida shaxslar, ya'ni homiylarni jalb qiladi. Homiy bu—hech qanday professional



malakaga ega bo'lmagan oddiy inson, lekin u ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarga yordam berish, qo'llab-quvvatlashga qodir shaxs.

Aloqa modelida turli xil toifadagi, ya'ni ajrashgan, spirtli ichimliklar va giyohvand moddalar qabul qiluvchi, imkoniyati cheklangan farzandi bor hamda yosh oilalar bilan ish olib boriladi.

Aloqa modeli bo'yicha oilalar bilan ish olib borishda muloqot o'rnatuvchi kotiblik vazifasini bajarish ijtimoiy ishchining lavozim majburiyati doirasiga kiradi. Shved mutaxassislarining ta'kidlashicha, ijtimoiy ishchilar o'z ishiga sidqidildan yondashib, oila yoki mijoz bilan ijobiy qayta aloqa o'rnatmaguncha, shu ishda uzoq vaqtgacha ishlashlari mumkin.

Oilalar va mijozlar bilan aloqa xizmatini olib boruvchi ijtimoiy ishchi maxsus tayyorgarlikdan o'tadi. Ijtimoiy ishchi oila va mijozlarga yakka tartibda maslahatlar beradi shuningdek, guruhda treninglar olib boradi. Bu esa o'z navbatida ijtimoiy ishchidan turli xil nizoli vaziyatga duch kelgan oila a'zolarining oiladagi rolini chuqur o'rganishni talab etadi. Shuningdek, turli xil hududlardagi ijtimoiy ishchilar orasida tajriba va malaka almashish kurslari ham tashkil etiladi. Masalan, 6 ta agentlikdagi aloqa xizmati bo'yicha ish olib boruvchi ijtimoiy xodimlar uchun bir oyda bir marta oilalar bilan ish olib borish bo'yicha turli xil masalalarni muhokama etish maqsadida Stokgolm shahrida uchrashuv tashkil etiladi. [1]

Xulosa sifatida bolalar ijtimoiy xizmatlarini amalga oshirish mexanizmi, amaliyoti yuzasidan quyidagicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqdik. Jumladan,

- Internat tipidagi muassasalar negizida yetim va ota-ona qaromog'isiz qolgan bolalar va ularning oilalari uchun ijtimoiy xizmatlarni tashkil etish;
- Bolalar va oilalar uchun mahalla guzarlarida turli xil shakldagi bolalar ijtimoiy xizmatini yo'lga qo'yish;
- fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tarkibida ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarga majmuaviy professional yordam berishni ta'minlash maqsadida ijtimoiy ish amaliyotini rivojlantirish;

REFERENCES:

1. Беляева Л.А. Социальная работа с различными категориями людей / Учебное пособие. –Томск,2003.
2. “Bola huquqlari to'g'risida”gi Konvensiya – Nyu-York, 1989.
3. Корнюшина Р.В. Зарубежной опыт социальной работе. – Владивосток, 2004.



4. Козлов А.А. Социальная работа за рубежом: состояние, тенденции, перспективы. – М.: Флинта, 1998.
5. Социальная защита семьи и детей: зарубежный опыт. – М.: Институт социальной работы, 1992.
6. Tadjieva S.X. “Family-as a social partner of the state social work with children and families” “Bolalar va yoshlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash – farovon va taraqqiy etib boruvchi jamiyat asosi” mavzusidagi halqaro forum materiallari – T., 2013.
7. Холостовой Е.И. Словарь справочник по социальной работе/Под ред. д-ра инс. наук проф.– М.:Юрист, 2000.



**ПРОФЕССИОНАЛ ТАЪЛИМ ВА БИТИРУВЧИЛАР БАНДЛИГИНИ
ОШИРИШНИНГ ИЖТИМОЙ МЕХАНИЗМЛАРИ
(социологик таҳлили)**

Сардорбек Усмонхуджаевич Абдуллаев

Ўзбекистон Республикаси ИИВ академияси катта ўқитувчиси,
социология фанлари бўйича фалсафа доктори

E-mail: asardorbek85@mail.ru

АННОТАЦИЯ

Бугунги кунда ривожланган давлатлар шу жумладан, мамлакатимиз ҳам аҳоли бандлигини ошириш, ишсизликни олдини олиш ва бу орқали ижтимоий-иқтисодий соҳаларнинг ривожлантириш масаласига алоҳида эътибор қаратилган. Ушбу мақолада Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегиясида ёшлар бандлигини таъминлаш масалаларининг социологик таҳлили ҳамда мамлакатимизда аҳоли айниқса ёшлар бандлигини оширишига қаратилган изчил ислохотлар тадқиқ этилган.

Калит сўзлар: меҳнат, бандлик, аҳолини иш билан таъминлаш, эҳтиёж, ижтимоий механизм, меҳнат бозори, аҳоли бандлиги, ишсизлик, ижтимоий ҳимоя.

ABSTRACT

Today, developed countries, including our country, pay special attention to the issue of increasing employment, preventing unemployment, and thereby developing the social and economic spheres. This article examines a sociological analysis of youth employment issues in the development strategy of New Uzbekistan and consistent reforms aimed at increasing the employment of the population, especially youth in our country.

Keywords: labor, employment, need, social mechanism, labor market, employment, unemployment, social protection.

Ҳар қандай давлатнинг тарихий тараққиёт йўлидан маълумки, юртнинг жадал ривожланиши, муайян ютуқларга эришиши, халқнинг фаровон бўлиши ўша давлатда ёшлар таълим-тарбияси ва келажагига бериладиган эътибор даражасига чамбарчас



боғлиқ. Шу маънода, Ўзбекистонда ёшлар масаласи давлат сиёсатининг энг устувор йўналишларидан бири ҳисобланади.

Шунингдек, инсон ҳуқуқларини таъминлаш, давлат органларининг ҳисобдорлиги ва очиқлигини кучайтириш ҳамда фуқаролик жамияти институтлари, оммавий ахборот воситаларининг роли, аҳоли ва жамоат бирлашмаларининг сиёсий фаоллигини ошириш бўйича тизимли ишлар амалга оширилди.

2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясида белгиланган вазифаларни амалга ошириш, меҳнат бозори талабларига мос юқори малакали кадрларни тайёрлаш, таълим сифатини баҳолашнинг халқаро стандартларини жорий этиш, инновацион илм-фан ютуқларини амалиётга татбиқ этишнинг самарали механизмларини яратиш орқали мамлакатда таълим тизимини ислоҳ қилиш бўйича изчил ишлар амалга оширилмоқда.

Президентимиз томонидан 2019 йилнинг 6 сентябрида «Профессионал таълим тизимини янада такомиллаштиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги ПФ-5812-сонли Фармон, ушбу муҳим ҳужжат ижросини таъминлаш мақсадида Вазирлар Маҳкамасининг «Ўзбекистон Республикасида узлуксиз бошланғич, ўрта ва ўрта махсус профессионал таълим тизимини тартибга солувчи норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни тасдиқлаш тўғрисида»ги Қарори қабул қилиниб, профессионал таълимни ташкил этиш ва амалга ошириш тартиблари белгилаб берди.

Янги профессионал таълим тизими олдинги ўрта-махсус касб-ҳунар таълим тизимидан нимаси билан фарқ қилади?

Биринчи, асосий фарқи: олдин бир қолипда ишлайдиган касбларнинг мураккаблиги, у ерда шаклланадиган амалий кўникмалар ҳажми, масъулияти билан боғлиқ бўлмаган ҳолда, 3 йиллик стандартда ишлайдиган ўрта-махсус касб-ҳунар таълим дипломи берадиган касб-ҳунар коллежлари мавжуд эди.

Янги тизим 3 тоифага бўлинди.

Биринчи тоифа — янги муассасалар тармоғи бўлди. Бу муассасалар касб-ҳунар мактаблари деб аталади. Бу мактабнинг юқори синфида бирламчи касбий тайёргарликдан ўтадиган, бошланғич профессионал таълим дастурлари асосида фаолият кўрсатадиган касб-ҳунар мактабларидир.

Иккинчи тоифа таълим муассасалари — идоравий коллежлар.



Маълумки, иқтисодийнинг реал соҳаларига жуда катта миқдорда инвестиция киритилди. Бу инвестициялар бўйича ҳудудларда жорий этилаётган лойиҳаларнинг ҳаммаси янги, инновацион технологияларга асосланган.

Очилаётган янги иш ўринлари ҳам — ана шу янги технологик жараёнларга мўлжалланган иш ўринлари.

Вазирлик, идора ва йирик иш берувчиларга тақсимлаб берилдики, ўзларининг лойиҳаларини ҳаётга татбиқ қилиш, ишлаб чиқариш ва хизмат кўрсатиш кўламини кенгайтиришда мазкур коллежлар орқали янги яратилган иш ўринларига мақсадли равишда мутахассис тайёрлайди.

Учинчи тоифа таълим муассасалари — техникумлар тармоғи.

Бу Собиқ Иттифоқ давридаги техникумлардан таълим дастурларининг мақсади, вазифаси, ушбу дастур асосида шаклланадиган билим, малака, кўникма, компетенцияларнинг мураккаблик даражаси, ҳажми билан тубдан фарқ қилади.

Олий таълим дастурлари билан уйғунлаштирилган ҳолда, бакалаврнинг тўртдан бир қисмида шаклланадиган билим, малака, кўникмалари техникумларнинг ўқув режа ва ўқув дастурига сингдирилди.

Техникумни яхши ўзлаштирган ўқувчиларга таълим масканини битирганидан кейин имтиҳонсиз бакалавриятнинг 2-курсидан ўқишни давом эттириш имконияти берилди[1]. Бундай имтиёз олдинги техникумларда бўлмаган.

Фуқароларнинг ижтимоий ҳимоясини кучайтириш ва камбағалликни қисқартириш давлат сиёсатининг устувор йўналиши сифатида белгиланиб, аҳолини янги иш ўринлари ва кафолатли даромад манбаи, малакали тиббий ва таълим хизматлари, муносиб яшаш шароитлари билан таъминлаш сифат жиҳатидан янги босқичга кўтарилди. Сўнгги беш йиллик ислоҳотларнинг натижасида мамлакатимизда Янги Ўзбекистонни барпо этишнинг зарур сиёсий-ҳуқуқий, ижтимоий-иқтисодий ва илмий-маърифий асослари яратилди.

Жаҳон миқёсидаги мураккаб жараёнларни ва мамлакатимиз босиб ўтган тараққиёт натижаларини чуқур таҳлил қилган ҳолда кейинги йилларда “Инсон қадри учун” тамойили асосида халқимизнинг фаровонлигини янада ошириш, ижтимоий-иқтисодий соҳаларни трансформация қилиш ва тадбиркорликни жадал ривожлантириш, инсон ҳуқуқлари ва манфаатларини сўзсиз таъминлаш ҳамда фаол фуқаролик жамиятини шакллантиришга қаратилган ислоҳотларнинг устувор



Йўналишларини белгиланиши, кенг жамоатчилик муҳокамаси натижасида “Харакатлар стратегиясидан – Тараққиёт стратегияси сари” тамойилига асосан ишлаб чиқилган етти та устувор йўналишдан иборат 2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегиясида эркин фуқаролик жамиятини ривожлантириш орқали халқпарвар давлат барпо этиш, адолат ва қонун устуворлиги-халқчил давлат куриш, миллий иқтисодиётни, унинг ўсиш суръатларини замон талаблари даражасида ривожлантириш, адолатли ижтимоий сиёсат юритиш, сифатли таълим-тарбия, маънавий ва маърифий соҳалардаги ислохотлар, Қуролли Кучларимиз қудратини янада ошириш, аҳоли бандлигини ошириш сингари муҳим масалаларни қамраб олган. Аҳоли бандлигини таъминлаш, ёшлар ва ишсиз фуқароларни давлат ҳисобидан малакали касб-ҳунарга ўқитиш, оилавий тадбиркорликни ривожлантириш, эҳтиёжманд аҳолини манзилли қўллаб-қувватлаш орқали 2026 йилгача камбағалликни икки баробар қисқартириш масалари муҳим аҳамият касб этади.

Аҳолини иш билан таъминлаш ривожланаётган ва ривожланган мамлакатларда ҳам долзарб муаммо сифатида намоён бўлмоқда. Чунки ижтимоий зиддиятларни авж олиши, маиший муаммоларнинг долзарблашуви ишсизлик билан боғлиқ мавзу ҳисобланадики, бунга Евроиттифоққа аъзо давлатларни мисол келтириш мумкин. Ўзбекистон Республикасини “Аҳолини иш билан таъминлаш тўғрисида”ги[3] қонунининг 5–моддасида “Аҳолини иш билан таъминлаш соҳасидаги давлат сиёсатининг асосий принциплари” алоҳида белгилаб қўйилган.



1-диаграмма. Ишсизлик даражасининг ўзгариши динамикаси

Дунёнинг ривожланган давлатларининг тарихига назар солсак, ҳар бир мамлакат иш ва бандлик масаласига доир ўз назарий-методологик ёндашувини, қонунчилигини яратган. Бугунги кунда мамлакатимизда ҳам мазкур масаланинг назарий-методологик асоси яратилган бўлиб, мамлакатимизда қабул қилинган Қонун ва Давлат дастурларининг аксарият қисми аҳолининг бандлигини оширишга қаратилгандир. Қуйидаги диаграмма орқали эса мамлакатимиз ишсизлик даражаси динамикасини ўзгариш ҳолатини таҳлил қилиш мумкин (1-диаграмма).

2021 йилнинг 1 январь ҳолатида республикада иқтисодий нофаол аҳоли 4 миллион 364,2 минг кишини ташкил этиб, ўтган йилнинг мос даврига нисбатан 0,5 фоизга ёки 19,8 минг кишига ортиши кузатилган.

Бундан ташқари, 98,8 минг нафар ишсизларга 87,1 млрд сўм ишсизлик нафақаси тайинланган ва тўлаб берилган. 2021 йил давомида 37,3 минг ишсизлар ҳамда «аёллар дафтари», «ёшлар дафтари»га киритилган ишсизларга 83,1 млрд сўм субсидия маблағлари ажратилган. Аҳолини иш билан таъминлаш масаласи динамик мазмун касб этиб, уни бир нечта босқичларга ажратиб кўрсатиш мумкин. Бу мавзу мамлакатимизда, истиқлолга қадар даврда ва истиқлол даврида алоҳида ўрганиб келинмоқда. Аммо унинг социологик жиҳатларига алоҳида эътибор қаратилмаганлиги, алоҳида тадқиқот сифатида ўрганилмаганлигини кўрсатиб ўтамиз. Бандлик назариясини эволюцион шаклланиш босқичлари асосан қуйидаги иқтисод ва социология соҳа фанининг олимлари томонидан назарий таълимот мактабларига бўлиб ўрганилган. [4]

2022 йил 1 январь ҳолатида Ўзбекистондаги меҳнат ресурслари сони 19 миллион 345 минг кишини ташкил этди. Мамлакатда 1 миллион 441,8 минг киши ишга муҳтож бўлиб, ишсизлик даражаси 9,6 фоизга етди. Ёшлар орасида ишсизлик даражаси 15,1 фоизни, аёллар орасида эса 13,3 фоизни ташкил этди. [4]

2021 йилнинг декабрь ойида вазирлик ҳузуридаги Меҳнат бозори тадқиқотлари томонидан Ўзбекистоннинг 108 та шаҳар ва туманларида ижтимоий сўров ўтказилган. Тадқиқот давомида 500 та ўзини-ўзи бошқариш органлари, 5 мингта уй хўжаликлари ҳамда 26,5 минг нафар фуқаролар камраб олинган.

Тадқиқот натижаларига кўра ишга муҳтож бўлганларнинг умумий сони 1 миллион 441,8 минг кишини, ишсизлик даражаси



иқтисодий фаол аҳоли орасида 9,6 фоизни ташкил этган. Бу кўрсаткич ўтган йилнинг шу даврига нисбатан 0,9 фоизга камайган бўлса, 2021 йилнинг январь-сентябрь ойларига нисбатан 0,2 фоизга ортган.

2022 йил 1 январь ҳолатида мамлакатдаги меҳнат ресурслари сони 19 миллион 345 минг кишини ташкил этиб, 2020 йилнинг шу даврига нисбатан 1,1 фоизга ёки 202,6 минг кишига ошган. 16–30 ёшгача бўлганлар орасида ишсизлик даражаси — 15,1 фоиз, аёллар орасида ишсизлик даражаси эса — 13,3 фоиз бўлди.


2022 йилнинг 1 январь ҳолатида республикада иқтисодий нофаол аҳоли 4 миллион 364,2 минг кишини ташкил этиб, ўтган йилнинг мос даврига нисбатан 0,5 фоизга ёки 19,8 минг кишига ортиши кузатилган.

2021 йилнинг январь-декабрь ойларида туман (шаҳар) Аҳоли бандлигига кўмаклашиш марказларига 879,5 минг нафар фуқаро иш топишга ёрдам сўраб мурожаат қилган.[4]

Аҳоли бандлигини ошириш мамлакатимизда олиб борилаётган изчил ислохотлар асосида таркибий ўзгариши ва уни статистик боғлиқликларини таҳлили ижобий натижани изохлайди. Таҳлил натижаларига кўра, республикада 2030 йилга келиб, аҳоли сони 2022 йилга нисбатан 20,7% ёки 7017,9 минг кишига, меҳнат ресурслари 21,9% ёки 4192,1 минг кишига, иш билан банд аҳоли 16% ёки 2125,5 кишига ошиши ва норасмий меҳнат билан бандлар улуши 20%га тушиши кутилмоқда. Бу кўрсаткичлар истиқболлаштириш даврида банд аҳолининг йилига ўртача 1,15%дан ошиши ва кенг қамровли комплекс тадбирларни амалга ошириш натижасида норасмий меҳнат билан бандлар сонининг йилига ўртача 5%га камайиши натижасида рўй беради (1-диаграмма).



2022-2030 йиллардаги мақсадли прогноз параметрлари (минг киши)
1-диаграмма.



Таҳлил натижаларига кўра, республикада 2030 йилга келиб, аҳоли сони 2022 йилга нисбатан 20,7% ёки 7017,9 минг кишига, меҳнат ресурслари 21,9% ёки 4192,1 минг кишига, иш билан банд аҳоли 16% ёки 2125,5 кишига ошиши ва норасмий меҳнат билан бандлар улуши 20%га тушиши кутилмоқда. Бу кўрсаткичлар истиқболлаштириш даврида банд аҳолининг йилига ўртача 1,15%дан ошиши ва кенг қамровли комплекс тадбирларни амалга ошириш натижасида норасмий меҳнат билан бандлар сонининг йилига ўртача 5%га камайиши натижасида рўй беради (1-диаграмма). [5]

Хорижий мамлакатларда меҳнат бозорида фаол дастурларни амалга оширишга алоҳида эътибор қаратилган, яъни ресурсларнинг сезиларли қисми фаол дастурлар фойдасига (АҚШ ва Канадада ЯИМ 0,4%идан Швецияда 2%гача) қайта тақсимланади ва бу бир қатор сабаблар билан изоҳланади. Биринчидан, фаол позиция иш йўқотганларни қўллаб-қувватлашдан кўра ҳар бир фуқаронинг иш жойини излашга қаратилган фаоллигини рағбатлантиради, бу эса, ўз навбатида, ижтимоий тўловлар ҳисобига даромадларни қўллаб-қувватлашга боғлиқликни қисқартиради (ўз навбатида, давлат бюджети харажатларини ҳам камайтиради), ишсизларнинг оғир психологик ҳолати билан боғлиқ жамиятдаги кескинликни пасайтиради (ҳатто улар етарли даражада юқори фойда олиши шартларида ҳам). Иккинчидан, фаол позиция меҳнат унумдорлигини оширади,

хусусан, иқтисодий таркибий қайта қуришга хизмат қилади, шу тариқа меҳнат ресурсларидан фойдаланиш самарадорлигини оширади, чунки унинг асосий вазифаси унинг иш самараси энг юқори бўладиган, яъни унинг алқий ва жисмоний қобилиятларига оптимал равишда мос келадиган иш жойини максимал даражада тез топишидан иборат.

Бевосита ишсиз ёшларнинг рақобатбардошлигини оширишга қаратилган ишларга келадиган бўлсак, бу жараён бир нечта босқични қамраб олади. Уларнинг орасида – иш билан бандларнинг касбий-малакавий таркиби прогнозларини тайёрлаш ҳам мавжуд бўлиб, бу таълим муассасаларига ва уларда таҳсил оладиган талабаларга у ёки бу касбда битирувчидан талаб қилинадиган билим, малака ва кўникмаларни ишлаб чиққан ҳолда муайян ишчи кучига кутилаётган эҳтиёжга асосий эътиборни қаратгани ҳолда тайёргарликни таъминлаш имконини беради.

Ишсиз ёшлар рақобатбардошлигини ошириш борасидаги хорижий мамлакатлар тажрибасини таҳлил қилиш хорижий мамлакатларда ёшлар бандлиги муаммосини ҳал қилиш борасида катта амалий тажриба тўпланганлиги ҳақида хулоса чиқариш мумкин. Бу тажрибани Ўзбекистонда қўллаш имконияти фақат махсус тайёрланган ва таълим олган, хориж тажрибасини мослаштиришга қодир бўлган кадрлар мавжуд бўлган шароитлардагина амалга ошириш мумкин. Мухтасар айтганда, яхши ниятлар билан марра жуда баланд олинган. Одамларни ҳаётдан рози қилиш, уларнинг орзу-умидларини рўёбга чиқариш борасидаги ишлар янада қизгин ва жадал тус оляпти. Янги, демократик жамиятни барпо этиш, келажак пойдеворини қуриш, ҳеч шубҳасиз, ҳар биримиздан қатъиятли ва ташаббускор бўлишни, янгича фикр юритиш, янгича ишлашни талаб этмоқда.

REFERENCES:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 6 сентябрдаги ПФ-5812-сон Фармони
2. Ўзбекистон Республикасининг Аҳолини иш билан таъминлаш тўғрисида (янги таҳрири) Қонуни. 01.05.1998 й.
3. <https://www.gazeta.uz/uz/2022/03/08/unempoyment/>
4. <https://mehnat.uz/uz/news/uzbekistonda-ishsizlik-darazhasi-94-foizni-tashkil-etdi>



YETIM VA OTA-ONA QAROMOG‘ISIZ QOLGAN BOLALARNI IJTIMOY HIMOYALASHDA XALQARO RIVOJLANGAN DAVLATLAR TAJRIBASI

Kamola Sharipova

Farg‘ona davlat universiteti Ijtimoiy ish kafedrası o‘qtuvchisi

ksharipova582@gmail.com

ANNOTATSIYA:

Ushbu maqolada yetim va ota-ona qaromog‘isiz qolgan bolalarni ijtimoiy himoyalashda xalqaro rivojlangan davlatlar tajribasiga, foster oila, joylashtirish shakllari, bolalar uyi, mehribonlik uylari faoliyatlari to‘g‘risida, bolalar yetimligining oldini olishda ijtimoiy xizmatlarning o‘rni haqida alohida ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: institutsional muassasa, mehribonlik uyi, foster oila, ijtimoiy xizmat.

ABSTRACT:

In this article, the experience of international developed countries in the social protection of orphans and children left without parental care, the foster family, forms of placement, the activities of orphanages, and the role of social services in the prevention of children's orphanhood information are given.

Keywords: institutional institution, orphanage, foster family, social service.

Dunyodagi zamonaviy ijtimoiy ahvol mamlakatlarning turli hayot tarzi bilan integratsiyalashuvi, yagona iqtisodiy, madaniy, axborot, ta’lim makonini shakllantirish jarayonlarining keng rivojlanishi bilan tavsiflanadi. Global integratsiya jarayonlari jamiyat hayotining barcha yo‘nalishlariga ta’sir qiladi, yetim va ota-ona qaromog‘isiz qolgan bolalarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash institutlarini shakllantirishga va umuman bolalar siyosatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Butun dunyoda millionlab bolalar institutsional muassasalarda istiqomat qiladi, bu esa BMT tomonidan tan olingan bolalarning oila muhitida tarbiyalanish huquqiga ham, bolalarning jismoniy, neyrobiologik, psixologik va ruhiy salomatlik xarajatlarini tizimli tahlil qilishimiz natijalariga zid keladi. Dunyo bo‘ylab 5 milliondan 6 milliongacha bolalar (0-18 yosh) oilaga asoslangan parvarishlash muassasalarida emas, balki institutsional



muassasalarda yashaydilar, ammo bu taxmin kam ma'lumotlarga asoslangan va kam baholangan bo'lishi mumkin [1,370-377]. Bolalarni institutsional muassasalarda tarbiyalanishi oilaviy g'amxo'rlikdagi ko'p bolali, katta oila yoki homiylikdagi oila, kafalah (islomda yetim bolalarni vasiylik qilish amaliyoti) yoki asrab oluvchi oila yashashi har tamonlanma zararlidir.

Yevropa davlatlaridagi yetim va ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarni himoyalash tajribasiga e'tibor qaratish kerak.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, AQSh, Buyuk Britaniya XX asrning ikkinchi yarmidan, Rossiya XXI asr boshlaridan bolalar institutsional muassasalarni tugatishga bo'lgan harakatlarni amalga oshirib kelmoqda.

Ekspertlarning ta'kidlashicha, o'tgan asrning o'rtalariga qadar, Amerika Qo'shma Shtatlarida yashovchi yetimlarning aksariyati davlat qaramog'ida bo'lib, bolalar uylarida yashagan. Ammo keyinchalik bunday ta'lim muassasalari tizimi samarasiz deb topildi. Shu sababli, bugungi kunda Amerika Qo'shma Shtatlarida uzoq muddatli yashash uchun mo'ljallangan bolalar uylari mavjud emas. Ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarni vaqtincha saqlash uchun maxsus muassasalar mavjud bo'lib, ularning maqsadi har bir bola uchun imkon qadar tezroq yangi oilani topishdir.

O'zbekistonda bolalar uylari asosan xalq ta'limi tizimining bir qismi bo'lsa, AQShda yetim bolalarga g'amxo'rlik asosan hukumat shartnomalari asosida ishlaydigan va doimiy ravishda huquq bo'yicha davlat akkreditatsiyasidan o'tgan nodavlat tashkilotlariga yuklatilgan bo'lib, davlat ushbu yo'nalishni moliyalashtiradi va o'ziga xos nazorat qilish tizimini yarata olgan. Amerika Qo'shma Shtatlarining bu boradagi asosiy farqli jihatlaridan biri hozirgi kunda ushbu mamlakatda «Bolalar uyi» va «Mehribonlik uy»larining yo'qligidir. AQShda noinstitutallashtirish jarayoni 1941-1980 yillar oralig'ida boshlangan. Ushbu jarayon mamlakatda 1935 yilda qabul qilingan «Ijtimoiy ta'minot to'g'risida»gi Qonundan so'ng boshlandi. Amerika Qo'shma Shtatlarida oila masalalariga alohida e'tibor qaratiladi. Shu sabab u yerda mehribonlik uylarini uchratish qiyin. Mamlakatda ota-onalari qarovisiz, yetim qolgan bolalarni tarbiyalash masalasi bilan shug'ullanadigan maxsus idora – Bolalarga yordam va oila xizmatlari Departamenti [2] (Department of children and family services – DCFS). Ushbu tizimda oilaviy ijtimoiy ish xodimlari faoliyat yuritishadi. Ularning asosiy faoliyati o'qituvchi, maslahatchi, qo'shni yoki biron bir kuzatuvchi bolalarni himoya qilish xizmatlariga qo'ng'iroq qilgandan so'ng, ijtimoiy xodimlar



tergovni boshlaydilar. Ijtimoiy ishchilar bolalar va oilalarning yaxshi ahvolda ekanligini isbotlash uchun mijozlarning uylariga tashrif buyurishlari shart. Ijtimoiy ishchilar bolalarning rivojlanishiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan akademik, xulq-atvor yoki ijtimoiy muammolar yo'qligini baholash va tekshirish uchun javobgardir[3]. Ijtimoiy ishchi bolalar va oila barqaror bo'lgunga qadar va suiiste'mollik yoki beparvolik alomatlari ko'rinmaguncha tashrifni davom ettiradi. Agar vaziyat yaxshilanmasa, ijtimoiy xodim aralashib, bolani oiladan olib qo'yishi va bolani qaytarib olish imkoniyatiga ega bo'lish uchun ota-onalar yoki vasiylar testdan o'tgunga qadar homiylik tizimiga joylashtirilishi mumkin. Shu bilan birgalikda oilasidan ajralgan bolalarga qisqa muddatda tarbiyalovchi – “foster oila” topib beradi. (Ma'lumot uchun: bugungi kunda qariyb 428 ming nafar amerikalik bolalar “foster” oilalarda istiqomat qilmoqda. Ularning orasida bir necha oylik go'dakdan tortib 18 yoshgacha bo'lgan bolalar bor). Foster oilalarda o'rtacha tarbiyalanish vaqti 1 yildan oshiqroqni tashkil etib, bu vaqtga qadar bolalarni asrab olganlar ota-onalik huquqini sud qaroriga qadar qo'lga kiritishmaydi. Oilada qolish qarorini bolalar qabul qiladi, shuningdek asrab olgan ota-ona ham bolaning oilada qolishi bo'yicha o'z fikrini bildirish huquqiga ega. Aksariyat hollarda bolalar foster oilalaridagi tarbiyalovchilarini keyinchalik ota-onalari sifatida qabul qilishadi. Hukumat “foster” oilalar uchun barcha sharoitni (uy-joy va moddiy mablag'ni) yaratib beradi. Ma'lumot uchun: Har yili amerikaliklar 135 mingga yaqin bolani asrab olishadi. Ulardan 26% boshqa davlatlardan, 59% “foster oilalar” hamda 15% tug'ilganidayoq onasi voz kechgan bolalardan (bolalarga yordam va oila xizmatlari Departamenti homiladorlik davridayoq bolasidan voz kechuvchi ayollar ro'yxatini yuritadi)[4].

Bolalar yetimligining oldini olishda ijtimoiy xizmatlar muhim rol o'ynaydi. Bolali oilalar uchun ijtimoiy xizmatlarda ikkita jihat mavjud: bolalarga g'amxo'rlik qilish va oilaga tarbiya berishda yordam berish. Oilaga ijtimoiy-pedagogik yordam uzoq vaqt davomida (bir necha yil) ijtimoiy xodim tomonidan amalga oshiriladi va ota-onalar va bolalar bilan suhbatlar shaklida intensiv (haftasiga 20 soatgacha) amalga oshiriladi. Ijtimoiy ishning o'ziga xos xususiyati shundaki, u nafaqat oila a'zolari, balki yaqin atrof – muhit-qo'shnilar, maktablar, ota-onalarning ish beruvchilari va boshqalar bilan amalga oshiriladi. Oilaga ijtimoiy-pedagogik yordam berishning maqsadi bolalarning davlat muassasasiga yo'naltirilishiga yo'l qo'yimaslikdir. Oiladagi bolalarning qolishlari oiladan tashqarida qolishdan ko'ra arzonroq, xususan,



internatda, shuning uchun so‘nggi yillarda uning samaradorligi tufayli bu ish shakli afzal ko‘riladi[5, 298] .

Germaniyada 1991-yilda qabul qilingan “Bolalarga va yoshlarga yordam to‘g‘risida”gi Qonunda “Har bir bola va o‘smir o‘z hayoti uchun mas’uliyatga va jamiyatga moslashishi uchun ko‘makka ega bo‘lish hamda shaxsiyatini tarbiyalash huquqiga ega” ekanligi qayd etilgan[6]. Germaniyada yetim qolgan bolalarga nafaqat davlat tashkiloti balki nodavlat tashkilotlar ham e‘tibor qaratadi. Germaniyadagi yetim qolgan bolalarni tarbiyalovchi nodavlat tashkilotlarning faoliyat yuritishi bu borada yangi mexanizm hisoblanadi. Misol uchun, “Yoshlar bunyodkorlik tashkiloti” federal ishchi uyushmasi ana shunday tashkilotlar sirasiga kiradi. Bu kabi NNTlar hukumatning doimiy nazoratida turadi. NNTlarni ochishga qo‘yiladigan asosiy talablardan biri – uning asoschisi bo‘lgan shaxs pedagogik stajga ega bo‘lishi lozim. Bolalarni tarbiya maskanlariga joylashtirish faqatgina oilada qolishning hech qanday imkoniyatlari bo‘lmasagina amalga oshadi. Yetim qolgan bolalarni tarbiyalashning nemischa usullaridan yana biri bolalar shaharchalari tizimidir[7]. O‘zbekistonda shu kabi tizim SOS bolalar mahallasi shaklida yo‘lga qo‘yilgan.

Shunday qilib, Germaniyada bolalarni ijtimoiy himoya qilish biologik oilani saqlab qolish tamoyiliga asoslanadi. Ushbu yo‘nalishda mahalliy ijtimoiy xizmatlarni ko‘rsatadigan va ularning yaqin atrof-muhit bilan ishlashni o‘z ichiga olgan bolalar oilalari uchun ko‘plab ijtimoiy xizmatlar mavjud.

Buyuk Britaniyada ham «Foster care» tizimi shakllangan bo‘lib, ushbu tizimning quyidagi «emergency foster», «long term», «permanent care» turlari mavjud. «Yemergency foster»da bolalar ixtisoslashgan oilalarga bir necha soatdan bir necha kungacha joylashtiriladi. Bolaning oila a‘zosi kutilmaganda kasalxonaga tushishi natijasida bola qarovsiz qolsa shu turdan foydalaniladi. «long term»da bolalar ixtisoslashgan oilalarga 2 yilgacha bo‘lgan muddatga joylashtiriladi. «Rermanent care» – uzoq muddatli joylashtiruv bo‘lib, bunda bola vasiylar oilasida voyaga yetgunga qadar tarbiyalanish uchun qoldiriladi. Buyuk Britaniyada yetim qolgan bolalar uyiga vaqtinchalik (respite care) hamda doimiy (residential care) asosda joylashtiriladi[8]. Bu oilada bolaning sog‘lom turmush kechirishi uchun imkoniyatlar qolmaganda yoki oiladagi nizolar bartaraf etilgunga qadar qo‘llaniladi. Bu qachonki ota-onalar bolalar tarbiyasi bilan shug‘ullanishga ojiz ekanliklari yoki bolaning hayoti uchun xavf yuzaga kelgan taqdirda mahalliy boshqaruv organlari masalaga aralashadi. Bolani tarbiyalash istagidagi boshqa qarindoshlari topilmasa muqobil, ko‘ngilli



oilalar qidirish boshlanadi. Sud bolaga uni asrab oluvchi oila zarurligi haqida qaror qabul qilsa, yangi oila izlashga kirishiladi. Ungacha bolalar maxsus bolalar uylarida qolishadi. Ba'zan ko'ngilli oilalar tezda topiladi, ba'zan bolalar bu kabi muassasalarda ikki yilgacha qolib ketishadi. Agar ijtimoiy xizmatlar bolaning o'z uyidagi ahvol ijobiy tomonga o'zgarganini qayd etishsa, ular o'z oilalariga qaytariladi.

Vengriyada esa Parlament tomonidan 2007-2032 yillarga mo'ljallangan Kompleks milliy strategiya belgilangan bo'lib, ushbu mamlakatda bolalarning muassasalarga joylashtirish jarayoni to'xtatilgan hamda barcha qiyin hayotiy vaziyatga tushgan oilalar va bolalarni himoya qilish va qo'llab-quvvatlash ijtimoiy xizmatlar zimmasiga yuklatilgan. Ruminiyada bolalar himoyasi borasida yangi jarayon boshlangan bo'lib, ushbu mamlakatda bolalarni mehribonlik uylariga joylashtirish jarayoni to'xtatilgan.

Yetim bolalarni ijtimoiy himoya qilish masalasida Fransiyaning tajribasi, shuningdek, institutsional jihatdan oilaviy ta'lim foydasiga ham dalolat beradi. Davlatning ijtimoiy siyosati, qiyin hayot sharoitida bolaning yashash joyini o'zgartirmasdan professional xizmatlardan foydalanish imkoniyatini ta'minlash uchun mahalliy darajada oila yordamini amalga oshirishga qaratilgan. Inqiroz sharoitida bo'lgan oilalarga alohida e'tibor qaratilgan. Frantsuz aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimining o'ziga xos xususiyati-ijtimoiy ish kasbi doirasiga kiritilgan [9, 16].

Fransiyadagi barcha ijtimoiy xodimlarning qariyb yarmi davlat xizmatchilaridir. Boshqalar esa davlat byudjeti yoki jamoat tashkilotlari tomonidan moliyalashtiriladigan xususiy muassasalarda ishlaydi. Farzandlikka olingan oilalar, odatda, 2 boladan ortiq emas, agar bolalar qon bilan bog'liq bo'lsa (aka-uka/opa — singillar) - 3 ta boladan oshmasligi kerak va 1 yilgacha oilada qolish vaqti. Agar bola uzoq muddatli reabilitatsiya va psixokonstruksiyaga muhtoj bo'lsa, muddat uzaytirilishi va bolaning tiklanishiga qadar davom etishi mumkin (davolash kursi 15 yilga etadi) [10, 22]. Shunday qilib, Frantsiyada keng qamrovli ijtimoiy xizmatlar tarmog'i va bolali oilalarga ijtimoiy xizmat ko'rsatadigan va voyaga etmaganlarni olib qo'yilishiga to'sqinlik qiluvchi ijtimoiy xizmatchilarni xilma-xilligi e'tiborga olinadi.

Ozarbayjonda noinstitutsonallashtirish (deinstitutsonalizatsiya) va bolalarning ijtimoiy himoyalash departamenti tashki etilganligini ko'rish mumkin. Ozarbayjon Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuniga asosan «Ozarbayjon 2020: kelajakka qarash»



rivojlanish konsepsiyasi va Ozarbayjon Respublikasida ta'limni rivojlantirishning davlat strategiyasi, shuningdek Ozarbayjon Respublikasida bolalarni davlat bolalar muassasalaridan oilalarga o'tkazish (noinstitutsionallashtiri) va muqobil parvarish bo'yicha davlat dasturi, Ozarbayjon Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari asosida bolalarni huquqlarini ta'minlash bilan bog'liq muammolar hal etilmoqda. Xorijiy davlatlar tajribasi tahlili shuni ko'rsatadiki, ko'p mamlakatlarda yetim va ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalar muammosi mavjud va ushbu muammolar yechimini topish maqsadida turli usullardan foydalanilmoqda. Xorijda va ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarni muassasaga joylashtirish eng oxirgi chora hisoblanadi. Bolani oila qaramog'ida tarbiya topishiga alohida e'tibor qaratiladi.

Shu o'rinda O'zbekistonda ushbu jarayon qanday kechmoqda, degan savol tug'ilishi mumkin. Islohotlar davomi sifatida yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni tarbiyalashni tubdan yangilangan tizimini joriy etish hamda ularni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 9 avgustdagi PQ – 5215-son “Yetim va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni tarbiyalashning tubdan yangilangan tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi hamda PQ 5216-son “Yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarorlari qabul qilindi.

Shuni ta'kidlaymizki, rivojlangan davlatlar tajribasida ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni ijtimoiy himoya qilish tizimi bir vaqtning o'zida bolaga yordam berishga va biologik oilani muvaffaqiyatli rehabilitatsiya qilish uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga yo'naltirilgan. Oilalarda inqiroz holatlarining oldini olish va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lishining oldini olishda ijtimoiy xizmatlar va bolalarni ijtimoiy himoya qilish muassasalarining kompleks infratuzilmasi muhim o'rin tutadi. Birinchi o'ringa ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda yashash joyida parvarish qilishni tashkil etishga urg'u berib, institutsional modeldan ajralib chiqish hisoblanadi. Oilaviy qaramog'idagi murakkab hayotiy vaziyatlarda bolalar uchun biologik oiladan tashqari xorijiy tajriba va psixoterapevtik tuzatishga muhtoj bolalar uchun xizmat alohida e'tiborga loyiqdir.

REFERENCES:

1. Desmond, C., Vatt, K., Saha, A., Huang, J. va Lu, C. (2020). Institutda yashovchi bolalarning tarqalishi va soni: global,



mintaqaviy va mamlakat hisoblari. *Lancet bolalar va o'smirlar salomatligi*, 4 (5), 370-377

2. <http://www.dss.state.la.us/page/108>

3. Staff Writers (2018-11-06). "Child and Family Social Worker | Comprehensive Career Guide". *SocialWork.org*. Retrieved 2020-05-01.

4. KIDS COUNT data center: A project of the Annie E. Casey Foundation. <https://datacenter.kidscount.org/>

5. Kubitsky S.O. The history of social work in foreign countries: a tutorial. — K. DAKKKiM, 2009. 298 p.

6. <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S0190740920307416>

7. Vernachlässigung in Deutschland Kinderdorfmutter / -vater werden SOS-Längsschnittstudie <https://www.sos-kinderdorf.de/portal/>

8. Child Welfare Information Gateway <https://www.childwelfare.gov/topics/preventing/prevention-programs/respite/>

9. Social workers in France / Prepared by T. Salzman. [E-resource] // [Website] [2009]. URL: <http://www.rus-demografia.ru/world-experience/16> (date accessed 10.09.2021).

10. Ogarysheva E. Organization of assistance to socially troubled families and children in France. - M., 2003. 22 p. [E-resource] // [URL: <http://pravorebenka.narod.ru/docs/BrochureFrance.doc> (date accessed 10.09.2021)

11. Sharipova, K., & Abduraxmonova, M. (2021). O'zbekiston maktablarida mehribonlik uylari tarbiyalanuvchisi bo'lgan o'quvchilar bilan ijtimoiy ish amaliyoti istiqbollari. *Студенческий вестник*, (8-3), 82-83.

12. Абдурахмонова, М., & Шарипова, К. (2020). Социальная работа с выпускниками детских домов. НАУКА СЕГОДНЯ: ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И ПРАКТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ (pp. 41-42).

13. Abdurakhmonova, M., & Sharipova, K. (2022). SOCIAL WORK CARRIED OUT IN SECONDARY SCHOOLS WITH STUDENTS LEFT ORPHANS AND WITHOUT PARENTAL CARE. *Oriental Journal of Social Sciences*, 2(02), 52-63.

14. A'zamova, Z., & Sharipova, K. (2022). YETIM VA OTA-ONA QARAMOG'IDAN MAHRUM BO'LGAN BOLALARNI MAKTABLARDA SIFATLI TA'LIM VA TARBIYA OLISHDAGI MUAMMOLARI. *Research Focus*, 1(2), 301-306.

JAMIYATDA XOTIN – QIZLAR VA ULARNING IJTIMOIIY FAOLLIGI

Qaxramon Abdulxamid o‘gli Axmedov

O‘zMU katta o‘qituvchisi

Aziza Jovli qizi Sodiqova

O‘zMU 2 bosqich talabasi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada jamiyatning madaniy darajasi va ma’naviy barkamolligini tavsiflaydigan ayollarga bo‘lgan e’tibor va munosabat ifodalangan. Jamiyatimizda ayollarning ijtimoiy va siyosiy jabhalarda yetakchi o‘rinlarni egallashiga qaratilgan tizimli islohotlar yoritilgan. Shuningdek, Gender tenglik masalasida amalga oshirilayotgan davlat siyosati tog‘risida ma’lumotga ega bo‘lamiz.

Kalit so‘zlar: Jamiyat, gender tenglik, xotin – qizlar, ayollarga e’tibor, ta’lim, bandlik, kasb – hunar.

ABSTRACT

This article expresses attention and attitude towards women, which characterizes society's cultural level and spiritual perfection. In our society, systemic reforms aimed at the leading positions of women on the social and political fronts are highlighted. We will also have a background in the public policy framework, which is being implemented on the issue of Gender equality.

Keywords: Society, gender equality, women, attention to women, education, employment, profession.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev “Biz uchun muqaddas bo‘lgan oila asoslarini yanada mustahkamlash, xonadonlarda tinchlik-xotirjamlik, ahillik va o‘zaro hurmat muhitini yaratish, ma’naviy-ma’rifiy ishlarni aniq mazmun bilan to‘ldirishdan iborat bo‘lmog‘i zarur”, deb alohida ta’kidlagan. Buyuk ma’rifatparvar Abdurauf Fitrat: “Farzandlarimizni yaxshi xulq egalari qilib tarbiyalashimiz uchun avvalo, millat onalari tarbiya va ilm olishlari lozim”, deb yozgan edi. Biz Uchinchi Renessans poydevorini qurish, jamiyatda yangi ma’naviy makon yaratish haqida gapirar ekanmiz, bu ishlarni otalar, onalar, ustozlar ma’naviyati bilan uzviy amalga oshirishimiz zarur. Bugun biz



ochiq jamiyatda yashayapmiz. Bu imkoniyatdan to'g'ri foydalanib, ilg'or g'oyalarni o'zlashtirishimiz kerak. Lekin, milliy qiyofamizga putur yetkazadigan illatlardan ehtiyot bo'lishimiz, o'zligimizni yo'qotmasligimiz shart" [1].

Oila va jamiyat ustuni, hayotimizning ko'rki bo'lgan xotin – qizlarga hurmat va ehtirom ko'rsatish xalqimiz uchun azal – azaldan buyuk qadriyat bo'lib kelgan. Vatanimizning bugungi taraqqiyotida, oila va jamiyat hayotida xotin –qizlar muhim o'rin va mavqeni egallashmoqda. Xususan, "Ayollga e'tibor – kelajakka e'tibor" naqillarimiz bejiz emas. Hozirda aksariyat xotin – qizlar yuqori intellekt, nufuzli dunyoviy bilim va malakaga ega ijtimoiy faol qatlam sifatida jamiyat farovonligi yo'lida xizmat qilishmoqda. Mustaqillik yillariga nazar tashlasak, datstlab xotin – qizlarning jamiyat hayotida ijtimoiy faolligini oshirishga alohida e'tibor berilgan.

Hozirgi davrda ayollarga munosabat masalasida talab qilinayotgan qoidalar islom dinining ezgu g'oyalari bilan sug'orilgan, xalqimizda azaldan mavjuddir. Darhaqiqat, diniy tomonlama e'tibor bersak, Islom qonunchiligida ham ayollarning huquqlari himoya qilingan. Islom dini ayolga mehnatni man etmadi, balki ayolni o'z tabiatiga munosib, shaxsiyatiga to'g'ri keladigan mehnat bilan shug'ullanishini targ'ib qilgan.

Ayni vaqtda jamiyatimizda ayollar katta ijtimoiy kuchga aylanmoqda Mamlakatimizda o'tkazilayotgan barcha tadbirlar bugun ayollarimizning ishtirokisuz o'tmaydi. Ayniqsa, fan, ta'lim, madaniyat sohasida minglab olima-yu, fozila ayollar mehnat qilmoqdaki, ular jamiyat taraqqiyotida o'z mavqeyi va munosib ish o'rinlariga egadirlar. Shu jihatdan olganda O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentimiz I. A Karimov xotin – qizlar masalasiga alohida to'xtalib "Bugun ma'rifiy dunyoda xotin – qizlar manfaati degan alohida masala bor va uni o'rganish, yechimini topishga juda katta ahamiyat berilishi bejiz emas. Agar ayollarga yetarli e'tibor berilmasa, bunday jamiyatning kelajagi bo'lmaydi" deb ta'kidlagan [2]. Ushbu jumllarning izohi sifatida xotin – qizlarimizni ta'limga jalb qilishimiz, oliy ma'lumotga ega bo'lishiga imkoniyatlar bugun yetarlicha. Oliy ma'lumotga ega qilishimizdan asosiy maqsad barkamol yosh avlodni har tomonlama salohiyatli, keng dunyoqarash, intellektual qobiliyatlarini shakllantirishda onalarimizda yetarli bilim va salohiyat bo'lsagina farzandiga tarbiya va ta'limni uyg'un tarzda olib borishi mumkin. Farzandga ta'lim va tarbiya berishda ayollarimizning roli erkaklarga nisbatan ustunroqdir. Boisi shundaki, farzand dunyoga kelibon to voyaga yetgunga qadar ilk ijtimoiy munosabat va jamiyatdagi mavjud me'yorlarni onasi orqali anglaydi. Zamonaviy ayolga



shunchaki o'qish, yozish, hisobni bilish yeatrali emas, uning oldida ta'lim sifati muammosi paydo bo'lib, doimo mustaqil tarzda o'z ustida tinimsiz ishlab, o'z bilimini orttirib chuqurlashtirib borishni talab etadi. Shu sababli ham ayni paytda nafaqat qizlarimizni ta'limga jalb qilish, balkida oliy ma'lumotga ega bo'lmagan xotin – qizlarimizni davlat budjetidan imtiyozlar ko'rinishida ta'limga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish, yokida maxsus “Monomarkaz” larda kasb – hunarning barcha turlariga o'qitishni ko'zda tutadi. Ayollarimiz oilada bugun oilaviy budjetga ham o'z hissalarini qo'shmoqda. Bu albatta yaxshi holat. Ammo biz ta'kidlab o'tishimiz kerakki, ba'zi hollarda ayollar o'z oilasining asosiy boquvchisiga aylanib qolayotganligi sir emas. Oilada ayolning regulyatorlik funksiyasini oshishini kuzatishimiz mumkin. Bu ham oilada bir qancha sotsial muammolarni yuzga kelishida omil bo'la oladi. Jamiyatimizda ayollarning ham turli ijtimoiy ehtiyojmand toifalari mavjud. Yurtboshimiz Sh. M. Mirziyoyev tomonidan ijtimoiy jihatdan yordamga muhtoj xotin – qizlarimizni bugun faol qilib, qiyin vaziyatida ularni o'qitib, kasb – hunarli qilib, muammolarini o'zlari yengishga asosiy e'tibor qaratilmoqda, va ijtimoiy xodim sifatida bu bizning ustuvor maqsadimiz. Zamonamizni o'tmish tarix bilan taqqoslasak, xotin – qizlarimizning bugungidek erkinligi, huquq va imkoniyat jihatidan tengligi taqsiinga sazovordir. Bugun xotin – qizlarimiz uchun mavjud imtiyozlarni ko'rib chiqamiz.

Xotin- qizlar o'qishga kirishida qo'shimcha davlat granti va imtiyozli kreditlar.

- Kam ta'minlangan oilalardagi xotin qizlar;
- To'liqsiz oilada tarbiyalanayotgan yoxud ota – onasining ikkisi ham vafot etgan ijtimoiy himoya muhtoj qizlar;
- Turmush o'rtog'i vafot etgan. Voyaga yetmagan farzandini yolg'iz tarbiyalayotgan ijtimoiy himoyaga muhtoj ayollar;
- Nogironligi bo'lgan ehtiyojmand oilalardagi xotin – qizlar.

Yuqoridagi ehtiyojmand toifalarga tavsiyanoma Mahalla va Nuroniylarni qo'llab – quvvatlash vazirligi tomonidan beriladi hamda bu toifalar “Ayollar daftari” ga ham tegishlidir. “Ayollar dafari” ga 30 yoshdan oshgan xotin va qizlarimizni qamrab oladi. Qo'llab – quvvatlash asosan (moddiy tomonlama, natura shaklida, dori- darmon bilan ta'minlsh, jarroxlik amaliyoti uchun mablag'lar bilan qo'llab – quvvatlash) ni o'z ichiga oladi. OTM uchun 4 % kvotani olishi mumkin. Bundan tashqari 2020 – yil 18- fevraldagi PF–5938 “Jamiyatda ijtimoiy- ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish mahalla institutini yanada qo'llab – quvvatlash hamda oil ava xotin – qizlar bilan ishlash



tizimini yangi darajaga olib chiqish chora – tadbirlari to‘g‘risida” gi farmoni qabul qilindi[3]. Bunda yordamga muhtoj va og‘ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin – qizlar, nogironligi bo‘lgan ayollarga ijtimoiy –huquqiy, xotin – qizlarning bandligi, mehnat sharoitlarini yaxshilash, qishloq joylarda xotin – qizlarning oilaviy tadbirkorlik, hunarmandchilikka jalb qilishga ham atroflicha to‘xtab o‘tilgan.

Aytishimiz joizki, 2019–yil 2- sentabrda “Xotin qizlar va erkaklar uchun teng huquq va hamda imkoniyatlar kafolatlari” to‘g‘risidagi qonun mavjud bo‘lib, 5- moddasida jins bo‘yicha kamsitishga yo‘l qo‘ymaslik, ya’ni har bir faoliyat turida ayollarimiz erkaklar kabi istgan kasbida ishlashi va o‘z karyerasini tashkil qilishi mumkin. Hozirda yangilanayotgan bosh qomusimiz hisoblangan Konstitutsiyamizning yangi tahririning 58- moddasida – xotin –qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar. Davlat xotin – qizlar va erkaklarga jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishda, shuningdek jamiyat va davlat hayotining boshqa sohalarida teng huquq va imkoniyatlarni ta’minlaydi [4]. Xo‘sh, aslida erkak va ayol rahbarlar muvaffaqiyatga erishishlarida ma’lum darajada tafovut mavjud .Taniqli daniyalik olim F. Denmark katta hajmdagi tatqiqotlar natijasida shunday xulosaga keldiki, hususan insoniy munosabatlar, kongilchanlik, boshqaruvda demokratik tamoyillarga suyanish ayollarda ko‘proq uchraydi. Va bu ko‘rsatkichlar ma’lum ma’noda ijobiy omilni ifodalaydi. Mamlakatimizda 7 mln dan ortiq ishchi, xizmatchi, talabalarni o‘zida mujassamlashtirgan 14 ta yirik kasaba uyushmalari a’zolarining yarmidan ko‘pini ayollar tashkil etadi. Ko‘rishimiz mumkunki, davlat boshqaruvi faoliyatida xotin – qizlarimizdan “Deputat”, “Vazir”, “Senator”, “Vazir o‘rinbosari”, “Akademik”, “Tadbirkor”, “Direktor”, lavozimlarda faoliyat olib borayotganlari gender tengligining yaqqol misolidir . 2030 – yilga qadar tenglik strategiyasi orqali barcha uchun teng huquq va sifatli ta’limni ta’minlash, qizlarning oliy ma’lumotga ega bo‘lishi , zo‘ravonlikka yo‘l qo‘ymaslik kabi masalalarni qamrab olgan. 2023 – o‘quv yilidan boshlab, magistraturada o‘qiyotgan barcha xotin- qizlarning kontrakt pullarini to‘liq budjetdan qoplab berish uchun har yili 200 mlrd so‘m mablag‘ va doktoranturada ilmiy tadqiqotlar olib borishlari uchun xotin – qizlarga har yili kamida 300 tadan maqsadli kvota ajratilyapti. 2022 – 2026 –yillarga xotin –qizlar ta’limini qo‘llab –quvvatlash dasturi qabul qilinishi ko‘zda tutilmoqda. 2021 –yilda ayollar tadbirkorligi dasturi doirasida mingdan ziyod xotin –qizlarga oilalar tadbirkorligi doirasida 200 mingdan ziyod loyihalarga 2 trillion kredit va subsidiya ajratilib, 320 ming xotin – qizlar doimiy ish o‘rinlariga ega bo‘ldi. 2021 –yilda 190 ming nafar ayollar kasb – hunarga



o‘qitildi. Bundan tashqari, 4 mingdan ziyod xotin –qizlarga uy –joy to‘lovining boshlang‘ich badaliga mablag‘ ajratilmoqda. Yildan yilga inson qadri yuksak darajalarga ko‘tarilmoqda.

2020- yil 1 – iyuldan o‘zini – o‘zi band qilgan shaxslar ro‘yxati shakllantirildi. Bunda xotin – qizlarimizni hamshiralik ishi o‘zini o‘zi band qilish faoliyati turi hisoblanadi [5]. Mazkur faoliyatni o‘rta tibbiy yoki oliy hamshiralik ishi yo‘nalishi bo‘yicha oliy ma‘lumotga ega tegishli axborot tizimida ro‘yxatdan o‘tgan shaxslar amalga oshiradi. Har bir hududda o‘z – o‘zini boshqarish organlarida “Ijtimoiy himoya yagona reestr” elektron tizimi tashkil etilgan. Mazkur tizimda har bir tumandagi MFY da istiqomat qiluvchi kam ta‘minlangan oilalar, ishsiz xotin – qizlar, ijtimoiy yordamga muhtoj yolg‘iz ayollar ro‘yxati shakllantirilgan bo‘ladi. Bu jarayon bilan mahallada xotin qizlar faoli ehtiyojmand ayol qizlarimizni har tomonlama qo‘lab – quvvatlaydi. Ushbu yordam ijtimoiy psixologik, huquqiy, sog‘lom turmush tarzini ta‘minlash, tibbiy – ijtimoiy xizmatlar sifati shu kabi yoki yanada jiddiy muammolarini aniqlash va manzilli ko‘mak berishni o‘z vakolatiga oladi. Xulosa o‘rnida aytishimiz mumkinki, ta‘lim olayotgan, mehnatda band bo‘lgan xotin – qizlarimizning intilishlari va qobiliyatlarini inobatga olishimiz, ularni jamiyatda erkaklar bilan faoliyatini uzviy va uyg‘un tarzda davom ettirish, imkoniyatlarini kengaytirish lozim. Ayollarimizning huquq va manfaatlarini himoya qilishimiz va jamiyatimizda ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirish maqsadga muvofiq strategiyadir. Zero, unutmaylik, “Kelajak tarbiyasi olima ayollarimiz qo‘lidadir” !!!

REFERENCES:

1. SH.M.Mirziyoev raisligida o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishidagi asosiy ma‘lumotlar. 2022yil 2 mart. Elektron resurs
2. <https://islomkarimov.uz/en/news/ayolni-uluglamoq-vatanni-hayotni-uluglamoq-deganidir-islom-karimov-07.03.2019>
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 – yil 18- fevraldagi PF-5938-son Farmoni
4. <https://daryo.uz/2019/03/07/shavkat-mirziyoyev-ayollarning-jamiyatdagi-ornini-ozbekiston-erishayotgan-yutuqlardagi-beqiyos-hissasini-hech-narsa-bilan-olchab-bolmaydi/>
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tadbirkorlik faoliyati va o‘zini o‘zi band qilishni davlat tomonidan tartibga



solishni soddalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 8-iyundagi PQ-4742-son qaror



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA IJTIMOIIY SOHANING RIVOJLANISH JARAYONLARI

G‘ulom Xolmurodov

O‘zbekiston Milliy Universiteti o‘qituvchisi

Charos Alimova

O‘zbekiston Milliy Universiteti talabasi

ANNOTATSIYA:

Ushbu maqolada mamlakatimizga ijtimoiy ish sohasining kirib kelish jarayoni hamda ijtimoiy sohada amalga oshirilayotgan islohotlar haqida fikr-mulohazalar yuritiladi.

Kalit so‘zlar: zakot, hayriya, globallashuv, ijtimoiy hodimlar birjasi, muhofaza, insonparvarlik, hamdardlik, kam ta‘minlanganlik, kadrlar tayyorlash, ijtimoiy hodimlar.

ABSTRACT:

this article will focus on the process of entry of the sphere of social work into our country, as well as on the reforms carried out in the social sphere.

Keywords: zakat, charity, globalization, social worker exchange, conservation, humanism, empathy, underprivileged, staff training, social workers.

Qadimgi mamlakatlarning rivojlanish jarayoniga nazar tashlasak, ibtidoiy tarzda hayot kechirgan insonlar ham bir-biriga ijtimoiy jihatdan ko‘mak berib kelganlar. Turli davlatlarda istiqomat qiluvchi fuqarolarga yaqindan yordam ko‘rsatish, xayriya, hamdardlik bildirish, ko‘maklashish kabi jihatlar xos bo‘lgan. Bunday yaqindan ko‘maklashish, ijtimoiy jihatdan bir-biriga yordam tushunchalari esa o‘zbek xalqining qon-qoniga singib ketgan jarayon desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

O‘zining tarixiy rivojlanish jarayonida O‘zbekiston hududida ham fuqarolar muhtoj aholi qatlamlariga yordam qo‘lini cho‘zib kelganlar. Ijtimoiy yordamning dastlabki kurtaklari jamoaviy jihatdan qo‘llab-quvvatlash, iqtisodiy tomondan o‘zini boqa olmaydiganlarga g‘amxo‘rlik qilish, xayriya va boshqa ko‘rinishlarda namoyon bo‘lgan. Ijtimoiy tadbirlar tizimi qadimdan mavjud bo‘lganligini zardushtiylikning muqaddas



kitobi “Avesto” da zardushtiylikdiniga e’tiqod qiluvchi davlatlarning davlat tuzumi, ijtimoiy siyosati haqida ma’lumotlar mavjud. Unda zardushtiylik dinining rahnamosi bo’lgan Zardusht insonlarni birlik va tenglikka, bir-birlariga yaxshilik qilishga, yer yuzida tinch-tituv hayotni ta’minlash uchun birdamlikka chorlagan. Manzilli yordam ko’rsatish usuli oddiy fuqarolar uchun an’anaviy xalq qoidalari bo’lgan, ijtimoiy xizmat ko’rsatish, xayriya tadbirlarini amalga oshirish vazifalari esa diniy tashkilotlar zimmasiga yuklatilgan. Bu fuqarolar, aslzodalar esa kambag’allar, muhtoj aholi qatlamlariga sadaqalar tarqatish tizimlarini tashkillashtirganlar. O’rta Osiyo xalqlari qadimdan Islom diniga e’tiqod qilib kelganlar. Garchi davlat boshqaruvi dunyoviy bo’lishiga qaramasdan, islom dunyosining roli katta bo’lgan. Ijtimoiy yordam ko’rsatish vazifalari masjidlar, shuningdek, ijtimoiy- diniy uyushmalarning vakolatiga yuklatilgan. Islom kirib kelishi bilan yordamning individual shakli hisoblangan “zakot” keng tarqala boshlagan.

“Zakot”(arabcha- tozalanish, sadaqa berish)- mol-mulk va sadaqa, hayr-ehsondir. Zakot avval qarindoshlar orasidagi muhtojlarga berilgan. Agar, bunday qarindoshlar bo’lmasa musofirlar, kambag’allar, qarzdor insonlarga yordam tariqasida berilgan. Sobiq Ittifoq sharoitida esa aholiga asosan ijtimoiy sug’urtalar orqali yordam berilgan.

1991-yil O’zbekiston mustaqillikka erishganidan keyin esa mamlakatni jahon maydoniga olib chiqish hamda bozor iqtisodiyotini shakllantirishga qaratilgan ko’plab islohotlar amalga oshirila boshlandi. Shu bilan birgalikda yurtimizda ijtimoiy sohani rivojlantirishga ham alohida e’tibor berildi va bir qator qonunlar ijrosi ta’minlandi. Shu o’rinda ijtimoiy ish sohasi qanday kasb, unda nimalarga ahamiyat berilishi haqida to’xtalib o’tamiz.

Ijtimoiy ish- bu ijtimoiy guruhlar va insonlarga qo’llab-quvvatlash, himoya qilish, ularning hayotiy jarayonlarini tiklash, qiyinchiliklarini yengishda yordam beruvchi faoliyat turidir. Ijtimoiy ishda o’zining faoliyatlarini olib boruvchi kasb egalari esa, insonlarning muammolarini anglay bilishi, ularni hal etish yo’llarini topishga harakat qilishi lozim.

Jamiyatning rivojlanish jarayoni, jamiyatda yashayotgan insonlarga nisbatan ijtimoiy munosabat orqali belgilanadi. Ayniqsa, davlatning yordamga muhtoj bo’lgan odamlar qatlamiga e’tibori, ijtimoiy zaif kishilarga, ya’ni keksalar, nogironlar, yolg’iz, nochor kishilarga yordam berishi, ana shu jamiyatning yuksak ma’naviyati va ijtimoiy moddiy jihatdan barkamolligidan dalolat beradi. Jahon tajribasida o’z yaqinlariga yordam berish,



og'irini yengil qilish, hamdard bo'lish, xayr-ehson qilish azaldan turli ko'rinishlarda amalga oshirib kelingan. Ayniqsa, bu fazilatlar diniy qatlamlar orasida keng rivojlangan bo'lib, o'ziga xos ko'rinishlari bilan namoyon bo'lib kelgan.

Ijtimoiy ish faqatgina kundalik insonlar orasidagi muammolarni hal qilish borasida yordam berish bilan cheklanmay, balki ehtiyojli qiyinchiliklarni yengib o'tish xususiyatlarini va o'ziga o'zi yordam berish ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilganligi bilan, xayrsaxovat va ana shu faoliyatning shunga o'xshash turlaridan farq qiladi. Bu hodisani istalgan hayotiy vaziyatda odamni o'z muammolarni o'zi hal qilishga o'rgatish deb tushunish mumkin. Ijtimoiy ish bilan shug'ullanuvchi kasb egalari bugungi kunda keng doiradagi muammolarga duch kelmoqdalar. Alkogolizm, giyohvandlik, mulkchilik huquqlarining buzilishi, bolalarga yomon muomalada bo'lish, oilaviy janjallar, ruhiy va jismoniy kasalliklar, darbadarlik, jamiyatdan ajralgan holda yashash shular jumlasidandir. Bularning barchasi maxsus tayyorgarlik talab qiladi. Bunga yuzaki yondoshish mumkin emas. Chunki ijtimoiy ish xodimlari tegishli bilim va ko'nikmalarga ega bo'libgina qolmay, balki shu kasbga doir axloqiy me'yorlar va tamoyillarga rioya qilishga tayyor bo'lishlari kerak.

O'zbekistonda aholining turmush farovonligi yil sayin oshib bormoqda lekin kamchiliklar ham ko'plab borligini alohida ta'kidlab o'tish joizdir. Bu borada Prezident Shavkat Mirziyoyev tabiri bilan aytganda "Aholining barcha toifalari bilan doimiy muloqotda bo'lish, fuqarolarning qonuniy talab va ehtiyojlarini nafaqat o'rganish, balki ta'minlashdan iborat"[1]. Albatta, aholi va jamiyat har bir a'zosining turmush sharoitlarini oshirish, bilim olish imkoniyatlarini kengaytirish, salomatligini mustahkamlash, ishchi kuchi sifatida ijtimoiy foydali mehnatda ishtirok etish salohiyatini yuksaltirish davlatimiz ijtimoiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi farmoniga muvofiq aholining ijtimoiy muhofazaga muhtoj qatlamiga tibbiy-ijtimoiy yordam ko'rsatish tizimini yanada takomillashtirish, ijtimoiy sohaning boshqaruv organlari uchun kadrlar tayyorlash va ularni aholining muayyan guruhi bilan ishlashga ixtisoslashtirish, alohida mijoz, mijozlar guruhi (oilalar, ayollar, bolalar, yoshlar, keksalar va h.k) bilan dolzarb vazifalardan biri bo'lib, kelmoqda.[2]



Shunday vaziyatda ijtimoiy ish sohasini chuqur o'rganish, ijtimoiy hodimlarni tayyorlash davlatimiz va fuqarolar uchun ham dolzarb va foydali ekanligi aniq namoyon bo'lmoqda. Davlatimizda ushbu yangi kasbga nisbatan ehtiyojning paydo bo'lishi aholining muhtoj qatlamlari shuningdek, ularga amaliy ko'mak beruvchi tashkilotlar, ijtimoiy muassasalarning shakllanishi bilan uzviy bog'liq.

Dunyo mamlakatlariga nazar tashlaydigan bo'lsak, ularda ijtimoiy ish sohasida ulkan tajriba mavjud. Ko'plab mamlakatlarda ijtimoiy soha, ijtimoiy hodimlar faoliyatiga e'tibor qaratmaydigan birorta davlat dasturi yoki siyosatni uchratish mushkul.

O'zbekistonda ijtimoiy xizmat va umuman ijtimoiy sohaga qadimdan katta e'tibor berib kelingan. Qariyalarni hurmatlash, yetim-yesirlarning boshini silash, muhtojlarga yordam ko'rsatish xalqimizning azaliy qadriyatlaridan hisoblanadi. Islom dini xalqimizning bu qadriyatlarini yana ham yuksakka ko'tardi. Asosiy e'tiborni sinfga va jamoaga qaratib alohida insonni mensimagan sho'rolar davrida esa bu qadriyatlar xira tortdi. Istiqloq esa xalqimizga qadimiy qadriyatlarni qaytarib berdi.

O'zbekistonda ijtimoiy ta'minot bo'limlari, mehribonlik uylari, nogironlar uylari, turli jamg'armalar va ijtimoiy xizmat ko'rsatuvchi boshqa ko'plab davlat va nodavlat tashkilotlar mavjud. Ayni paytda, mamlakatimizda o'ziga xos institut-mahalla tomonidan ko'rsatiladigan ijtimoiy xizmat shakllari ham mavjudki, u boshqa mamlakatlarda uchramaydi.

Mamlakatimizda ijtimoiy ishning kasbiy faoliyat turi sifatida shakllanishi va rivojlanishi jamiyat hayot faoliyatining barcha sohalariga ta'sir ko'rsatuvchi shiddatli o'zgarishlar davriga to'g'ri keldi. Globallashtirish jarayonida ijtimoiy muammolarning ko'payishi natijasida aholining ko'plab qismi davlat tomonidan ijtimoiy himoya va muhofazaga muhtoj bo'lib qolishiga sabab bo'ldi. Yurtimizda mustaqillik qaror topishi bilanoq kamta'minlangan oilalar, nogironlar, qariyalarni qo'lla quvvatlashga alohida e'tibor berila boshlandi. O'zbekistonda ijtimoiy xizmat va umuman ijtimoiy sohaga qadimdan katta e'tibor berib kelingan. Biroq bu soha bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash XIX asr oxiri XX asr boshlarida boshlandi. Bugungi kunda esa mamlakatimizda ijtimoiy sohada yordam beruvchi tashkilotlar juda ko'p. Xususan o'ziga xos institut bo'lgan mahalla tomonidan ko'rsatiladigan ijtimoiy xizmat shakllari mavjud bo'lib, bu tizim boshqa mamlakatlarda uchramaydi. O'zbekistonda ijtimoiy xizmatni yangi kasbiy darajaga ko'tarish, bu kasb bo'yicha oliy yoki o'rta maxsus o'quv yurtlarida mavjud bo'lgan muammolarni



oldini olish uchun dastlabki qadamlar tashlandi. 2004-2005- o'quv yillarida Toshkent Davlat Madaniyat institutida "Ijtimoiy ish" ixtisosligi bo'yicha mutaxassislar tayyorlaydigan bo'lim ochildi. 2005-2006- o'quv yillarida esa shunday bo'limlar Farg'ona Davlat Universiteti hamda Samarqand Davlat Universitetida ham o'z faoliyatini boshladi. 2010-o'quv yilida Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universitetida faoliyat boshlagan. Universitetning 2017-yil 28-sentabrdagi 2-sonli Ilmiy Kengashida Ijtimoiy ish kafedrasi tashkil etilish to'g'risidagi qaror qabul qilinib, universitetning 2017-yil №1-598 sonli buyrug'i bilan tashkil etilgan. 2017-yilning 21-oktabridan boshlab kafedra bakalavriat hamda magistratura mutaxassisliklari bo'yicha tajribali ijtimoiy hodimlarni yetishtirib kelmoqda.

Bugungi kunda ijtimoiy ish ixtisosligi bo'yicha kadrlar tayyorlashni kengaytirish yo'lidagi to'siqlardan biri- ushbu yo'nalishdagi o'quv-uslubiy adabiyotlarning, qo'llanmalarning yetishmasligidir. Shunga qaramay ushbu muammo ham asta-sekinlik bilan hal etilib kelinmoqda.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, mamlakatimizga ijtimoiy ish sohasining kirib kelishi bilan aholi turmush tarzi sezilarli darajada ijobiy tomonga o'zgardi desak, yangilishmaymiz. Chunki ayni paytlarda Prezidentimiz tomonidan ham ijtimoiy sohaga alohida e'tibor qaratilib kelinmoqda. Buning dalili sifatida kuni kecha yangilangan Konstitutsiyamizning 1-moddasiga qo'shimcha sifatida ijtimoiy so'zining kiritilganidan bilishimiz mumkin. Albatta, bu kelgusida mamlakatimizda ijtimoiy sohaning yanada rivojlanishidan dalolat beradi.

REFERENCES

- 1.Ш.М.Мирзиёев. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз.Т.: “Ўзбекистон”, 2017 йил, 10.б.
- 2.Указ Президента Республики Узбекистан №:5352 от 02.02.2018г. "О мерах по коренному совершенствованию деятельности в сфере поддержки женщин и укрепления института семьи".



INKLYUZIV JAMIYATDA INKLYUZIV TA'LIMNING IJTIMOIIY AHAMIYATI

Sultonmurod Niyozov

O'zbekiston Milliy universiteti mustaqil tadqiqotchisi

ANNOTATSIYA

Maqolada muallif Yangi O'zbekistonda inklyuziv jamiyat va ushbu jamiyatda inklyuziv ta'limni tizimini joriy etishi bo'yicha ilmiy nazariy tahlillarni yoritgan. Shuningdek, maqolada inklyuziv ta'limni joriy etishda ijtimoiy, pedagogik va fanlar aro integrativ jarayonlarni sotsiologik tahlil qilgan. Bundan tashqari muallif Yangi O'zbekistonda inklyuziv ta'limni barcha ta'lim tizimlariga joriy etishning zaruratini asoslab bergan va ushbu faoliyatga doir islohotlarni yoritib bergan.

Kalit so'zlar: Ta'lim, inklyuziv ta'lim, Ijtimoiy davlat, ijtimoiy integratsiya, Ijtimoiy izolyatsiya, Ijtimoiy birdamlik, Ijtimoiy ishtirok etish, Inklyuziv, Yangi O'zbekiston, konsepsiya, pedagogika, diolog, muloqot.

ABSTRACT

In the article, the author covered scientific theoretical analysis on the introduction of an inclusive society in New Uzbekistan and a system of inclusive education in this society. The article also contained a sociological analysis of social, pedagogical and interdisciplinary integrative processes in the introduction of inclusive education. In addition, the author justified the need to introduce inclusive education into all educational systems in the New Uzbekistan and covered the reforms to this activity.

Keywords: Education, inclusive education, Social state, social integration, Social isolation, Social solidarity, Social participation, Inclusive, New Uzbekistan, concept, pedagogy, dialogue, dialogue.

2020-yil 23-sentyabr kuni qabul qilingan yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuniga ilk bora "inklyuziv ta'lim" iborasi qo'llanildi. Nogironlik fenomeni bugungi kunda tibbiy masala emas, balki barcha insonlarda bo'lgan umume'tirof etilgan va tan olingan inson huquqlari normasi sifatida qonunga kiritildi. Nogironligi bo'lgan bolalar va yoshlar uchun barcha to'siqlardan xoli bo'lgan



inklyuziv muhitni barpo etish orqali ularning to'liq va sifatli ta'lim olishini ta'minlash masalasi Yangi O'zbekistonda qurilayotgan «Ijtimoiy davlat» tamoyillarini ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida qo'llash demakdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentning qarori bilan 2020-2025-yillarda xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi va uni 2020-2021-yillarda amalga oshirish bo'yicha "yo'l xaritasi" tasdiqlandi. Qarorga muvofiq, 2021/2022 o'quv yilida tajriba-sinov tariqasida shaharlarda va Toshkent shahrining tumanlarida joylashgan bittadan maktablarda inklyuziv ta'lim joriy qilinishi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida joylashgan bittadan maktabda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun boshlang'ich tayanch korreksion sinflar ochilishi, Qashqadaryo, Farg'ona va Xorazm viloyatlarida joylashgan bittadan kasb-hunar maktabida ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarining 9-sinf bitiruvchilari hamda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan guruhlar, maktablarda inklyuziv ta'lim uchun shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan "Inklyuziv ta'lim laboratoriyasi" tashkil etilishi belgilandi [1; PQ-4860].

Inklyuziv jamiyatning asosiy belgilari va tashkil etuvchi tarkibiy elementlari batafsil tushunish uchun quyidagi ilmiy iboralarning mazmun-mohiyatini tahlil qilish lozim bo'ladi. Jumladan, **ijtimoiy integratsiya**. Ijtimoiy integratsiya o'zlarining to'liq hayotiy potensialini amalga oshirishlari uchun, ularning kelib chiqishidan qat'i nazar, barcha uchun teng imkoniyatlarni ta'minlashga qaratilgan sa'y-harakatlar jarayoni sifatida tushuniladi. Bu jamiyatning barcha jabhalarida, shu jumladan fuqarolik, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy faoliyatda, shuningdek qaror qabul qilish jarayonlarida to'liq va faol ishtirokini ta'minlaydigan shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan ko'p qirrali jarayondir. Ijtimoiy integratsiya jamiyatning qashshoqlik va ijtimoiy chetlanishga qarshi kurash jarayoni sifatida tushuniladi.

Ijtimoiy izolyatsiya. Ijtimoiy tashxis ijtimoiy integratsiyaga to'sqinlik qiluvchi shart (to'siq va jarayon) sifatida tushuniladi. Ijtimoiy tashxis – shaxs yoki guruhlarining o'z ijtimoiy o'ziga xosligi asosida yashayotgan jamiyatning barcha jabhalarida, ya'ni yoshi, jinsi, irqi, millati, madaniyati yoki tili hamda/yoki jismoniy, iqtisodiy, ijtimoiy nuqsonlari asosida to'liq ishtirok etishdan butunlay yoki qisman chetga chiqish jarayonidir. Ijtimoiy izolyatsiya ovoz huquqlarining yo'qligi, tan olinmasligi yoki faol ishtirok etish imkoniyatining yo'qligini anglatishi mumkin. Bu, shuningdek, yaxshi ish, mulk, er, imkoniyatlar, ijtimoiy xizmatlardan foydalanish va / yoki siyosiy vakillikdan mahrum bo'lishni anglatishi mumkin.



Ijtimoiy birdamlik. Ijtimoiy birdamlik jamiyatdagi insonlarni birlashtiradigan va bir joyda saqlaydigan elementlarni anglatadi. Ijtimoiy jihatdan bir-biriga mos jamiyatda barcha shaxs va guruhlariga mansublik, ishtirok etish, qo‘shilish, tan olish va legitimlik hissi mavjud. Ijtimoiy jihatdan bir-biriga mos jamiyatlar ham demografik jihatdan bir xil emas. Aksincha, xilma-xillikni hurmat qilish orqali ular o‘zlarining ijtimoiy xilma-xilligiga (g‘oyalar, fikrlar, ko‘nikmalar va boshqalar nuqtayi nazaridan) ega bo‘lish mumkin. Shuning uchun ular turli manfaatlar to‘qnashganda tanglik va ziddiyatning halokatli shakllariga kamroq moyil bo‘ladilar.

Ijtimoiy ishtirok etish. Ijtimoiy ishtirok jamiyat faoliyatidagi ishtirok aksiyasi deb tushuniladi. Qarorlarga ta‘sir ko‘rsatish va qaror qabul qilish jarayonlariga ega bo‘lish qobiliyatini anglatadi. Ijtimoiy ishtirok kishilar o‘rtasida o‘zaro ishonchni vujudga keltiradi, bu esa jamiyat va jamiyat oldidagi umumiy mas‘uliyatning asosini tashkil etadi.

Inklyuziv (fr. Inclusive – o‘zini qo‘shish, barcha uchun teng imkoniyat va qamrab olish) ma‘nolarini anglatib, barcha fanlarda keng tarqalgan tushuncha bo‘lib, mazmuni esa turlicha ma‘no anglatishi mumkin [2; 1040]. Masalan, agar inklyuziv so‘zini ta‘limga nisbatan qo‘llanilsa, nogironligi bor yoshlar bilan nogironligi bo‘lmagan yoshlarning bir muhitda ya‘ni to‘siqsiz muhitda ta‘lim olish imkoniyatini yaratishdir. Agar inklyuziv so‘zi jamiyatga nisbatan qo‘llanilsa, jamiyatdagi barcha ijtimoiy tabaqalar o‘rtasida tabiiy resurslardan foydalanish imkoniyatini tenglashtirish ma‘nosini anglatadi. Inklyuziv so‘zi agar siyosatda qo‘llanilsa tashqi siyosatni amalga oshirishda barcha davlatlarga bir xilda munosabatda bo‘lish kabi ma‘nolarni anglatadi.

Inklyuziv ta‘limni joriy qilishda Yangi O‘zbekiston davlati ham o‘zining siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy imkoniyatlaridan kelib chiqib, ta‘lim tizimini va mazmunini yangilash, takomillashtirish jarayonida esa xalqimizning milliy qadriyatlari, madaniyati, urf-odatlarini va an‘analarini bolalar ongiga singdirish va ulardagi xususiy farqlarni, ya‘ni rivojlanishdagi ayrim nuqson darajalarini e‘tiborga olgan holda nogironligi bor yoshlarni ta‘lim tizimiga to‘liq qamrab olishga imkon yaratadi. Inklyuziv ta‘lim tizimini joriy etish bo‘yicha ilg‘or tajribaga ega bo‘lgan davlatlar bilan tajriba almashish va ta‘lim tizimimizga qulay bo‘lgan uslublarni qo‘llash talab etadi. Rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan yoshlarni maktablarda va oliy ta‘lim tashkilotlarida ta‘lim olish ehtiyojini qondirishga oid me‘yoriy hujjatlarni takomillashtirish jarayonida ota-onalar va jamoat tashkilotlari hamda nogironligi bo‘lgan yoshlarning

o‘zlarini ham ishtirokini kengaytirish maqsadga muvofiqdir [3; 11].

Konsepsiyaning mazmuni inklyuziv ta’limdagi muloqotni uning salohiyati nuqtayi nazaridan (qamrab oluvchi) va ushbu faoliyat shaklining ishlashi kontekstida (boshqa fanlarga ham joriy qilish) ko‘rib chiqishni nazarda tutadi. Ushbu talqin insonni o‘z ta’limida faol ishtirok etadigan subyekt deb hisoblaydigan antropologik yondashuvga asoslangan tadqiqotlarni amalga oshirish lozim.

Tadqiqotning nazariy va pedagogik konteksti birgalikdagi faoliyat tushunchasi. Talaba, o‘qituvchi, fan muhitining ma’lum bir uyushgan aloqasi sifatida tushunilgan qo‘shma faoliyat o‘qituvchining kasbiy harakatlari subyekt sifatida konsepsiya doirasida harakat qiladi. Ushbu sa’y-harakatlar tufayli birgalikdagi faoliyat ishtirokchilarining rivojlanishi amalga oshiriladigan “Ta’lim haqiqati” yetarli ta’lim holati yaratiladi [8]. Bunday ta’lim haqiqati an’anaviy ta’limning “antropologik kamchiliklarini” bartaraf yetishga imkon beradi, chunki birgalikdagi faoliyat ishtirokchilari o‘z ta’lim subyektlari sifatida mavjud bo‘ladi. Eksperimentning aniq nazariy asoslanishi sifatida mualliflardan biri tomonidan ilgari tushunilgan va sinovdan o‘tgan dialog haqidagi kuzatuvlar ko‘rib chiqish lozim. Dialog – bu birgalikdagi faoliyat shakli bo‘lib, unda uning ishtirokchilarining ma’nolarini aktuallashtirish, rivojlantirish va birgalikda tashkil etish amalga oshiriladi. O‘qituvchining maxsus, ikkilangan pozitsiyasi dialogni rivojlantirish sharti hisoblanadi. Uni kasbiy xulq-atvorning muayyan usullarida amalga oshirish orqali u muloqotda ma’noni ta’minlaydi. Bunday vaziyatda birgalikdagi faoliyat muvaffaqiyatining namoyon bo‘lishi talabalarning matnli faoliyati bo‘lishi mumkin, bu ularga subyektivlik mavjudligi hodisasini tuzatish imkonini beradi.

3. ASE *l'Aide Sociale à l'Enfance* markazi zoravonlik yoki qiyin vaziyat ortida psixologik va fiziologik jabr chekkan bolalarga nisbatan hamkorlikdagi *Zo'ravonlikdan yiroq* dasturini ham olib boradi.

4. xavfli vaziyatlardan ogohlikka chaqiruvchi faoliyat- ayniqsa ushbu faoliyat markazning muhim tarmog'i hisoblanib,



xavf sharoitida qolgan bolalarga nisbatan doimiy profilaktik faoliyatni o'z ichiga oladi. Bunda xatarli axborotlar tarmog'i *Informations Préoccupantes* (IP) tamog'idagi ma'lumotlar asosida oilaga tibbiyot, pedagog xodimlar jalb etilib bolaga va aksincha oilaga nisbatan xizmat amalga oshirib boriladi. Bunda oilaga nisbatan deyilganda o'smir xulq-atvorida og'ish holatlari aniqlansa oilaga xizmat ko'rsatiladi.

5. ASE markazi voyaga etmaganlarga nisbatan mavju yoki kutilayotgan har qanday xatarlarni e'tiborga olib huquqni himoya qiluvchi davlat tashkilotlariga xabarnoma yuborish vakolatiga ega[2, 14.04.2023 yil kuni murojaat qilingan].

Markazning muhim vazifalarida biri bolani oiladan mahrum etish emas aksincha, oilada bola kamol topishi uchun sharoitni ta'munlashga ko'maklashish bo'lib, oilada voyaga etayotgan bolaga nisbatan doimiy (haftalik, oylik) moliyaviy ko'mak to'lovlarni amalga oshirib keladi. Yuqorida ta'kidlanganidek bolaning zarur ehtiyojlari (ovqatlanish, madaniy hordiq, kiyim-kechak, transport, gigyena mahsulotlari, o'yin xarajatlari) e'tiborga olinadi[3, 28-bet].

Shuningdek markaz oila bilan bolaning ta'limdan orqada qolish holatlari aniqlanganda quyidagi shakllarda hamkorlikni amalga oshiradi:

Bolaning ta'limda berilgan uyga vazifalarini bajarishga, bo'sh vaqtini o'tkazishga madaniy faoliyatda ishtirok etishga ko'maklashish;

Kundalik oilaviy faoliyatda ota onalarni qo'llab-quvvatlash (ovqat tayorlash, y-joylarni saqlash, ma'muriy tartib-qoidalar);

Hamkorlikda oilaviy xarajatlar yani, oilaviy buydjetni boshqarishda maslahat xizmatlarini amalga oshirish.

Ta'lim bo'yicha bola va oila manfaatlarini hisobga olgan holda oilaga aralashishdan maqsad oilada ta'limni tashkil etishga oid optimal echimlarni tashkil etadi. Va bu ikki xil shaklda amalga oshadi : birinchisi, ota onaning roziligi va o'zaro kelishuvi asosida oilada ta'limga ko'maklashish. Ikkinchisi, belgilangan sud qarori asosida bolaga oilda ta'limni tashkil etish, bunda ota ona belgilangan qarorni tan olishi majbur.

Bolalarni zarur holatlarda boshqa joyga ko'chirish joylashtirish oilaning iltimosi, departament maslahat raisi yoki bolaga oid sud qarori asosida markaz tomonidan amalga oshiriladi[4, 56-57 bet]. Bolani joylashtirishning bir qancha shakllari bo'lib, 1) kunlik ya'ni kuning ma'lum bir qisimini (kechgi vaqtgi tuni, kuning qaysidir vaqtlarini) oiladan tashqari muassasada o'tkazishadi. 2) Oilaga qabul qilish bunda ASE markaz oilani tashkil etish xizmatlarini olib boradi. Bunda bola o'zining ta'biy



oilasi bilan munosabatlarni saqlab qolgan holda ta'biy oilasiga haftada bir marta borib turish huquqiga ega hisoblandi. Keyingisi, shoshilinch qabul qilish bo'lib, bola hayotiga xavf paydo bo'lganda 24 soatgacha bolani boshpana bilan ta'minlash va parallel ravishda huquq idoralari bilan kelishilgan qaror qabul qilish. 72 soat qabul qilish- bu bola tashlab ketilgan, qarovsiz qoldirilgan oila integrasiyasida ishtirok eta olmagan holatlarda 3 kunlik boshpana bilan ta'minlash chora-tadbirlari ko'rib chiqiladi.

Xorijiy davlatlarda bolalarni himoya qilish bilan birgalikda zo'ravonlikka uchragan ayollar, o'smir yoshdagi 18 yoshdan 21 yoshgacha bo'lganlarni ham boshpana bilan ta'minalsh ularga zarur xizmatlarin amalga oshiruvchi tashkilotlar ham mavjud[5, 71-bet]. Masalan, CHU *Centre d'Hébergement d'Urgence* (shoshilinch boshpana markazi) ayollarga mo'ljallangan bo'lib, qarovsiz, uysiz qolgan va oilaviy majorolar tufayli oilasidan mahrum bo'lgan ayollarga xizmat ko'rsatuvchi markaz. CJM *Contrat jeune majeur* (yoshi kattalar uchun shartnoma) bu 18 yoshdan 21 yoshgacha bo'lgan yoshlarda oiladan alohida mustaqil hayotga qadam qo'yishi ya'ni oiladan o'zining mustaqil yo'lini tanlash kirishish davridagi yoshlarga mo'ljallangan bo'lib, ijtimoiy va kasbiy hayotga integrasiya jarayonida qiyinchilikka duch kelgan yoshlarga xizmat ko'rsatuvchi markaz hisoblanadi. Bu ko'p holatlarda ASE markazi bilan hamkorlikda faoliyatni olib boradi[6,].

Xorijiy davlatlarda ijtimoiy, huquqiy va moddiy yordam masalalari hukumat va nodavlat tashkilotlari hamkorligida doimiy muvofiqlashtirib boriladi. Ushbu muammolarning yuzaga kelishi va hal etilishida individga nisbatan munosabat hukumat darjasida e'tibor berilib deyarli jamoavilik ruhiyati sezilmaydi. Bizning mamlakatimizda qarovsizlikka nisbatan munosabat avvalo qavm-qarindoshlik, mahalla va keyin hukumat darajasida hal etilishi ijtimoiy-milliy qadiyatlarning bir belgisi hisoblandi.

REFERENCES:

1. <https://www.unicef.org/reports/unicef-annual-report-2021/>
2. <https://www.aide-sociale.fr/ase-aide/>
3. BARREYRE Jean-Yves, BOUQUET Brigitte (dir.), *Nouveau dictionnaire critique d'action sociale*, Paris, Bayard, 2006.
4. DE ROBERTIS Cristina (dir.), *Le Contrat en travail social*, Paris, Bayard, 1993
5. GALLAND Olivier, *Sociologie de la jeunesse*, Paris, Armand Colin, 4ème édition, 2007.



ЎЗБЕКИСТОНДА МОЖОРОЛИ ХУДУДЛАРДАН ҚАЙТАРИЛГАН БОЛАЛАР ВА УЛАРНИНГ ОИЛАЛАРИГА ИЖТИМОЙ ХИЗМАТ КЎРСАТИШ МАСАЛАЛАРИ

Офтобхон Анваровна Таджиходжаева

Республика болалар ижтимоий мослашуви маркази етакчи мутахассиси

АННОТАЦИЯ:

Мақолада қуролли можароли ҳудудлардан қайтарилган болалар ва уларнинг оилаларига кўрсатилган ижтимоий хизматлар ва уларнинг зарурияти очиқ берилган. Болалар ва аёлларни жамиятга муваффақиятли мослаштиришда ижтимоий хизматларни кўрсатилиши муҳимлиги ва хизматлар кенг қамровли бўлиши кераклиги ёритилган.

Калит сўзлар: мослаштириш, реабилитация, интеграция, қуролли можароли ҳудудлардан қайтарилган болалар ва аёллар, ижтимоий ҳимоя, ижтимоий хизмат, ижтимоий қўллаб-қувватлаш.

ABSTRACT:

The article reveals the social services provided to children returned from armed conflict areas and their families and their necessity. The importance of the provision of social services in the successful integration of children and women into society was highlighted and the services should be comprehensive.

Keywords: adaptation, rehabilitation, integration, children and women returned from armed conflict areas, social protection, social service, social support.

Мамлакатимизда ижтимоий ҳимояга муҳтож инсонларни ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш жамият ва давлат олдида турган муҳим масалалардан ҳисобланади. Жумладан, болалар ва аёлларни ижтимоий ҳимояси давлатимиз сиёсатининг устувор вазифаларидан бири сифатида қаралади. Сўнги йилларда инсонпарварлилик тамойили асосида олиб борилаётган кенг ислохотлар натижасида кўплаб ижобий натижаларга эришилмоқда. Айниқса, 2019 йилдан бошланган “Меҳр” инсонпарварлилик операциялари ёрдамида юзлаб ватандошларимиз Сурия, Ироқ ва Афғонистондан ватанга қайтарилди.



Таъкидлаш жоизки, Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг ташаббуслари билан мамлакат тарихида илк бор “Меҳр” деб номланган махсус инсонпарварлилик операцияси амалга оширилди. “Меҳр” операциясининг асосий мақсади турли йўллар билан Яқин Шарқда қуролли можароли ҳудудларга бориб қолган ўзбекистонлик болалар ва аёлларни ватанга қайтаришдан иборат. Маълумотларга кўра, ҳозирги кунда 5 та “Меҳр” операция доирасида қуролли можароли ҳудудлардан 333 нафар болалар ватанга қайтарилди. Оила ва хотин-қизлар қўмитасининг маълумотларига кўра, Меҳр операцияси доирасида жами ватанга қайтарилганлар ичида 39 нафар бола чин етим ҳисобланади. Даставвал оналарининг хамроҳлигисиз келган болалар қариндошларига берилгунга қадар Меҳрибонлик уйларига, Болалар шаҳарчасига ва SOS болалар маҳаллаларига жойлаштирилдилар. Кейинчалик болаларнинг яқин қариндошларига васийликка ва патранатга берилиши борасида кенг қамровли ишлар олиб борилиб, болаларни яқин қариндошлари оиласига берилди. Етим ва ота-она қарамоғисиз келган болаларни ўзларининг яқин қариндошлари оиласига берилиши масаласи уларга кўрсатилган энг яхши амалиёт натижалардандир.

Шу ўринда таъкидлаш жоизки, юртимизда болаларга ғамхўрлик ва эътибор миллий қадриятлар ва урф одатларимиз билан боғлиқдир. Тарихни эслайдиган бўлсак, иккинчи жаҳон уруши пайтида Ўзбекистон минглаб ота-она қарамоғисиз қолган етим болаларни эвакуация қилган. Уша пайтда ўзбек оилалари ўзларининг қийин ҳаётий вазиятларига қарамай турли миллат вакиллари билан иборат бўлган болаларга уй-жой бериб, уларни боқиб, вояга етказганлар. Халқимиз болажон халқ. Азалдан етим болаларни бошини силлаш олий фазилатлардан бири ҳисобланган ва у борада бизнинг халқимиз бошқаларга ўрнак кўрсата оладиган даражада ижобий тажрибага эга десак адашмаган бўламиз. Хуллас болаларнинг манфаатлари ҳар қачон ҳам ҳамма нарсадан устун бўлган.

Бугунги кунда жаҳон ҳамжамияти ва мамлакатимизга ташриф буюрган экспертлар ҳам Меҳр инсонпарварлилик операцияси доирасида болалар ва аёлларни ўз ватани, оиласи бағрига қайтарилиш ишларини юксак баҳоламоқдалар. Дарҳақиқат, Ўзбекистон ўзининг фуқароларини қуролли можароли ҳудудлардан қайтариш ва уларнинг ҳуқуқларини таъминлаш борасидаги ислохатларни амалга оширишда муваффақиятга эришди.



Ўзбекистон Республикаси Конституцияси, Бола ҳуқуқлари тўғрисидаги Конвенция, “Бола ҳуқуқларининг кафолатлари тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси қонуни, Ўзбекистон Республикаси “Оила кодекси” ва бошқа миллий ва ҳалқаро қонун ҳужжатларига мувофиқ, айниқса, болаларга нисбатан кўрсатилган барча ҳуқуқ ва нормаларга риоя этилиши орқали уларнинг ҳуқуқий ва қонуний манфаатлари таъминланди.

Мазкур болалар давлат ва жамиятнинг ҳимоясига муҳтож эканликлари сабаб, уларга ижтимоий ҳимояга муҳтож болалар сифатида қаралиб, давлатимиз томонидан эътибор ва ғамхўрлик кўрсатилди. Ватанга қайтарилган болалар ва аёлларнинг яшаш жойидан қатъий назар, уларни ижтимоий қўллаб-қувватлаш мақсадида ижтимоий хизматларнинг барча турлари кўрсатилди:

- ✓ паспорт ва бошқа шахсни тасдиқловчи ҳужжатларни расмийлаштириш ёки тиклаб бериш;
- ✓ хорижий мамлакатларда туғилган болалар учун туғилганлик тўғрисидаги гувоҳномаларни тиклаш;
- ✓ болаларни таълим олиш имкониятларини ва узвийлигини таъминлаш;
- ✓ онаси хамроҳлигисиз келган болаларни яқин қариндошлари оиласига бериш;
- ✓ мактаб ўқув дастуридан ортда қолган болалар учун индивидуал дастурлар ишлаб чиқиш. Ҳар бир болага мактабда ўқитувчи ва психолог бириктириш, тўғаракларга жалб қилиш;
- ✓ мактабгача ёшда бўлган болаларни мактабгача таълим ташкилотларига имтиёзли жойлаштириш;
- ✓ тиббий хизматлардан фойдаланиш имкониятини таъминлаш;
- ✓ аниқланган касалликлари бўйича даволаш ва реабилитация ишлари;
- ✓ жамият ҳаётига мослашувини таъминлаш;
- ✓ психоижтимоий қўллаб-қувватлаш;
- ✓ моддий ва молиявий рағбатлантириш;
- ✓ қонунчиликда белгиланган тартибда кам таъминланган, боқувчисини йўқотган ва бошқа турдаги нафақа ва имтиёزلарни расмийлаштиришда амалий ёрдамлар;

- ✓ маънавий-маърифий тадбирларга жалб қилиш (Ўзбекистон бўйлаб, тарихий шаҳарлар ва маданий масканларга уюштирилган саёҳатлар);
- ✓ репатриант болалар ва аёлларнинг яшаш шароитларини яхшилаш (таъмир талаб уйларни таъмирлаш)да амалий ёрдамлар.

Мазкур кўрсатилган ижтимоий хизматлар қуролли можаролар давом этаётган ҳудудлардан қайтарилган болалар ва оилаларни жамиятга моллаштириш ва реабилитация қилиш бўйича масъул бўлган давлат ва нодавлат ташкилотлари ҳамкорлигида амалга оширилди.

Хусусан, ватанга қайтарилган болалар ва уларнинг оилаларига мажмуавий ёрдамни кўрсатишга масъул бўлган ташкилот сифатида Республика болалар ижтимоий мослашуви маркази мутахассислари томонидан болаларнинг турмуш тарзи, эҳтиёжлари ва ижтимоий муаммолари ўрганилиб, аниқланган муаммоларни ҳал этиш, реинтеграция ва мослашув жараёнида қўллаб-қувватловчи чоралар кўрилди.

Ижтимоий хизматлар инсонларнинг турмуш сифатини оширишга, унга жамият ҳатида иштирок этишнинг бошқа фуқаролар билан тенг бўлган имкониятларини яратишга ва ўзининг асосий ҳаётий эҳтиёжларини мустақил равишда таъминлаш имкониятларини кенгайтиришга қаратилган хизматларга муҳтож шахсга ёрдам кўрсатиш бўйича ҳуқуқий, иқтисодий, психологик, таълимга оид, тиббий реабилитация чора-тадбирлари ва бошқа чора-тадбирлар мажмуидир [1].

Можароли ҳудудлардан олиб келинган болалар ва аёллар оғир ва қийин ҳаётий вазиятларда бўлганлар. Уларда ўзларининг ҳаётий эҳтиёжларини мустақил равишда ҳал эта олиш билан боғлиқ муаммолар бўлганлиги учун уларга тўлиқ ижтимоий хизматлар кўрсатилди.

Дастлаб болалар ва аёллар ватанга олиб келингач, бир ой давомида реабилитация хизматлари кўрсатилди. Реабилитацияда болалар ва аёлларнинг муҳим асосий эҳтиёжларини қондириш, тиббий, ҳуқуқий, таълимий, психологик ва коррекцион тадбирлар ташкиллаштирилди. Кейинги босқичда болалар ва аёлларни ижтимоий ҳимоя қилиш, уларни психоижтимоий қўллаб-қувватлаш ва жамият ҳаётига ижтимоий мослашуви каби масалаларда комплекс чора-тадбирлар амалга оширилди. Мазкур чора-тадбирлардан кўзланган мақсад ҳам қийин ҳаётий вазиятларда бўлган инсонларни нормал ҳаётий вазиятларга қайтишларига



кўмаклашиш орқали уларнинг тинч ва фаровон яшашларига эришиш ҳисобланади.

Ижтимоий хизматлар қуйидагиларни ўз ичига олади:

Болалар ва уларнинг оилалари билан ижтимоий хизмат олиб борувчи мутахассис ёки ижтимоий иш ходими аввало касбий компитентликка амал қилиш тавсия этилади. Бунда инсонларнинг вазиятини сир сақлай олиш, уларни диққат билан тинглаш, жабрланувчини айбдор санамаслик, зарар етказмаслик, камситилишларни олдини олиш, ўз вақтида ижтимоий қўллаб-қувватлаш ҳамда ижтимоий хизматларни кўрсатилишини мувофиқлаштира олиши керак бўлади.

Ижтимоий хизматларни амалга ошириш бир неча босқичдан иборат: кризисли вазиятларда маслаҳат бериш; бирламчи ва мажмуавий баҳолаш ишларини олиб бориш; хизматни режалаштириш, хизматларни амалга ошириш ва мониторинг.

Шунингдек, ижтимоий хизматлар соҳасида фаолият юритувчи тажрибали мутахассислар томонидан идоралараро ҳамкорликда можароли ҳудудлардан қайтарилган болалар ва уларнинг оилаларидаги ижтимоий муаммоларни бартараф этиш, ўз вақтида сифатли тиббий кўмак кўрсатилишини ташкиллаштириш, таълим олиш ва унинг узвийлигини таъминлаш масалалари, ҳуқуқий кўмак олишида амлий ёрдамлар, соғлом ҳаёт тарзини тарғиб қилиш, касбга ўргатиш орқали барқарор даромад манбаи билан таъминлаш чораларини кўриш каби муҳим масалаларда мажмуавий ишлар олиб борилди.

Ҳозирги кунда можароли ҳудудлардан ватанга қайтариб олиб келиниган фуқароларни ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш масалаларида зарурий чоратадбирларни амалга оширилмоқда. Хусусан, болаларнинг манфаатларига таалуқли бўлган масалаларда энг мақбул қарорларни қабул қилиш ва уларнинг жамиятга интеграциялашувини амалга ошириш ишлари бугунги кунда ҳам давом эттирилмоқда. Бунинг ортида давлат ташкилотлари, маҳаллалардаги хотин-қизлар фаоллари, тиббиёт ва ички ишлар ходимлари, педагоглар, психологлар, ижтимоий иш ходимлари ва жамоатчиликнинг ҳам хизмати катта эканлигини таъкидлаш муҳим.

Оила ва болаларга ижтимоий хизматларни кўрсатишда сифат ва ижобий натижага эришишда ижтимоий хизматларни ривожлантириш борасида таклиф ва тавсиялар ишлаб чиқилди:

- қийин ҳаётий вазиятларда бўлган мажмуавий хизматларга эҳтиёжи бўлган шахслар ижтимоий хизматларни бир жойдан олиши учун имкониятларни кенгайтириш;
- болалар ва уларнинг оилаларини ижтимоий-қўллаб-қувватлаш тизимида ижтимоий хизмат кўрсатувчи ресурсларни кўпайтириш зарур;
- ижтимоий ҳимоя тизими мувофиқлаштириш зарур (ягона тизим йўқ, барча хизматлар тарқоқ)
- психоижтимоий хизматларни кўрсатиш борасида мутахассислар учун дастур ва қўлланмалар ишлаб чиқиш керак;
- оила ва болалар билан ижтимоий хизматларни олиб боровчи мутахассисларнинг касбий компетентлигини ошириш;
- можароли ҳудудлардан қайтарилган болалар ва аёлларни ижтимоий қўллаб-қувватлашда иштирок этувчи мутахассисларнинг касбий салоҳиятини оширишга хизмат қилувчи семинар-тренингларни ташкил қилиш.

REFERENCES:

1. Людмила Ким. Кейс менежмент амалиёти стандартлари: Ижтимоий хизматларга муҳтож инсонлар ва оилалар билан ишлаш юзасида қўлланма – 2019.



XOTIN-QIZLARNINGNING BOSHQARUV KOMPETENSIYALARI RIVOJLANTIRISH ZARURIYATI

Javohira Akbarovna Xaydarova

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi
Davlat boshqaruvi Akademiyasi stajyor-tadqiqotchisi
istiqbol1985@mail.ru

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada xotin-qizlarning boshqaruv kompetensiyalari rivojlantirish masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, rahbar ayollarda shakllantirish uchun zarur ko'nikma va malakalar tasniflangan, hamda mazkur sohani rivojlantirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar. rahbar ayollar, xotin-qizlar, boshqaruv kompetensiyalari, boshqaruv mahorati, boshqaruv ko'nikmasi, malaka oshirish.

ABSTRACT

This article analyzes the issues of women's management competence development. Also, the necessary skills and qualifications were classified for the formation of guidelines, furthermore, proposals and recommendations were developed for the growth of this field.

Keywords. Women leaders, women, management competencies, management skills, management experience, professional development.

Bugun O'zbekistonda Prezidentimiz Sh.Mirziyoev boshchiligida olib borilayotgan islohotlar rahbarlarni o'z xizmat vazifasiga professional yondashuvi, kerakli bilim va ko'nikmalarni egallab, xalqimizga sidqidildan xizmat qilishiga undashi lozim. Vatanimizning yangi imijini shakllantirish rahbarlarning eng oliy maqsadlaridan biriga aylanishi shart. Professional moslashuv bu, albatta, hududlarda, tashkilotlarda, jamoada professional muhitni shakllantirish, mehnat unumdorligi va sifatini oshirish, o'zaro munosabatlar va hamkorlik, natijadorlikka erishish orqali amalga oshiriladi. Buning uchun rahbardan aholi uchun cheksiz imkoniyatlarni yaratib berish, insonni qadrlash, muammolarni hal qilishda har bir masalaning yechimiga professional yondashish kerak bo'ladi.



Hozirgi kunda xotin-qizlarning, shu jumladan rahbar ayollarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularda jamiyatdagi mavqeni oshirish, ularning bevosita boshqaruv jarayonidagi ishtirokini oshirish bilan bog'liq. Hozirgi kunda xotin-qizlarning boshqaruv faoliyatiga jalb etish borasida qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan sungi yillarda qator normativ-huquqiy hujjatlarda xotin-qizlarni, rahbar ayollarning kasbiy va boshqaruv malakalarini oshirish, ularda boshqaruv kompetensiyalarni shakllantirish bo'yicha qator vazifalar belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi «2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi tўғрисида» 60-son, 2022 yil 7 martdagi “Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 87-son farmonida Davlat boshqaruvi akademiyasida rahbar xotin-qizlarni tayyorlash bo'yicha alohida o'quv kurslarini tashkil etish hamda har yili kamida 100 nafar xotin-qizlarni o'qitish, barcha davlat organlari va tashkilotlari, ustav kapitalida davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan tashkilotlar hamda ularning tizimidagi tashkilotlar rahbarlarining kamida 1 nafar o'rinbosarini xotin-qizlar orasidan tayinlash, Xotin-qizlarni tadbirkorlikka jalb qilish uchun Xalq banki tizimida rahbarning xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha o'rinbosari lavozimi joriy etish, iqtidorli yosh xotin-qizlarni rahbarlik lavozimlariga tavsiya etish tizimini yaratish kabi vazifalar belgilangan [1].

Mazkur vazifalardan kelib chiqib hozirgi kunda bu borada respublika va viloyat darajasida alohida belgilangan dasturlar doirasida chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda, lekin tuman darajasida xotin-qizlarni, shuningdek, rahbar ayollarning kasbiy va boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish borasida ishlar samarali tashkil etilgani yo'q. Sababi barcha xotin qizlarni viloyat markazida o'quvlarga muntazam jalb qilish imkoniyati cheklangan. Shuning uchun tuman darajasida maxsus o'quvlar va xotin-qizlar hamda rahbar ayollar uchun maxsus onlayn platforamalarni (boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan) ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Shuningdek, xorij tajribasini o'rganish asosida qo'yi bo'g'inda faoliyat yuritayotgan rahbar ayollarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularda boshqaruv kompetensiyalarni rivojlantirish asosida boshqaruvning o'rta va yuqori bo'g'indagi rahbarlik lavozimlariga zaxira kadrlarni shakllantirish maqsadga muvofiq.

Bu borada xorij tajribasiga tayanadigan bo'lsak, Amerikalik tadqiqotchi Xubert Xamfri rahbar ayollarning boshqaruv faoliyatidagi yondashuvi ikki jihatini ajratib ko'rsatadi: 1) Erkak



va ayol rahbar kadrlar boshqaruv funksiyalari (rejalashtirish, tashkilashtirish, muvofiqlashtirish, nazoart va rag‘batlantrish)ni bajarishda o‘xshashlikni namoyish etadilar; 2) Boshqaruv qarorlari ijrosini ta‘minlashda erkak va ayol rahbar kadrlar o‘rtasida farqlar mavjud [2].

Sungi yillarda amalga oshirilgan tadqiqotlarda xotin-qizlarda boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish, ularning nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy faolligi balki, siyosiy faolligini ham oshirib, ularni boshqaruvdagi nufuzini, ishtirokini oshiradi degan yondashuv ilgari muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Rossiyalik tadqiqotchilar YE. A. Smirnov va M. V. Roslyakovaning 2020 yilda chop yetilgan “Boshqaruv jamoasida gender omili” nomli maqolasida ayol va erkak rahbarlarning ishbilarmonlik fazilatlarining bir-birini to‘ldirishiga urg‘u berish, boshqaruv jamoasining (tashkilot xodimlarining) jiplashuviga, ularni o‘zaro xamjihatligini ta‘minlash imkoni beradi degan farazani ilgari so‘radi [3].

Hozirgi kunda davlat siyosatini shakllantirishda va qarorlar qabul qilishda rahbar ayollar faol ishtirok etmoqda. “O‘rganish natijalari mamlakatimizda tuzilmaviy va institutsional o‘zgarishlar izchil davom etayotganini, gender tenglik sohasidagi qonunchilik takomillashtirilayotganini, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi o‘rni va mavqei ortib borayotganini tasdiqlaydi. Siyosiy partiyalarda xotin-qizlar ulushi 47 foizga, oliy ta‘limda 40 foizga, tadbirkorlik faoliyatida esa 37 foizga yetdi. Rahbar lavozimlarda ishlayotgan ayollar ulushi — 33 foiz. Bugungi kunda 2 mingga yaqin davlat va jamoat tashkilotlariga ayollar rahbarlik qilmoqda” [4].

Rahbar ayollarning boshqaruv kompetensiyalari rivojlantirishni tizimli tashkil etish har bir viloyatda rahbar ayollarning boshqaruv kompetensiyalarini baholavchi “Assessment markaz”lar tashkil qilish hamda har chorakda rahbar ayollarning boshqaruv kompetensiyalarini baholash asosida ularni maxsus modullar (boshqaruv kompetensiyalari shakllantirishga qaratilgan) bo‘yicha o‘qitish maqsadga muvofiq.

Sotsiologiya fanlari doktori, professor T.Norboyeva “Ayol kishining boshqaruv uslubi xotirjamroq, muvozanatliroq, yumshoqroqdir. O‘z ishida qat‘iyatlilik, sabr-toqat va narsalarni oxiriga yetkazish qobiliyati yetakchi ayolga muvaffaqiyatga erishishga yordam beradi. Agar kompaniya ayol tomonidan boshqarilsa, rivojlanish odatda izchil bo‘ladi. Mas‘uliyat va kichik masalalarga ham e‘tibor qaratish birinchi o‘ringa chiqadi. Qaror qabul qiluvchi tuzilmalarda ayollarning faoliyat olib borishi siyosatning ijtimoiy yo‘naltirilishini ta‘minlaydi” [5] deb ta‘kidlaydi.



To'g'ri ayol rahbar kadrlarning boshqaruv jarayonidagi ishtiroki ularning ijtimoiy mavqeni va jamiyatdagi rolni oshirish bilan birgalikda, gender tenglikni taminlashga xizmat qiladi.

Xulosa kilib aytganda, rahbar ayollarning boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirishda quyidagilarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq:

Birinchi, xotin-qizlar, shu jumladan rahbar ayollarda boshqaruv kompetensiyalarni shakllantirish maktab ta'limidan boshlanishi, maktab va oliy ta'lim tizimida milliy g'oya, milliy mafkura bilan bir qatorda maxsus liderlik ko'nikmalari bo'yicha amaliy, trening mashg'ulotlari joriy etilishi, yoshlarni kelgusida rahbarlikka tayyorlash bilan bir qatorda, xotin-qizlarimizning boshqaruv sohasida o'zida bo'lgan ishonchini ortiradi;

Ikkinchi, barcha oliy ta'lim muassasalarida "Yosh lider qizlar" klubini tashkil etish orqali, ularda boshqaruv ko'nikmalarini shakllantirish, davlat tuzilmalari va tashkilotlaridagi rahbar ayollar tomomidan ular uchun maxsus master-klass tashkil etish orqali ularni boshqaruv faoliyatiga qiziqishini uyg'otish maqsadga muvofiq;

Uchinchi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi Akademiyasi hududiy filliallarida ham "Rahbar ayollar" uchun maxsus o'quv kurslarini tashkil etish, xotin qizlarni boshqaruv kopetensiyalarini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirayotgan ishlarni qamrovini oshiradi;

To'rtinchi, har bir viloyatda xotin qizlarni, rahbar ayollarning boshqaruv kompetensiyalarni baholavchi va rivojlantirishga ixtisoslashgan "Assesment" markazlarini tashkil etish va ko'chma (sayyor) tadbir orqali maxsus testlar, so'rovnoma va intervyular orqali ularni boshqaruv salohiyatini baholab borish lozim.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni // <https://lex.uz/docs/5899498>
2. Теоретические аспекты деятельности женщины-руководителя [Электронный ресурс]. — URL: <http://refbox.org/3630-teoreticheskie-aspektydeyatelnosti-zhenschiny-rukovoditelya.html>
3. Смирнов Е. А., Рослякова М. В. Гендерный фактор в управленческой командной работе / Женщины в профессиях XXI века: тенденции, проблемы, перспективы: материалы



Всероссийской научной конференции с международным участием. Москва, 3 марта 2020 г. — Иваново: Ивановский государственный университет, 2020. — С. 32–39.

4. Davlat boshqaruvidagi TOP-40 rahbar ayollar reytingi // <https://www.xabar.uz/infografika/davlat-boshqaruvidagi-top-40>

5. Ayol rahbar qanday bo‘lishi kerak? // <https://xs.uz/uzkr/post/gender-tenglik-yangi-ozbekiston-ustuvor-jonalishining-ajhralmas-qismiga-aylandi-tanzila-narbaeva>



МЕЖЛИЧНОСТНЫЕ КОНФЛИКТЫ В КОНТЕКСТЕ СЕМЕЙНЫХ ОТНОШЕНИЙ.

С. Н. Юсупова
преподаватель НУУ

АННОТАЦИЯ:

Предупреждение и разрешение конфликтов в семье следует рассматривать как основные виды деятельности по управлению и регулированию такими конфликтами. Другими словами, личность должна найти те способы и механизмы, которые позволят ей осуществить преодоление данного кризиса, проявить особую психологическую гибкость и умение осознанно подходить к реализации того гендерного ролевого репертуара, который задается средой.

Ключевые слова: конфликт, критическая ситуация, процесс социализации, процесс ресоциализации, межличностные конфликты, парадигмальная конструкция, теории социального конструирования гендера, теории гендерной системы.

ABSTRACT

Prevention and resolution of conflicts in the family should be considered as the main activities for the management and regulation of such conflicts. In other words, a person must find the ways and mechanisms that will allow her to overcome this crisis, show special psychological flexibility and the ability to consciously approach the implementation of the gender role repertoire that is set by the environment.

Keywords: conflict, critical situation, process of socialization, process of resocialization, interpersonal conflicts, paradigm construction, theories of social construction of gender, theories of gender system.

Главная роль мужчин заключалась в том, чтобы быть инструментальными руководителями своих семей, оказывая финансовую помощь своим женам и детям. Следовательно, вопрос о том, кто что делает в семьях, является продуктом ролевых структурных процессов, встроенных в наше общество. Таким образом, ролевая компетентность оценивается путем изучения степени, в



которой женщины и мужчины выполняют семейные роли, чтобы эффективно и действительно способствовать положительным результатам для родителей и детей и, в свою очередь, поддерживать порядок и стабильность в обществе. Функционалистская теория ролей признала ту идею, что мужчины и женщины лучше подходят для разных задач, которые были определены как "инструментальные" для мужчин и "выразительные" для женщин[1]. Хотя с тех пор эта концептуализация подверглась критике за сохранение и переосмысление структур гендерного неравенства. Это особенно очевидно в исследовании разделения труда в домашних хозяйствах, которое показало, что женщины по-прежнему выполняют значительно больше домашней работы, даже если они работают больше часов вне дома, чем их партнер-мужчина. Аналогичным образом, теория относительных ресурсов предполагает, что, поскольку мужчины имеют более высокое образование и доход, они выполняют меньше работы по дому, однако успехи женщин в этих областях не связаны с сокращением домашнего труда. Представления о "мужской работе" и "женской работе" по-прежнему пронизывают то, как американские семьи принимают решения о том, кто обеспечивает уход за членами семьи, включая пожилых членов семьи. Эти три теоретические основы, структурный функционализм, функционалистская теория ролей и теории относительных ресурсов, традиционно использовались для руководства исследованиями функционирования семьи и семейных процессов.

Степень, в которой человек усваивает эти сценарии, определяет себя как гендерный и, в свою очередь, принимает роли, которые общество предписывает женщинам-мужчинам, влияет на то, что происходит внутри и за пределами семей. Таким образом, различия в навыках, установках, образе мышления и понимании жизни женщин и мужчин не являются врожденными, а социально сконструированы и социально подкреплены. Роли, связанные с уходом за детьми и домашними делами в семьях, возлагаются на женщин, потому что семейные роли - это "социально ориентированная перцептивная, интерактивная и микрополитическая деятельность, которая преследует определенные цели как выражение мужской и женской природы". Природное различие женщины и мужчины, осмысленное в мировой философии и как одна из фундаментальных основ жизни в ее беспрестанном течении и вечном возвращении (Ф. Ницше), и как неперемнная часть жизненного мира — значимой для человека и



непосредственно данной ему реальности(Э. Гуссерль), — такое расщепление идеи человека и всеобщее расщепление мира (инь-ян) по мере развития человеческих цивилизаций все в большей мере переходит из сферы чистого философского размышления в сферу социально-философского анализа. Этот сдвиг теснейшим образом связан с самим развитием социальной философии в XX– начале XXI века, изменением представлений о характере соотношения теоретико-методологического пласта социальных наук, эмпирических обобщений и собственно философского осмысления всей совокупности данных социологии, социальной психологии, социальной антропологии, других наук о человеке и обществе. Но, разумеется, в основе внимания к проблеме «женщина-мужчина» лежит колоссальное изменение положения женщины в современном мире, которое не может далее осознаваться с позиций, характерных для философии и социальной науки прошлых эпох. Поскольку расцвет позитивизма приходится на времена , когда женский вопрос обсуждался в крайне примитивной форме и захватывал ограниченный круг и проблем, и социальных участников — деятелей (актеров, но для женщин в этой системе оценки нет специального термина), то с этой философской линией, нашедшей выражение в ранней социологии , трудно соединить современное представление по проблеме «женщина-мужчина», хотя сегодня ни одна парадигмальная конструкция философского и социально-научного знания не обойдет молчанием этой проблемной области[2].

В частности, Е. А. Здравомыслова и А. А. Темкина пишут: «Гендер —это социальный статус, который определяет индивидуальные возможности в образовании, профессиональной деятельности, доступе к власти, сексуальности, семейной роли и репродуктивного поведения. Социальные статусы действуют в рамках культурного пространства данного сообщества. Это означает, что гендеру как статусу соответствует гендерная культура» [3]. Обратим внимание на то, что гендер здесь трактуется как социальный статус. Это значит, что в системе понятий концепции гендерного конфликта так понимаемый гендер не мог бы выступать в качестве родового понятия, поскольку статус — лишь один из элементов гендерной системы.

Большое методологическое значение также имеют положения двух концепций — теории социального конструирования гендера и теории гендерной системы. Первая позволяет изучать

диахронический аспект культуры, вторая — синхронический. Вкратце охарактеризуем их главные идеи.

На макроуровне конфликт представляет собой социальный конфликт. В основе социального конфликта лежит борьба между социальными группами людей за реализацию собственных целей. В упрощенном виде конфликт на макросоциальном уровне можно рассмотреть, как конфликт интересов, т. е. борьбу женщин как социальной группы за более высокий статус в обществе. Во всех современных обществах женщины по сравнению с мужчинами обладают более низким статусом, следовательно, они имеют меньше власти и меньше доступа к принятию решений важных для общественного развития. «До сих пор не обнаружено такое общество, в котором женщины обладали бы большей властью, чем мужчины».

На уровне межличностных отношений конфликты наиболее распространены в семейной и профессиональной сферах. Остановимся на анализе гендерных конфликтов в сфере семейных отношений. Исследователи, занимающиеся изучением семейных отношений, как правило, обращают свое внимание на такой значимый показатель семейной жизни, как характер распределения ролей в семье между мужем и женой. Так, в работе Ю.Е. Алешиной и И.Ю. Борисова полоролевая дифференциация рассматривается как комплексный показатель, учитывающий не только реальное распределение ролей в семье, но и отношение к нему супругов [4]. В работе В.П. Левкович и О.Э. Зуськовой подчеркивается, что потребность супругов в исполнении определенных ролей в семье выступает как одна из базовых потребностей совместной супружеской жизни [5]. Основными причинами ролевых семейных конфликтов являются ситуации, когда не оправдываются ожидания, связанные с ролевым поведением супругов. Другими словами, супруги ожидают, что их партнеры будут иначе исполнять свои семейные роли, чем это происходит на самом деле.

Ведущая стратегия поведения в конфликтной ситуации – соперничество, т.е. ориентация на достижение своих интересов в сочетании с пренебрежением интересами другого. Супружество представляет собой сложнейшую гамму отношений: от естественно-биологических до экономических, правовых, этических, социально-психологических, эстетических и пр. Следовательно, в переплетении всех указанных аспектов человеческих отношений лежат потенциальные



межличностные конфликты. Это обусловлено тем, что в рамках семьи несколько человек самым тесным образом взаимодействуют в течение длительного времени (десятки лет, т.е. на протяжении большей части человеческой жизни). В такой полнофункциональной системе интенсивного взаимодействия не могут не возникать споры, конфликты и кризисы.

Большинство конфликтологов полагает, что семейные конфликты являются одной из самых распространенных форм конфликта. По оценкам специалистов, в 80—85% семей происходят конфликты, в остальных 15—20% возникают ссоры, но различными поводами. В настоящее время большинство *феминистов* (специалистов в области психологии семейных отношений) полагает, что бесконфликтных семей не существует. Так, супруги, особенно молодые, склонны к драматизации любых спорных ситуаций, что нередко приводит к разводам.

Конфликтными супружескими союзами называют такие, в которых между супругами имеются постоянные ссоры; где интересы, потребности, намерения и желания приходят в столкновение, порождая особо сильные и продолжительные эмоциональные состояния. Семейные конфликты, как и любые другие, бывают *открытые* и *скрытые*. Открытые конфликты принимают форму ссоры, скандала, драки и т.д. Скрытые конфликты не имеют яркого внешнего проявления, это скорее внутреннее недовольство, но их влияние на супружеские отношения не менее ощутимо, чем влияние открытых конфликтов. Конфликты также могут быть *легкоразрешимыми* и *трудноразрешимыми*. В первом случае причина может быть легко установлена и устранена. Трудноразрешимые конфликты даже при выявлении их причины нелегко ликвидировать, поэтому отношения между супругами остаются напряженными. Однако причину, испортившую отношения, нужно постараться устранить как можно скорее. Конфликт обычно вызывается какой-то сложной для супругов проблемой, при этом конфликтные ситуации специфичны для разных стадий развития семьи. Наиболее существенна роль конфликта в период формирования семьи, когда супруги только начинают приспосабливаться друг к другу. Именно на этом этапе важно определить причины конфликтных ситуаций, способы и пути их разрешения.

Как и любые другие типы конфликтов, семейные конфликты имеют определенные особенности, без учета которых нельзя эффективно предупреждать и конструктивно



разрешать подобные противоречия. Выделим следующие принципиальные особенности семейных конфликтов.

1. Основное содержание семейных конфликтов определяется *структурой семейных отношений*. С одной стороны, это отношения власти, эмоциональной близости, с другой — правовые и нравственные обязательства, которые вытекают из основных функций семьи.

2. Наблюдается *разнообразие и специфичность причин возникновения* семейных конфликтов. В большинстве случаев конфликт в семье — это результат целого клубка противоречий позиций мужа и жены, родителей, детей и их окружения.

3. Семейные конфликты, как правило, протекают на *повышенном эмоциональном фоне* и быстро входят в стадию эскалации, что объясняется особым интимным характером семейных отношений.

4. Спецификация семейных конфликтов определяются особенностями *семьи как социального института*. Эволюция института семьи порождает эволюцию семейных конфликтов. Если раньше вопрос о более высоком социальном статусе жены просто не стоял в повестке дня, то в настоящее время подобная ситуация служит основанием для многочисленных претензий и комплексов со стороны мужчин.

5. Специфика семейных конфликтов тесно связана с *основными этапами и кризисными периодами развития семьи*.

6. Затяжные семейные конфликты и некоторые способы их разрешения, в частности развод, как правило, негативно сказываются на состоянии здоровья участников конфликтного противостояния. Некоторые из них вообще заканчиваются трагически. Особенно деструктивное влияние семейные конфликты оказывают на детей.

Ряд исследователей отмечает, что при анализе причин семейных конфликтов существенную роль играют социальные факторы микро- и макросреды. К первым, как правило, относятся:

- ухудшение материального положения семьи;
- чрезмерная занятость одного или обоих супругов на работе;
- невозможность нормального трудоустройства супругов или других членов семьи;
- длительное отсутствие собственного отдельного жилья;

- отсутствие возможности устроить детей в детское учреждение и др.

Характеризуя факторы макросреды, следует подчеркнуть, что социально-экономическая стабильность как в мире, так и в стране способствует снижению уровня внутрисемейной конфликтности. Стабильное государство способствует формированию стабильной семьи, а стабильная семья гарантирует стабильное и динамичное развитие государства.

Динамика семейных конфликтов характеризуется классическими этапами (возникновение конфликтной ситуации, ее осознание, открытое противоборство, его развитие, разрешение конфликта, эмоциональное переживание конфликта). Вместе с тем семейные конфликты отличаются повышенной эмоциональностью, скоростью протекания каждого из этапов, быстро входят в стадию эскалации [6].

